

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI

O.T.BEGIMOV

O'ZBEK TILI

**Nofilologik oliy o'quv yurtlarining rus tilida ta'lim
oluvchi 1-kurs talabalari uchun
darslik**

QARSHI – 2021

O.T. Begimov. O'zbek tili – darslik

Darslik nofilologik oliy o'quv yurtlari 1-kurs rus guruhlarida o'qitiladigan "O'zbek tili" fani o'quv dasturi asosida tayyorlangan bo'lib, u 5311900- Neft va gaz konlarini ishga tushirish va ulardan foydalanish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Shuningdek, darslikdan nofilologik oily o'quv yurtlarining boshqa ta'lim yo'nalishlarida ham "O'zbek tili" fanini o'qitishda foydalanish mumkin. Unda fan dasturi talablari asosida tegishli leksik va grammatik mavzular yuzasidan o'quv materiallari o'z ifodasini topgan.

Darslik institut Kengashning (27.12. 2019-y. 5-son bayonnomasi) qaroriga asosan amaliy mashg'ulotlarda darslik sifatida foydalanishga ro'xsat etilgan.

Taqrizchilar: QDU "O'zbek tilshunosligi" kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari doktori X. Jabborov
QMII "O'zbek va rus tillari" kafedrası
katta o'qituvchisi Y. Rahmonova

SO'ZBOSHI

O'zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo'yilgan dastlabki dadil qadam bo'ldi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o'zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo'ldi.

“O'zbek tili” fanini o'qitish O'zbekistonda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillarining davlat tilini puxta egallashiga, milliy, madaniy qadriyatlarni o'rganishiga va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga, barcha sohalarda erkin fikr almashishiga hamda mutaxassislik doirasida muloqot yuritishiga zamin yaratadi.

“O'zbek tili” fani davlat tilida og'zaki va yozma muloqot yuritish, tilning orfoepik va imlo qoidalari, sohaviy terminologiya, mutaxassislik tili, monologik va dialogik matn tuzish. nutq uslublari, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish masalalarini qamrab oladi.

“O'zbek tili” fani gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, uni birinchi kursda o'qitilishi rejalashtirilgan.

“O'zbek tili” fanidan tayyorlangan mazkur darslikning asosiy maqsadi talabalarning kundalik, ilmiy va kasbiy sohalarda faoliyat olib borishi uchun o'qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida ularda fan bo'yicha egallangan bilim, ko'nikmalarni muloqot va ish faoliyati jarayonida qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrda qabul qilingan “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 5850-sonli farmoni o'zbek tili fanini davlat tili sifatida o'qitishni yanada takomillashtirish, uni mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish talablarini belgilab berdi. Unda ta'lim muassasalarida davlat tilini o'rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish; mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar

yaratish bilan bir qatorda, ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish; davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish, o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish kabi vazifalar belgilab berilgan. Nofilologik oliy o'quv yurtlarining ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarida davlat tili sifatida o'qitiladigan o'zbek tili fanidan tayyorlangan mazkur darslik shu talablarni bajarishga ma'lum darajada xizmat qiladi deb o'ylaymiz.

BIRINCHI DARS

MAVZU: O'ZBEKISTON – YAGONA VATAN

Orfoepiya qoidalari. O'zbek tilida tovushlar talaffuzi

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qish, mazmunini to'liq tinglab tushunish. Matndagi atama va iboralarning ma'nosini izohlash. Vatan haqidagi she'rlardan namunalar yod olish.

Yozma nutq: Matndan tayanch so'z va iboralarni ajratib yozish. Matndagi asosiy fikrni yozma ravishda ifodalash. Respublika baynalmilal madaniyat markazi haqida qisqa ma'lumot yozish.

Grammatika: Orfoepiya qoidalarini o'rganish. O'zbek tilida tovushlar talaffuzi xususiyatlarini o'rganish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

oq yurgak	vujudga singib ketmoq
oq yuvmoq	unitilmas kalom
kindik qoni	iymon va e'tiqod
tabarruk go'sha	avliyo
ona zamin	porloq istiqloq
g'ayrat aks etgan	yorqin kelajak
orzular qanoti	jon fido etish
parvoz etmoq	xurlik va ozodlik

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Oq yurgakka o'ragansan o'zing bizni

Oq yuvib, oq taragansan o'zing bizni.

Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib,

Kunimizga yaragansan o'zing bizni.

Vatan. Bu so'zni sevmaydigan, mehr bilan tilga olmaydigan hech bir inson topilmasa kerak. Vatan – har inson tug'ilib o'sgan, kindik qoni tukilgan tabarruk

gusha! Ona zamin – ko'zlarida g'ayrat aks etgan bolakayning ilk muallimi. Vatan - kelinchakning orzular qanotida parvoz etib kirgan eshigi.

Ona zamin! Bu so'z qon-qonimizga, vujudimizga singib ketgan, bir umrga yuragimizda muhrlanib qolgan, eng muqaddas, eng unutilmas kalomdir!

Vatan sevgisidan yurak yorug', iymon va e'tiqod uyg'oq bo'ladi.

Bu tuproqning farzandlari bek bo'ladi,

Topgan–tutgan davlatlari erk bo'ladi.

Ildizlari Hazrati – o'zbek bo'ladi,

Beshigida avliyolar o'sgan elim!

Mustaqil, hur O'zbekiston mening Vatanimdir! Zaminining eng yuksak tuxfasi bu tinchlikdir.

O'zbekiston, baxtinga omon bo'l yurtim!

Ey, tinchligim, asrayman seni,

Bor ovozim, bayotim bilan!

Ey, tinchligim, asrayman seni,

Kerak bo'lsa, hayotim bilan!...

3. Matn yuzasidan topshiriqlarni bajaring.

1. Matning asosiy mazmun-mohiyatini so'zlab bering.

2. Matn yuzasidan savollar tuzing.

3. O'ylab ko'ring: siz o'z Vataningizni (o'z xohishingiz bilan hayotda sodir bo'ladigan qiyinchilik tufayli, boshqa sabablar bilan) tark eta olarmidingiz.

4. Savollarga javob berish orqali o'zingizni sinab ko'ring.

Rus va o'zbek tillarida Vatan haqidagi qanday o'xshash maqol va matallar bor?

O'zbek va rus tillarida Vatan haqida yozgan qanday shoir va yozuvchilarni bilasiz?

Matndagi qaysi fikr sizga ko'proq yoqdi?

4. Quyidagi hikmatli gaplarni o'qing va ma'nosini tushunishga harakat qiling.

1. Bizga ota-onalar, bolalar, yaqin xesh-aqrabolar qimmatlidir, lekin muhabbat bobidagi barcha tasavvurlarimiz birgina «Vatan» degan soʻzda mujassamlashgan. Vatanga nafi tekkingdek boʻlsa, qaysi vijdonli odam uning uchun jon bermoqqa ikkilanar ekan? (Kekeron)

Eng maqbul fazilat – Vatanga va odamzodga koʻrsatilgan xizmatdir
(J. Delil)

Kimki, oʻz yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi (J. Bayron)

Kimki Vatanini xor qilsa, u oilasidan ham, bor-budidan ham ayriladi.

(P. Kornel).

5. Tez aytishni mashq qilib koʻring. Soʻzlarni maʼnolarini tushuntirib bering.

Zanjir, sarjin, anjir.

Bir juft choʻp koʻpmi, koʻp juft choʻp koʻpmi?

Tubsiz dengiz dedingizmi, dengiz tengsiz dedingizmi?

Bir ayvoncha, ayvoncha labida hovuzcha, hovuzcha labida xovoncha ichida bir xovuchcha dovuchcha bor.

Elchin bilan Yoʻlchin temir yoʻlchi,

Temir yoʻlchilarga yetib koʻr-chi?!

Qutlugʻ qurutgan urugʻ Ulugʻ qurutgan urugʻdan qurugʻroq.

Bashar bilan Yashar yashil yarim sharda yashashar.

6. Quyidagi nazariy maʼlumot bilan tanishing.

Orfoepiya qoidalari. Oʻzbek tilida tovushlar talaffuzi

Orfoepiya qoidalari deganda biz nutq tovushlarini adabiy meʼyorlarga rioya qilgan holda talaffuz qilishni tushunamiz.

Bilib oling. 1. Adabiy talaffuz butun shevalar uchun umumiy boʻlgan qoidalar asosida belgilanadi. Adabiy talaffuz soʻz boʻgʻinlariga urgkuni toʻgʻri qoʻyishga bogʻliq boʻladi. Odatda, oʻzbek tilidagi soʻzlarning oxirgi boʻgʻiniga urgʻu tushadi: maktáb — maktabdósh — maktabdoshím.

2. Yuklamalar va kishilik affikslari urgʻusiz talaffuz qilinadi: siz-a, siz-da, siz-mi kabi.

3. O‘zlashgan chet, so‘zlarning ko‘pida urg‘u birinchi yoki ikkinchi bo‘g‘inga tushadi: âql, fikr, vâqt, uzr, hukm, tonna, muhim, mudir, munis, tipolôgiya kabi.
4. Chet so‘zlarning urg‘u olmagan oldingi **o** tovushi **a** tarzida, keyingi bo‘g‘indagi urg‘uli **o** va **e** tovushlari to‘g‘ri talaffuz etiladi: dotsent (datsent), izotop (izatop), motfema (marfema) kabi.
5. obraz, traktor, direktor kabi so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inidagi **a**, **o** unlilari talaffuz qilinmasa ham yoziladi.
6. Tutuq belgisidan oldingi unli yoki undosh cho‘ziq, ajratib talaffuz qilinadi: a‘lo, Ra‘no, ta‘zim, ta‘b, ra‘y; mas‘ul, qat‘iy, san ‘at kabi.
7. **Oo** harfi o‘zbekcha so‘zlarda orqa qator keng **o** unlisi sifatida (ota, xola, fido), chet so‘zlarda old qator tor **o** (o) unlisi (tonna, talon) kabi talaffuz qilinadi.
8. **Ff** harfi fursat, talaffuz, sof so‘zlarida **p** emas, **f** kabi talaffuz qilinadi.
9. **Jj** harfi juda, tijorat, vaj so‘zlarida jarangli qorishiq undosh kabi, jurnal, mujda, tiraj kabi so‘zlarda til oldi jarangli sirg‘aluvchi undosh sifatida talaffuz etiladi.
10. **Xx** va **Hh** harflarining yozilishi va talaffuzida farq bo‘ladi: **Xx** — chuqur til orqa jarangsiz sirg‘aluvchi undosh bo‘lib, **Hh** — jarangsiz sirg‘aluvchi bo‘g‘iz undoshidir. Bu undoshlarni farqlamaslik ma‘no o‘zgarishiga olib keladi: shox — shoh, har — xar, hil — xil kabi.
11. Talaffuzda ba‘zi tovushlar boshqa tovushlarning ta‘siri bilan o‘zgarishi mumkin. Bunday hollarda tovushlar imlo qoidalariga ko‘ra yozilsa ham, talaffuzda rioya qilinmaydi: tuzsiz — tussiz, yozsa — yossa, uyqu — uyqi, kitob — kitop, zarar — zalal, uchta — ushta, daryo — dayro, shkaf — ishkaf, Samarqand — Samarqan, bigiz - biyiz, bog‘bon — bog‘von kabi.
12. So‘z bo‘g‘inlaridagi urg‘uni o‘z o‘rnida qo‘yib talaffuz qilmaslik so‘z ma‘nolarini o‘zgartirishi mumkin: bôg‘lar — bog‘lâr, sûrma — surmâ, qishlôqcha — qishloqchâ, âtlas — atlâs, mexânîk — mexanîk, fîzik — fizîk, ôlma — olma kabi.

7. Quyidagi topshiriqni bajaring.

1. Ko‘chiring. Qo‘sh unlilaming yozilishi va talaffuziga diqqat qiling: sharoit, tabiat, radio, million, maishat, said, oila, ellipsoid, lauréat, okean, poema, aerostat, manfaat, inshoot, aorta, vakuum, muammo, tabiiy, rioya.

2. Qo‘sh unlili so‘zlarga misollar keltirib, ular vordamida gap tuzing.

IKKINCHI DARS

MAVZU: O‘ZBEK TILI – DAVLAT TILI

O‘zbek tilining imlo qoidalari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi asosiy fikrni ajratib so‘zlab berish.

Yozma nutq: “Men o‘zbek tilini o‘rganyapman” mavzusida dialog tuzish va uni instsenirovka qilish. Mutafakkirlarning til haqidagi fikrlaridan namunalar keltirish.

Grammatika: O‘zbek tilining imlo qoidalarini o‘rganish.

1. Yangi so‘z va birikmalarni o‘rganing.

Muqaddas	Yurtboshi
mangu ehtirom	urf-odatlar
vatan tuyg‘usi	milliy an‘analar
tabarruk zamin	mahalla
munosib farzand	keng jamoatchilik
tarixiy davlatchilik	o‘zaro yordam
poydevor	tuy-tantanalar

2. Matnni o‘qing va o‘rganing.

1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 1995-yil 24-avgustda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilindi.

Shu kunga qadar ona tilimizning yanada sayqallanishi, badiiyligi, tarixiyli va dunyo miqyosida ahamiyati hamda nufuzini oshirishga qaratilgan qator madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy ijod, izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borildi va jarayon davom etmoqda. Pirovard natijada, bugungi kunda jahondagi ko'plab mamlakatlar xalqlari davlatimiz ramzlari — O'zbekiston Respublikasi bayrog'i, gerbi, davlat madhiyasi qatorida o'zbek tiliga ham hurmat bilan qarab, nafis va boy til sifatida yuksak baho berib kelmoqdalar.

Har yili 21-oktabr kuni mamlakatimizda til bayrami sifatida keng nishonlanishi an'anaga aylanib qolgan. Chunki, mamlakatimizda ona tilimizni yanada rivojlantirish va takomillashtirish, uning milliy ruhini oshirish, madaniyat va san'atni yuksak pog'onalarga ko'tarish, shuningdek, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish sohasida qabul qilingan Davlat dasturi ijrosini ta'minlashdek, ustuvor yo'nalishdagi vazifalarni bajarish tom ma'noda kundalik hayotimizga tobora singib bormoqda.

Mamlakatimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan tub islohotlarning markazida iqtisodiy islohotlar bilan bir qatorda ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlar turganligi o'z samarasini bermoqda. Ayniqsa, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, bozor iqtisodiyoti munosabatlarining tobora shakllanishida, inson tafakkurining o'zgarishida fan, ta'lim, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat, shuningdek, o'zbek tili va til madaniyatining rivojlanishi xalqimizning avloddan-avlodga o'tib kelayotgan tarixiy urf-odatlar, udumlari, an'analari, tartib-qoidalar, turmush tarzi va azaliy qadriyatlarining asosiy mezon sifatida namoyon bo'lib kelmoqda.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, uni nomlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing.
3. Matnning asosiy mazmuni nimadan iborat.
4. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini izohlab bering: ona yurtga muhabbat, tabarruk zamin, boqiy davlat, kuch-qudrat, aql-farosat, sabr-toqat, adolat, ma'rifat.

4. Tilga bag'ishlangan quyidagi maqol va matallarni o'qing va ma'nosini o'rganing.

Tilingni so'zlashga so'z, muhayyo qil, tilingni o'q qilu, aqlni yoy qil.

(Abdulqosim Ferdavsiy).

Til – so'zlovchi istaginin eshituvchiga yetkazuvchi tarjimondir.

(Beruniy)

So'zni ko'ngildan chiqarmaguncha tilga keltirma va har nekim ko'ngilda bor – tilga urma.

(Navoiy)

5. She'rni yod oling. Uni nomlang va muvzunini o'z so'zingiz bilan aytib bering.

O'z tilini unitgan xalqning,
Bog'larida o'sgan gullarin.
Chirmab uxlari zaharli ilon
O'z tilini unitgan xalqning
Osmonida porlamas quyosh -
Nur o'rniga tukiladi tosh.
O'z tilini unutgan xalqning
Uyqusida aslo orom yuq –
Tegib turar kuragiga o'q.
O'z tilini unutgan xalqning
Mozorida ajdodlar qabri
Uzra qo'yar bolalar tikan.

(Xurshid Davron)

7. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

O'zbek tilining imlo qoidalari

O'zbek tilining lotin yozuviga asoslangan imlo qoidalari 1995-yil 24-avgustda O'zbekiston Respublikasi Vazrlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida"gi qarori bilan joriy qilingan.

Bugungi o'zbek imlosi fonetik, morfologik, tarixiy-an'anaviy, farqlovchi (differentzial) va shakliy(grafik) yozuv tamoyillariga tayanadi. Sheva va ayrim shaxslarning nutqidagi xilma-xillikni hisobga olmaganda ham og'zaki nutq tovushining bir-biriga ta'sir qilishi natijasida so'z tarkibida, turli xarakterdagi juda ko'p o'zgarish sodir bo'ladi. Bu xilma-xillikning hammasi ham orfografiyada o'z aksini topaverganda, yozuvda bir xillikni ta'minlab bo'lmas edi. Yozuvda bunday nuqsonlarga barham berish uchun orfografiyaning yuqorida sanalgan qoidalari ishlab chiqilgan.

Fonetik yozuv. Bu yozuvga asosan so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi natijasida yuz bergan fonetik o'zgarish nutq jarayonida qanday eshitilsa, shunday yoziladi.

So'z tarkibidagi o'zak va qo'shimchaning yozuvda eshutilishiga qarab me'yorlashtirilishi fonetik yozuv deb yuritiladi. Masalan, adabiy talaffuzda jo'nalish kelishigining asosiy shakli sifatida –ga qabul qilingan. Ba'zan bu shakl (k) va (q) tovushidan keyin (–ka), (–qa) tarzida talaffuz etiladi va shu tarzda yoziladi: terakka, buloqqa.

O'zbek tilida ko'pgina morfemalar fonetik variantining mavjudligi ularning fonetik yozuv asosida yozilishidan darak beradi: [–gan//–qan//–kan] sifatdoshlari; [–guncha//–kuncha//–quncha]; [–gach//–kach//–qach] ravishdoshlari; [–dir//–tir];[–kaz//–gaz//–giz//–qaz//–qiz] kabi nisbat shakllari va h.

Hozirgi o'zbek orfografiyasida barcha o'zak va qo'shimchani yozishda ham fonetik tamoyilga amal qilinavermaydi.

Morfologik yozuv. Fonetik yozuvdan farqli ravishda, morfologik yozuvga ko'ra tildagi morfemalar nutqda qanday aytilsa yoki eshitilsa, shunday emas, balki asl holicha yozilishi kerak. Boshqacha aytganda, so'z o'zagiga qo'shiluvchi morfemaning yozuvda to'liq yoki qisman bir sistema asosida aks ettirilishi yoki ularning variantlaridan birining tanlab olib yozilishi asosida bir xillikka erishish morfologik yozuv deyiladi.

Hozirgi o'zbek orfografiyasida morfologik tamoyil asosiy va etakchi tamoyil bo'lib, yozuvda keng qo'llanadi. Masalan, (aytdi) so'zidagi (–di) shakli (–ti) tarzida

eshitiladi (aytti), aytgan soʻzidagi (-gan) shakli (-kan) tarzida eshitiladi (aytkan), aytgin soʻzidagi (-gin) shakli (-kin) tarzida eshitiladi (aytkin).

Tarixiy-an'anaviy yozuv. Oʻzbek xalqining yozuvi tarixida koʻpgina soʻz va iboralar borki, ogʻzaki nutqda qay tarzda talaffuz etilishidan qatʼi nazar, ularning yozilishida maʼlum anʼanaga amal qilinadi. Soʻz yoki morfemaning hozirgi talaffuz meʼyoriga mos kelmaydigan, tarixiy shaklida yozilishi tarixiy-an'anaviy yozuv qoidasi asosida. Masalan, hozirgi oʻzbek tilida:

-buyruq-istak maylining [-gin] shakli oʻrnida [-gil], [-qil] shakllari: aytgil, urmagil;

[-gani] maqsad ravishdoshining [-gali], [-kali], [-gʻali], [-qali] shakllari: aytgali, kuydirgali;

[-dan] chiqish kelishigi oʻrnida [-din], [-mi] yuklamasining [-mu], [-dir] shaklining [-dur] tarzida ishlatilishi bunga misol boʻladi.

Farqlash tamoyili nutqimizdagi shakli va talaffuzi bir-biriga yaqin soʻz va morfemalarni yozuvda farqlashni talab etadigan yozuv qoidasi. Masalan: otli-otlik, toʻnli-toʻnlik, paltoli-paltolik, yondosh-yondash, qism-qisim, rosa-raso, tanbur-tambur va h.k.

Shakliy yozuv. Soʻzlarni shakliy yozuv asosida yozish - qaysi xalqning tili yoki grafikasidan olingan boʻlsa, oʻsha etimologik yoki grafik holatini saqlab qolish. Oʻzbek tili leksikasida arab, fors-tojik, rus, ingliz tilidan oʻzlashgan qator soʻzlar mavjud boʻlib, oʻzbek xalqi talaffuzida ular oʻziga xos tarzda qoʻllanilishi mumkin. Ammo shakliy yozuv qoidasiga muvofiq ularning oʻzlari mansub tildagi etimologiyasi saqlab qolgan holda yoziladi. Masalan, muallim-ma:lim, maorif-mo:rif, Saodat-So:dat, Muhiddin-Moʻydin, goʻsht-goʻsh, baxt-bax, fikr-fikir, hukm-hukum, stol-ustal, stantsiya-istansa va h.k.

Orfografiyaning koʻrib oʻtilgan yozuv qoidalaridan fonetik va morfologik tamoyil oʻzbek tilidagi va soʻz-qoʻshimcha birikuvi natijasidagi fonetik hodisalarni, tarixiy-an'anaviy va farqlash tamoyillari baʼzi soʻzni va qoʻshimchani qanday yozishni meʼyorlashtirsa, shakliy yozuv faqat boshqa tillardan oʻzlashgan soʻzni qanday yozishni oʻrgatadi. Lekin ayni vaqtda koʻrib oʻtilgan yozuv

qoidalarining o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjud bo'lib, ular bir-birini to'ldirish uchun xizmat qiladi.

8. O'rgangan nazariy ma'lumotlarga asoslangan holda quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Nuqtalar o'rniga –ga, -ka, -qa qo'shimchalaridan mosini qo'yib yozing.

1. Hayot daraxtlari o'sgan bog'larda So'zni payvand eting har bir yurak..., Toki u bitta dard, bitta ishq bilan Zaminga o'rnashsin, o'ssin falak... (N. Ostonov) Toshkent... kelib, Navoiy bo'ini sayr etdilar. Badiiy so'zini nutq... nisbatan ishlatish mumkin. Badiiy kishilar deyish xato, yosh san'atkorlar deyilsa, ma'qulroq. (A. Rustamov). Tepdim – terak... chiqdim. (Maqol)

2-topshiriq. O'zbek tiliga o'zlashgan rus va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardan 20 ta misol topib yozing va ularning yozilishini izohlang.

3-topshiriq. Berilgan so'zlarning ma'nosini izohlang. Ularning shakl va ma'no jihatidan farqlanishiga bittadan misol yozing.

Xush – hush, tuz – tus, yod – yot, ho'p – xo'p, sof – sop, bot – bod, ham – xam, yog'du – yog'di, sa'va – sava, yondosh – yondash, asl – asil, yuvundi – yuvindi.

UCHINCHI DARS
MAVZU: MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI
O'zbek tilida so'z yasalishi

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirgan holda so'zlash. Milliy urf-odatlarini ta'riflab berish.

Yozma nutq: Biror milliy bayram, marosimdan olingan taassurotlarni yozish. "Turli millatlarning urf-odatlari" mavzusida polilog tuzish va uni instsenirovka qilish.

Grammatika: O'zbek tilida so'z yasalishini o'rganish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

rasmiy tantana	chorvachilik va dehqonchilik
o'yin-kulgi	Ramazon va Qurbon hayitlari
qadimiy udumlari	qurolli kuchlari kuni
yaxshi niyatlar	Xalqaro xotin-qizlar kuni
uzum sayli,	hazil-mutoyiba, kulgi va shodlik kuni,
ekin ekishga kirishish	
hosil bayrami	

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Bayram – muhim tarixiy voqea, hodisa sharafiga shodlik, rasmiy tantana o'tkazish uchun belgilangan muborak kun. Bunday muborak kunlar xalq tomonidan quvonch, shodlik, tantana, o'yin-kulgi bilan kutib olingan, tantanavor nishonlangan.

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan, ardoqlab-e'zozlaydigan o'ziga xos bayramlari, tantanalari, an'analari bo'ladi. Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab xalq hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

Bayramlarda xalqning qadimiy udumlari, an'analari, tarixi, madaniyati o'zining yorqin ifodasini topadi. Bayramlarda kishilarning diniy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy yutuqlari namoyish etiladi. Bayram arafasida, bayram kunlari kishilar bir-birlarini tabriklaydilar, bir-birlariga yaxshi niyatlar izhor etib, muvaffaqiyatlar tilaydilar.

O'zbek xalqi eng qadimgi davrlardan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Shuning uchun ham xalq orasida Navro'z, gul sayli, ekin ekishga kirishish, qovun sayli, uzum sayli, hosil bayrami kabilar keng tus olgan. Keyinchalik islom dini bilan bog'liq Ramazon va Qurbon hayitlari ham keng nishonlanadigan bo'lgan.

Bugungi mustaqil O'zbekistonda bayramlar dam olish kuni deb e'lon qilingan. Quyidagi sanalar qonuniy bayram kunlari hisoblanadi: 1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro'z, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr – Mustaqillik kuni, 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni, 8-dekabr – Konstitutsiya kuni, Ramazon va Qurbon hayitlari hijriy hisobga ko'ra har yili o'n kun farq bilan nishonlanadi. Bulardan tashqari, mamlakatimizda 14-yanvar – respublika qurolli kuchlari kuni, 1-aprel – hazil-mutoyiba, kulgi va shodlik kuni, 1 iyun – bolalarni himoya qilish kuni, 21-oktabr – o'zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan tarixiy sana sifatida nishonlanib kelinadi.

Bayramlar ichida Navro'z va Yangi yilni bolalar ham, kattalar ham intizorlik bilan kutadilar. Bu bayramlarga imkon qadar jiddiy tayyorgarlik ko'rishadi.

Sharq xalqlari qadimdan Navro'zni Yangi yilning birinchi kuni sifatida keng nishonlab kelishgan. Navro'zda kecha bilan kunduz tenglashib, hayvonlar nomi bilan ataluvchi yil – muchal almashadi. Buyuk bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Nosiriddin Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqalar Navro'zni bahor, uyg'onish, yoshlik, go'zallik bayrami sifatida tasvirlaganlar.

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga munosib sarlavha tanlang.
2. Matn mazmuni asosida so'z va birikmalarning mavzuviy guruhini tuzing.

3. Quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlang; ma'rifatparvarlik, ma'naviyat o'chog'i, buyuk alloma, kutubxona va qiroatxona, tashkil qilmoq.
4. Matn yuzasidan savollar tuzing va ular asosida savol-javob o'tkazing.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

O'zbek tilida so'z yasalishi

1. **So'z yasovchi qo'shimchalar** o'zakka qo'shilib, yangi ma'noli so'z hosil qiladigan qo'shimchalardir: *o't – o'tloq, arra – arrala, kuch – kuchli, hosil – serhosil*. So'z yasovchi qo'shimchalar **unumli** (-li, -la, -chi, ser-, -dosh, -kor) va **unumsiz** (-vul, -ag'on, -chil, -in, -a) bo'lishi mumkin.

Qo'shimchalar tuzilishiga ko'ra 2 xil bo'ladi:

1. Sodda qo'shimchalar boshqa qo'shimchalarga ajralmaydi: aqli.
2. Murakkab qo'shimchalar kamida ikkita qo'shimchaning qo'shilishidan hosil bo'ladi: dehqon**chilik**, odam**garchilik**, yordam**lash**.

O'zakka so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishidan hosil bo'lgan qism **negiz** deyiladi: **paxtakor**larga, **gulzorda**, **bilim**lilar.

Turli usullar yordamida so'z hosil qilinishi **so'z yasalish** deb ataladi. So'zlar asosan besh xil usul bilan yasaladi: 1. So'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shish yo'li bilan yasaladi (Sodda so'zlar). 2. So'zlarni qo'shish bilan yasaladi (Qo'shma so'zlare). 3. So'zlarni qisqartirib yasaladi (Qisqartma so'zlar). 4. Bir turkumdan boshqa turkumga so'z o'tishi yordamida yasaladi. 5. So'zlarni takrorlash yordamida.

So'z yasovchi qo'shimchalar bilan ot, sifat, fe'l, ravish turkumiga oid so'zlar yasaladi: *ishchi, aqli, ishla, yashirin*. **Olmosh, son** va **yordamchi** so'zlar yasalmaydi.

So'zlarni qo'shib, juftlab so'z yasashda qo'shma va juft so'zlar yasaladi: *qora+mol – qoramol, ko'z+oyinak – ko'zoynak, idish-tovoq, apil-tapil, unda-bunda*.

Birdan ortiq so'zning birikishidan yasalgan so'zlar **qo'shma so'z** deyiladi: *choyquti, gultojxo'roz, sotib oldi, himoya qildi, bir*

oz, rahmdil. Ikkita soʻzning birikishidan yasalgan soʻzlar juft soʻzlar deyiladi: *birin-ketin, qovun-tarvuz, omon-eson*.

Soʻzlar qisqartirib qoʻshish yoʻli bilan ham yasaladi. Bular **qisqartma soʻz** deyiladi. Qisqartirib soʻz yasash faqat otlarda uchraydi: *elektron hisoblash mashinasi – EHM, Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi – MDH*.

Soʻzlarning bir turkumdan boshqa turkumga koʻchishi yordamida soʻz yasalishi: sifat va feʼl otga, son ravishga oʻtadi: *oʻgʻil bola* (oʻgʻil - sifat). *Oʻgʻil keldi* (otga oʻtgan). *U soat birga* (son) *keldi*. *Akasi bilan birga* (ravish) *keldi*. *Oʻquv, yozuv, qurilish* (feʼl otga oʻngan). Boshqa turkumga koʻchgan soʻzning maʼnosi va gapdagi vazifasi ham oʻzgaradi.

Soʻzlarni takrorlash yordamida soʻz yasalishi. Bunda soʻzlar takrorlanib yangi soʻzlar yasaladi: *paq-paq* (oʻyin), *tur-tur* (turish), *bipbip* (avtobus), *pat-pat* (mototsikl), *xolla-xola* (oʻyin), *manman, yoʻl-yoʻl* (rang), *es-es* (zoʻrgʻa).

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Koʻchiring. Yaqin oʻtmishda qoʻllanmagan yoki boshqacha nomlar bilan atalgan soʻzlarning ostiga chizing.

1. Fermer xoʻjaliklarining soni tobora ortmoqda. («Xalq soʻzi») 2. Har bir tuman va shaharlarda yangi oʻquv muassasalari qurilib, foydalanishga topshirilmoqda. 3. «Oqtosh» oromgohi Toshkent viloyatida joylashgan. U yerdagi oʻyingohda bolalarning sport bilan shugʻullanishi uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. 4. Keyingi yillarda tadbirkorlik bilan shugʻullanayotgan yurtdoshlarimiz safi tobora kengaymoqda.

2- topshiriq. Matnni oʻqib, dialogdan qanday farqlanishini ayting. Sifatlovchilarning maʼno va vazifasini izohlang.

... Taʼbirimiz qoʻpol tushmasa bu goʻzal qiz och raʼno gulining tusida yoki oq sariq tusda yaratilgan edi. Aʼzoda oʻskan tuklarga ham haligi tusning taʼsiri boʻladir. Raʼnoning sochi gungurt-qora, yaʼni quyoshsiz joylarda qora koʻrinsa ham quyoshda bir oz sargʻish boʻlib koʻrinar edi. Shunga oʻxshash Raʼnoning koʻzida

ham buning asari ko‘ruladir: mudavvarga moyilroq jodu ko‘zi kishiga qattiq qaraganda qoraliqdan boshqacha yana bir turluk nur sochar erdi. Kiðraklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi.

3-topshiriq. “Turli millatlarning urf-odatları” mavzusida ijodiy matn tuzing.

TO‘RTINCHI DARS

MAVZU: TARIX VA ZAMONAMIZ

O‘zbek tilining leksik qatlamlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma‘nosini izohlash. Matnni qisqartirgan holda so‘zlab berish. Tarixiy so‘zlarning zamonaviy muqobillarini topish.

Yozma nutq: Tarixiy asar yoki filmlardan biri haqidagi taassurotlarni yozma shaklda bayon qilish. Tarixiy shaxslardan birini tasvirlash.

Grammatika: Tilning leksik qatlamlarini o‘rganish.

1. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarni o‘rganing.

ko‘hna shahar	asriy qalin daraxtzor
bir necha asr muqaddam	qadim uchqo‘rg‘on
vodiyning quyi qismi	tangri jamoli
quyi tarmog‘i	paxsa va yirik xom g‘ishtlar
qo‘rgonlar tevarak atrofi	baland tayanch minoralar
ko‘lmaklar va botqoqliklar	tuynuk-shinaklar
erta saxar	nazoratchilik qilmoq
ko‘shk va saroylar	chaqa tangalar

2. Matnni o‘qing va o‘rganing.

BUXORO QADIMIY SHAHAR

Buxoro - jahonning eng ko'hna shaharlaridan. Bu shahar bundan 25 asr muqaddam Zarafshon vodiysining quyi qismida qad ko'targan. Dastavval u daryoning Zerirud nomli quyi tarmog'ining ikki sohilida bir-biriga qarama-qarshi joylashgan 3 ta qo'rgon shaklida paydo bo'lgan. Qo'rgonlarning biri Foxira, ikkinchisi Navmichkat, uchinchisi Farovis nomlari bilan yuritilgan. Qo'rgonlar tevarak atrofi suvga to'la ko'l- ko'lmaklar va botqoqliklar hamda anvoyi chechaklar bilan qoplangan bepoyon dala-yu dashtdan iborat nihoyatda xushmanzara bo'lgan. Butun vodiylar bo'ylab atrofnı qoplab yotgan asriy qalin daraxtzor, chakalakzor va to'qaylarda son-sanoqsiz turli-tuman, yovvoyi hayvonlar hamda ajoyib-g'aroyib qushlar uya qurgan. Shuning uchun bu o'lkani va unda qad ko'targan dastlabki shaharnı aholi qadimda "Bug'-oro", ya'ni "Tangri bezagi", "Tangri jilosi" yoki "Tangri jamoli" ma'nolarini anglatuvchi yagona nom bilan yuritgan.

Bu qadim uchqo'rgonning atrofi o'sha zamonlarida alohida -alohida mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Devorlar baland va qalin bo'lgan. Ular paxsa va yirik xom g'ishtlar bilan o'rab chiqilgan. Ularning u yer-bu yerida baland tayanch minoralar bino qilingan. Qamal vaqtlarida dushmanga o'q uzish maqsadida devor va minoralar bo'ylab bir necha qator nishon tuynuk-shinaklar ishlangan. Shaharning bir necha darvozasi bo'lib, har bir qismiga markaziy ko'cha orqali darvozalardan kirilgan. Darvozaxonalar maxsus soqchilar -darvozabonlar nazoratchilik qilib turgan. Kech tushishi bilan darvozalar berkitilib, erta saxarda ochilgan. Qamal vaqtlarda ular kecha-yu kunduz tanbalanib turgan.

Shaharning maxsus devor bilan o'ralgan eng baland qismida bino qilingan iztehkamli qo'rgonı Ark deb ataladi. Unda podshoh va amirlar yashagan. Arkda podshohning ko'shki va saroylaridan tashqari devonxona, xazina, chaqa tangalar chiqariladigan zarbxona, qamoqxona navkarlar uchun bostirmalar bo'lgan. Shaharning qolgan asosiy ikki qismida shahar a'yonlari, hunarmandlar,

savdogarlar yashagan. Ularning korxana va do'konlari, shuningdek, ibodatxona va bozor joylashgan.

Qadimdan Buxoro Buyuk ipak yo'li ustida joylashgan bo'lib bu yo'l orqali Buxorolik savdogarlar Xitoy, Hindiston, Eron va Vizantiyaga tuyalar karvoni bilan turli xil savdo mollarini olib borganlar.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matnni o'qing.
2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.
3. Matn bo'yicha savollar tuzib, ular asosida matn mazmunini so'zlab bering.
4. Quyidagi savollarga javob bering:
 - a) Siz O'zbekistonning boshqa qaysi qadimgi shaharlarini bilasiz?
 - b) O'zbekistonning qaysi qadimgi shaharlariga borgansiz?
 - d) O'zbekiston shaharlari bilan Ovro'po shaharlari o'rtasida qanday umumiy va farqli jihatlar bor?
 - e) O'zbekiston shaharlarining o'ziga xosligini asrash uchun, sizningcha, nima ishlar qilinishi zarur?

4. Quyidaki amaliy topshiriqlarni bajaring.

1-mashq. Nuqtalar o'rniga zarur so'zlarni qo'yib ko'chiring.

1. Men bu gapni ... eshitganman. 2. Kecha Zilola do'kondan ... sotib olibdi. 3. Hamma uning yana ... deyishini kutib turar edi. 4. U ko'chaning narigi betida ... ko'rdi. 5. ... eshikni taqillatayapti. 6. Chiqing, sizni ... chaqirayapti. 7. ... kecha mana bu xatni tashlab ketibdi. 8. Bu maqolani ... yozib qo'yganman. 9. ... bu romanni o'qigan edim. 10. ... uning esidan chiqibdi.

2-mashq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va daftaringizga yozing.

1. Он эту песню от кого-то уже слышал. 2. Все ждали, что кто-то сейчас зайдет во внутрь. 3. Салим перешел на ту сторону улицы, куда-то зашел, кого-то позвал, с кем-то поговорил, что-то записал и ушел неизвестно куда. 4. Она в темноте что-то видела. 5. Никогда никакого разговора об этом и быть не может. 6. Зилола зашла в магазин кому-то передала деньги и что-то взяла.

5. Quyidaki matnni o'rganing.

Город в степи

Существует легенда, что во времена нашествия Чингисхана на месте города Карши был курган. Поэтому Чингисхан так и назвал окрестность — Карши, что в переводе означает «курган».

Еще в 60-е годы Карши был небольшим городком. Но постепенно он становился более крупным. Степь осваивалась, появлялись многоэтажные здания, промышленные предприятия, кинотеатры, стадионы, клубы и парки.

Наверное, в каждом городе есть самые святые и памятные места. В Карши это монумент героям, погибшим на войне. Есть памятник скорбящей матери и мечети в старом городе. У тех, кто посетит этот город Узбекистана, останутся самые лучшие впечатления о нем.

6. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

LEKSIK QATLAMLAR

Tildagi barcha so'zlar uning lug'at boyligini tashkil etadi. Tilning lug'at boyligi ikki manba - ichki va tashqi manba orqali ortib boradi. Tilning ichki imkoniyatlari orqali so'z yasash (qo'shimcha qo'shish va so'zlarni qo'shish orqali); shevalardan so'z olish ichki manba, boshqa tildan so'z olish tashqi manba hisoblanadi.

Boshqa tillardan so'z olish natijasida o'z qatlam va o'zlashgan qatlam farqlanadi. O'zbekcha, turkiycha so'zlar o'z qatlam nomi bilan, boshqa tildan olingan so'zlar o'zlashgan qatlam atamasi bilan yuritiladi.

O'z qatlam. O'z qatlamga o'zbek tiliga oid bo'lgan, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar kiradi. O'zbek tili lug'at tarkibida turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar anchagina: tosh, tog', yer, bosh, suv, til, qo'l, kishi, bola; oq, qora, qizil, ko'k, sariq, yashil, yaxshi, yomon; bir, ikki, uch, besh, olti, etti, yuz, ming: men, sen, u, biz, siz, bu, shu; kel, ol, bor, tur, qara; ildam, erta, indin, ilgari.

O'zbek tilining bevosita o'ziniki bo'lgan so'zlar tilning ichki imkoniyatlari asosida hosil bo'lgan so'zlardan iborat. Bunda uch holat kuzatiladi:

- 1) asli o'zbekcha so'zlardan shu tildagi affiks (qo'shimcha)lar yordamida yasalgan so'zlar: *qatnashchi, terimchi, og'machi, birlashma*;
- 2) boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga o'zbekcha qo'shimcha qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan so'zlar o'zbekcha hisoblanadi;
 - a) arabcha so'zlardan: *rahbarlik, mehrli*;
 - b) tojikcha so'zlardan: *mardlik, go'shtli*;
 - v) ruscha so'zlardan: *limonli, sportchi*;
- 3) boshqa tildan o'zlashgan so'zga o'zlashgan qo'shimchani qo'shish natijasida hosil bo'lgan so'z o'zbekcha hisoblanadi: *kitobxon, doimiy, adabiyotshunos*.

Demak, yasama so'zlar asosan o'zbekcha (o'z qatlam so'zlari) hisoblanadi. O'z qatlam so'zlari (o'zbekcha so'zlar) quyidagi xususiyatlarga ega.

- 1) v, z, l, g, tovushlari bilan boshlanadigan so'zlar o'zbekcha emas: lab.
- 2) f, h, ' ishtirok etgan so'zlar o'zbekcha hisoblanmaydi: bahor, fikr, a'lo.
- 3) o'zbekcha so'zlarda unlilar yonma-yon kelmaydi: soat, matbuot.
- 4) o'zbekcha so'zlar omonim xarakterda bo'ladi: soch-soch, tut-tut.
- 5) o'zbekcha so'zlarda tarixiy tovush o'zgarishlari sezilib turadi: yag'och-og'och, jil-yil: jilon-yilon-ilon.
- 6) o'zbekcha (turkiy) so'zlarda bir bo'g'in tarkibida undoshlar yonma-yon kelmaydi; g'isht, go'sht, daraxt.

O'zlashgan qatlam. Arabcha, forscha-tojikcha, xitoycha, mo'g'ulcha, grekcha, ruscha so'zlar o'zlashgan qatlamni tashkil etadi.

O'zbek tilidagi o'zlashgan qatlamning asosini arab, fors-tojik, rus tillaridan o'tgan so'zlar tashkil etadi.

Arabcha so'zlar: kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, san'at, tanqid, madaniyat, kashf, a'lo, odob, xat, savod, amal, oila, inson, husn, nutq, soat, avlod, savol, sinf, millat, hikoya, maqol, hayot, shamol, qadr, dohiy, mag'rur, xafa.

Arabcha soʻzlar diniy atamalar va turli soha nomlaridir. Oʻzbek xalqi vakillariga qoʻyiladigan ismlarning koʻpi arabcha. Arabcha soʻzlar quyidagi xususiyatlarga ega.

1. (v) f,h,' harflari ishtirok etgan soʻzlar, asosan, arabcha: *ma'no, ta'limot, na'ra, sinf*.
2. Arabcha soʻzlar siniq koʻpligiga ega, ya'ni koʻplik soʻz tarkibini oʻzgartirish bilan hosil qilinadi: *hol-ahvol, xabar-axbor, ruh-arvoh, xulq-axloq, she'r-ash'or*.
3. Arabcha soʻzlarda oʻzakdosh soʻz tarkibidagi undoshlar yordamida hosil qilinadi: *hukm – hokim – hakam – mahkama – hokimiyat – mahkuma; fikr – tafakkur – mutafakkir; kitob – maktab – kutubxona – maktub; sinf – tasnif; hurmat – ehtirom – marhamat – muhtaram*.

Forscha-tojikcha soʻzlar. Forscha-tojikcha soʻzlar quyidagi xususiyatlarga ega. a) tojikcha soʻzlar oʻzbek tili lugʻati tarkibida qadimdan mavjud boʻlib kelgan. b) ch, l, g, z undoshlari bilan boshlanadigan soʻzlar asosan tojikcha hisoblanadi: lola, gul, chaman. v) -xoʻr, -noma, -doʻz, -xon, -namo, -shunos, -boz, -bon, -dor, no-, ser- qoʻshimchalari forscha-tojikchadir.

Tojikcha soʻzlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, gul, xona, mirob, dasta, bemor, gʻisht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, serob, shirin, mard, mehribon, jonajon, kamtar, kam, chala, balki, agar, ham, goʻsht, non, sozanda, sabzavot, reja, dard, ombur, tesha, bobo, dugona, doʻst, xonadon, peshona, kaft v.b.

7. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Quyidagi soʻz, atama va soʻz birikmalarining qaysi uslubga xosligini aniqlang. Rasmiy-idoraviy uslubga xos boʻlganlari ishtirokida gaplar tuzing.

Xalq sayli, boʻlinmas fond, kirim, zarurat tufayli, taftish, soʻzga chiqdi, infrastruktura, mehnat bitimi, koʻchmas mulk, topshirigʻingizga binoan, tebranish, hosila, sugʻurta, zimmasiga yuklatilsin, elektromagnit maydoni, modellashtirish.

2-topshiriq. Tagiga chizilgan qoʻshimchalarning turini aniqlang va gaplarni koʻchiring, ulardagi gʻoya haqida suhbatlashing.

Ilm-hunardan bahramand bo'lgan kishi barkamol insondir. O'qimishli, bilimdon, madaniyatli odam bilan johil, nodon, savodsiz o'rtasida yer bilan osmoncha farq bor. Bu yorug' dunyoning go'zalligi, boyligi, betakror saxovati ilm-hunar peshvolarining borligi, adabiyot va san'atga rag'bat tufaylidir. Olim bolsang, olam seniki. — deydi xalqimiz. (G'. Salomov)

3-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. *Yemoq* so'zi o'mida qanday so'zlarni qo'llash mumkin? Ular o'rtasida qanday ma'no farqi borligini ayting.

2. *Yosh* so'zi qanday ma'nolarni bildiradi? Har bir ma'nosini gap ichida keltirib asoslang.

4-topshiriq. Tarixiy asar yoki filmlardan biri haqidagi taassurotlaringizni yozma shaklda bayon qiling. Unda tarixiy shaxslardan birini tasvirlang.

BESHINCHI DARS

MAVZU: ULUG' AJDODLARIMIZ

Atamalar va ularning vujudga kelishi

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi atama va iboralarining ma'nosini izohlash. Matnni kengaytirib so'zlab berish. Matnni qismlarga bo'lib, har bir qismni nomlash.

Yozma nutq: Mashhur allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlash. Buyuk allomalarimizning asarlari ro'yxatini tuzish.

Grammatika: Atamalar va ularning vujudga kelishi.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

ezgu maqsad	hisob-kitob amallari
tafakkur	chop etmoq
qadimiy obidalar	ishonch hosil qilmoq
bobokalonimiz	dunyo fani va madaniyati
buyuk mutafakkirlar	ilmiy salohiyat

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Ezgu maqsad va tafakkur bilan yashagan xalqimiz jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Sharq-u G'arbni o'zaro bog'lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm-fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o'rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning matematika, fizika, kimyo, astronomiya, etnografiya, tibbiyot, tarix, adabiyot, axloq, falsafa kabi ko'plab sohalarga oid asarlari, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma'naviy mulki hisoblanadi.

O'sha davrdagi eng buyuk mutafakkir olimlardan biri Muhammad Muso Xorazmiydir. Bugun butun dunyo foydalanadigan hisob-kitob amallari, zamonaviy texnologiyalar faoliyati ana shu bobokalonimiz yaratgan qoidalarga asoslanadi. Butun dunyo Xorazmiyning ilm-fan rivoji yo'lidagi hissasini yuksak qadrlaydi, uni voyaga yetkazgan zaminga alohida ehtirom bilan qaraydi.

Ahmad Farg'oniyni "Astronomiya asoslari" nomli asari o'n ikkinchi asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSh kabi ko'plab mamlakatlarda qayta-qayta chop etilgani uning naqadar ulkan ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Allomaning Yer sharsimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o'tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb "Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oniylarning hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim", deya dastxat qoldirgan. O'n oltinchi asrda Oydagi kraterlardan biriga bobokalonimiz nomi berilgan.

YUNESKO qaroriga muvofiq 1998-yilda Ahmad Farg'oniylarning tavalludining 1200-yilligi xalqaro miqyosda nishonlandi. Bu buyuk ajdodimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasi, xalqimiz ilmiy salohiyatining yana bir e'tirofi bo'ldi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farg'ona shaharlarida mutafakkir haykallari bunyod etildi, Farg'ona davlat universitetiga Ahmad Farg'oniylarning nomi berildi.

O'rta asrlarda Sharq ilm-fani rivojida Xorazm Ma'mun akademiyasi alohida o'rin tutgan. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo'lgan bu dargohda yuzdan ortiq allomalar, iste'dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy va Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi beqiyosdir.

Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Doimo yashil bo'lib turuvchi tropik o'simlik "Avitsenniya" deb atalgan. Ko'plab mamlakatlarda ko'chalar, o'quv va tibbiyot muassasalariga uning nomi qo'yilgan, alloma sharafiga medal va mukofotlar ta'sis etilgan.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, uni nomlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing.
3. Matnning asosiy mazmuni so'zlab bering.
4. Matnning asosiy g'oyasini izohlang.

4. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Atamalar va ularning vujudga kelishi

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar – atamalar sifatida qaraladi.

Demak, "atama" so'zini "termin" tushunchasi ma'nosida qo'llaganimizda, uni umuman narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va ma'lum bir fan sohasiga tegishli bo'lgan birliklarni anglashimiz lozim.

Shu ma'noda kasb-hunarga oid so'zlar atamalardan farqlanadi. O'zbek tilshunosligida atamalarni o'rganishga doir ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Ko'plab ilmiy kitoblar, risolalar, lug'atlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar

yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lug'atlarning nashr etilishi fanimizning katta yutug'i hisoblanadi.

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. To'nyuquq, Kultegin, Bilga hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg'ul bo'lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz.

Atamalarning dastlab ikki katta guruhga ajratish to'g'ri bo'ladi:

1. Umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.
2. Xususiylilik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

Umumiy atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo'nalishlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Masalan, sportdagi *musobaqa, sovrin, sovrindor, yutuq, g'alaba, birinchilik, chempionat, ko'rik, trener, hakam* atamalarini sportning barcha turlarida bimalol qo'llash mumkin. Fizikaga oid *issiqlik, temperatura, jism, elektr, magnit, gaz, harakat, energiya, maydon* singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.

Xususiylilik atamalar esa faqatgina bitta mavzuviy guruh doirasida amal qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan fizikaga oid atamalar uning barcha sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgani holda, *gravitatsiya, diod, termoster, kondensatsiya, kapillyar* hodisalar singari atamalar yoki kimyoga oid *gidroksid, oksid, sulfat kislotalari, xlorid kislotalari* kabi atamalar tor ixtisos doirasida qo'llaniladi. Bunday holatni fanlarning barcha yo'nalishlari va sohalarida kuzatish mumkin.

5. Quyidagi amaliy topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Matnni o'qing, berilgan atamalarni ajratib yozing.

IBN SINO JISMONIY VA AQLIY TARBIYA HAQIDA

Ibn Sino «Tib ilmlari qonuni» asarida bola katta bo'lib, yetilgan chog'ida jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish zarurligini aytadi. Uning o'qtirishicha, odamning yig'itlik, yetuklik yoshida hamda ulg'aygan yoshida sog'lik-salomatligini saqlash uchun zarur bo'lgan jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanishi kerak. Ulug' mutaffakir jismoniy tarbiya deb inson salomatligi uchun zarur bo'lgan badanni turli xil mashg'ulot harakatlariga o'rgatishni nazarda tutadi. Uning

fikricha, jismoniy mashg'ulotlar bilan o'z vaqtida va mustaqil shug'ullanib boruvchi odam hech qanday davolanishiga muhtoj bo'lmaydi.

Ibn Sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixologik asoslarni aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilim, hunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma'naviy harakatlaridandir. Chunki ilm odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

2-topshiriq.

1. Mashhur allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlang.
2. Buyuk allomalarimizning asarlari ro'yxatini tuzing.

OLTINCHI DARS

MAVZU: VATAN VA VATANPARVARLIK

Ijtimoiy-siyosiy leksika

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni birinchi shaxs nomidan so'zlab berish. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Tarixda o'z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzish. "Vatanparvarlik nima?" mavzusida esse yozish. Davriy nashrlardagi maqolalar asosida fidoyiligi bilan tanilgan zamondoshlarimiz haqida ma'lumot tayyorlash.

Grammatika: Ijtimoiy-siyosiy leksika haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarni o'rganing.

muqaddas zamin	yashagan makon
mehr-muhabbat	erkin hayotimiz
ona allasi	bunyod etmoq

ota-momolarimiz avlod-ajdodlarimiz	vatanparvarlik namunalari
---------------------------------------	---------------------------

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Vatan – inson tug'ilgan muqaddas zamin, uning qalbida abadiy qoladi va hech qachon unitilmaydi. Vatan tushunchasi va unga bo'lgan muhabbat ona suti, ona bag'ri, ona mehr-muhabbati, ona allasi bilan yuragiga jo bo'ladi.

Vatan deganda ota-bobolarimiz, avlod-ajdodlarimiz o'tgan, kindik qoni to'kilgan joyni tushunamiz. Avlod-ajdodlarini bilgan va qadrlagan inson uchun ular yashagan makon qadrdon Vatandir.

Vatanni qalban, chuqur his qilish uchun xalqning vatanparvarlik namunalarini bilish, uni e'zozlash, qadriga yetish, mustahkamlash kerak. Mana shu tuyg'ular, mana shu go'zal insoniy fazilatlar bugungi erkin hayotimiz uchun haqiqiy vatanparvarlik namunasidir.

Muhammad Bobur Hindistonda buyuk va qudratli saltanat bunyod etdi. U hayotning barcha noz-ne'matlaridan, lazzatlaridan istagancha bahramand bo'lish imkoniga ega edi. Biroq Bobur bekam-u ko'st hayot bilan o'zini baxtli inson deb hisoblaganmi? Yyo'q, albatta. Unga hamisha bir narsa yetishmagan, uni hamisha bir tuyg'u qiynagan, qalbini o'rtagan. Bu Vatan sog'inchi va tuyg'usi edi.

Tole' yo'qki jonimga balolig' bo'ldi,

Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.

O'z yerni qo'yib, hind sari yuzlandim

Yo rab netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Buyuk vatandoshimiz, vatanparvar inson Abdurauf Fitrat asarining boshida o'z yurtining qayg'usi, taqdiri haqida quyidagi so'zlarni bitgan:

“Ey ulug' Turon... sen mening Vatanimsan... Yurtim, Turonim, sendan ayrilmoq - mening o'limim. Sening uchun o'lmoq – mening tirikligimdur. Panohim, sajdagohim, umudim! Yotlaring seni shu kunga soldilar... Zolimlar seni kimsasizmi ko'rdilar! Yo'q, sen kimsasiz emassan. Mana, men chin ko'nglim bilan sening yo'lingda o'lurg'a rozi... Men sening uchun yasharman, sening

uchun o'lrman. Ey tiriklikning muqaddas o'chog'i! O'lim - sening o'limingni istaganlarga, nafrat - sani ko'mgani kelganlarga!''.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, uni nomlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing.
3. Matnning asosiy mazmuni nimadan iboratligini tushuntirib bering.
4. Matnning asosiy g'oyasini izohlang.

4. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Ijtimoiy-siyosiy leksika

Ijtimoiy-siyosiy leksika atamalardan farqli o'laroq, kengroq qo'llanish sohalariga va umumiy xususiyatlariga ega. Kelib chiqishiga ko'ra internatsional leksikaga mansubligi ularni atamalarga yaqinlashtiradi. Bu o'ziga xoslik ba'zan oddiy til egalaridan tashqari tilshunos olimlarni ham chalg'itib qo'yadi.

Shubhasiz, ijtimoiy-siyosiy lug'at iqtisodiyot, siyosatshunoslik, falsafa, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, tarix va boshqa ijtimoiy va gumanitar fanlarga xizmat qiladi va ularni shartli ravishda ushbu sohalarning atamaları sifatida qarashga imkon beradi. Shuningdek, ijtimoiy-siyosiy leksika ma'lum bir davrda neologizmlar (masalan, Sovet hokimiyati yillarida "kollektivlashtirish", "elektrlashtirish", "sanoatlashtirish", "qayta qurish", "jadallashtirish" va boshqalar) paydo bo'lishi natijasida keng tarqalishi, keyinchalik u til sahnasidan chiqib ketishi bilan tarixiy so'zlarga aylanishi mumkin. Qo'llanish sohasi va ko'lami jihatidan, ijtimoiy-siyosiy leksika ma'lum bir tashuvchilarni guruhining tili hisoblanadi. Bu jamiyat barcha a'zolarining umumiy mulki bo'lib, undan har kim o'zlarining til qobiliyatlari va ehtiyojlariga yarasha foydalanadilar. Ushbu leksikaning umummilliy tilidagi mavqeini mustahkamlashda ta'lim va fan sohalari qatori ommaviy axborot vositalari ham o'z hissasini qo'shmoqda. So'zlar yangi tushunchalar, hodisalar belgisi sifatida matbuot, davriy nashrlar orqali kirib boradi. Ijtimoiy-siyosiy leksika orqali davlat siyosati va mamlakatning iqtisodiy yo'nalishi belgilanadi. Shu sababli, siyosatshunoslar buni (leksikani) davlatning siyosiy va iqtisodiy qiyofasini tavsiflovchi so'zlar deb bilishadi. Tilshunoslar bu

so'zlarni jurnalistik uslubning vositasi, shuningdek, tilshunoslikning ob'ekti deb bilishadi.

5. Quyidagi amaliy topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Vatan va vatanfarvarlik haqidagi ibratli fikrlarni o'rganing va mazmunini tushuntirib bering.

Cho'lda o'rmalab yurgan jonivorlar ham tug'ilshidanoq o'z makonlarini biladilar, havoda uchuvchi qushlar ham, dengiz va daryolardagi baliqlar ham o'z oshyonlarini his qiladilar, hatto bolari va shunga o'xshashlar ham o'z uyalarini muhofaza qiladilar,— shuning kabi odamlar ham qaerda tug'ilib parvarish topsalar,— o'sha joyga cheksiz mehr qo'ygan bo'ladilar.

F. Skorina

Vatanparvarlik — yolgiz o'z vataniga mehr qo'yishdan iboratgina emas. Bu juda katta his... Bu — vatan bilan o'zini bir butun deb bilish, uning yaxshi-yomon kunlarida asqatish demakdir.

A. N. Tolstoy

Saxovatning eng buyuk jasurliklari vatanga muhabbat tufayli yuzaga kelgan.

J.J. Russo

Vatanparvarlikning tarbiyaviy ahamiyati juda katta, bu kishini bashariyat haqidagi g'oyalar bilan ulg'aytiradigan maktabdir.

M. Ye. Saltikov-Shchedrin

Vatanparvarlik tantanavor xitoblar va umumiy gaplardan iborat emas, balki u vatanga qizg'in muhabbat hissi bilan ortiqcha dabdabalarsiz o'z fikrini bildirish, faqat ezgulikda hayratlanmay, balki muqarrar har qaerda, har qanday vatanda ham bo'ladigan yovuzlikni jinidan battar yomon ko'rish demakdir.

V. G. Belinskiy

2-topshiriq. Gaplarni ko'chiring, ularda qo'llanilayotgan atamalar va ularning izohlariga e'tibor bering.

Arxeologiya (qadimshunoslik) - qadimgi odamlar yashagan joylarda qazish ishlari olib borish natijasida yashash manzilgohlari va topilgan buyumlarni o'rganadigan fan.

Etnografiya - xalqlarning kelib chiqishi, urf-odatlar, bayramlari va shu kabilarni o'rganuvchi fan.

Antropologiya - odamning qiyofasini suyak qoldiqlariga qarab o'rganuvchi fan.

3-topshiriq. Quyidagi siyosiy terminlarning izohiga oid matn tuzing.

Shanghai hamkorlik tashkiloti, Markaziy Osiyo Hamkorligi Tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, NATO, Xalqaro valyuta fondi Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki.

4-topshiriq. "Vatanparvarlik nima?" mavzusida esse yozing. Bunda davriy nashrlardagi maqolalar asosida tarixda o'z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar, fidoyiligi bilan tanilgan zamondoshlarimiz haqidagi ma'lumotlardan foydalaning.

YETTINCHI DARS

MAVZU: MUZIYLAR – O'TMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KO'PRIK

Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirgan holda so'zlash.

Yozma nutq: O'zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlash. Jahonning mashhur muzeylari haqida qiziqarli ma'lumotlar tayyorlash. Soha muzeyi haqida matn tuzish.

Grammatika: Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarni o'rganing.

O'zbekiston davlat san'at muzeyi	O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi
O'zbekiston tarixi davlat muzeyi	O'zbek liboslari galereyasi

Temuriylar tarixi davlat muzeyi	muzeylar faoliyati
O'zbekiston amaliy san'at muzeyi	musodara qilingan
Qurolli kuchlari markaziy muzeyi	

2. Matnni o'qing va o'rganing.

1917-yilgacha Toshkentdagi birinchi va yagona muzey Toshkent muzeyi bo'lgan. 1917-yildan keyin turli ixtisosdagi keng ekspozitsiyalarga ega bo'lgan muzeylar tashkil etila boshlagan. 1918-yil knyaz N.Romanov saroyida uning musodara qilingan kolleksiyasi asosida Badiiy muzey (hozirgi O'zbekiston davlat san'at muzeyi), 1921-yil Eski shahar muzeyi, 1926-yil O'zbek Eski shahar muzeyi tashkil qilingan. Madaniy taraqqiyot yangi muzeylar tashkil qilish va mavjud muzeylarni qayta jihozlash zarurligini taqozo etgan. O'rta Osiyo muzeyining geologiya, zoologiya, botanika va antropologiya bo'limlari, qishloq xo'jaligi muzeyi va hayvonot bog'i Tabiat muzeyiga aylantirildi. Respublika ko'rgazmalari negizida Politehnika muzeyi (1933), Amaliy san'at muzeyi (1937; 1937–91 yillarda Amaliy san'at asarlari doimiy ko'rgazmasi) tashkil qilindi; Adabiyot muzeyi tuzildi.

1940-yilda Toshkent muzeylarida 500 mingga yaqin eksponat bo'lgan, muzeylarga kiruvchilar soni 300 mingga yaqin kishini tashkil etgan. 2-jahon urushi yillarida Markaziy tarix muzeyi, O'zbekiston san'at muzeyi va Adabiyot muzeyi – Tarix, madaniyat va san'at muzeyiga, Politehnika muzeyi Tabiat muzeyiga birlashtirildi. 40-yillar o'rtalaridan Muzey qurilishida yangi bosqich boshlandi. 1945 yil rus yosh tomoshabinlar teatri eski binosida joylashgan Davlat san'at muzeyi mustaqil muzeyga aylandi. 1972 yil O'zbekiston kino san'ati muzeyi, 1973 yil O'zbekiston Sog'liqni Saqlash muzeyi, 1975 yil Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari tarixi muzeyi tashkil etildi. 1988 yil Antiqa va zargarlik buyumlari muzeyi ochildi. 60–80-yillarda H.Abdullayev, M.Ashrafiy, S.Borodin, Oybek, G'afur Fulom, O'.Tansiqboyev, Abdulla Qahhor uy-muzeylari va Yu.Fuchik, S.Yesenin muzeylari, Tamaraxonim liboslari doimiy ko'rgazmasi va boshqalarga asos solindi.

Toshkentda 29 ta muzey bo'lib, ularda 113127 eksponat saqlanadi. Har yili muzeylarga o'rtacha 1,5 mln. ga yaqin kishi kiradi (2008). Toshkentdagi yirik davlat muzeylari: O'zbekiston davlat san'at muzeyi, O'zbekiston tarixi davlat muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston amaliy san'at muzeyi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari markaziy muzeyi, O'zbekiston tasviriy san'at galereyasi, O'zbek liboslari galereyasi va boshqalar. Muzeylar ilmiy asarlar, qo'llanmalar va kataloglar nashr etadi. O'zbekiston xalq xo'jaligi yutuqlari ko'rgazmasi, planetariy muzey tipidagi muassasalar tipiga kiradi. Toshkent korxonalari, muassasalari va o'quv yurtlarida tashkil qilingan Muzeylar davlat muzey tarmoqlarini to'ldiradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2008-yil 12-sentyabrda «Muzeylar to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Qonunda «Milliy muzey fondi», «Milliy muzey fondining davlat katalogi», «Muzey», «Muzey ashyosi», «Muzey kolleksiyasi», «Saqlash», «E'lon qilish» kabi tushunchalarga batafsil izoh berilgan. Ushbu hujjat Muzeylar faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish, ularni muzey ashyolari bilan boyitishga zamin yaratdi.

«Toshkent» ensiklopediyasi. 2009- yil.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, uni so'zlashga tayyorlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing.
3. Matnning asosiy mazmuni nimadan iboratligini tushuntirib bering.
4. Matnning asosiy g'oyasini izohlang.

4. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar terminlar – atamalar sifatida qoraladi.

“Hozirgacha termin tushunchasi tilshunoslikda turlicha talqin qilinmoqda – deb qayd etishadi. “O'zbek tili leksikologiyasi” asarining mualliflari. – Ba'zi

tilshunoslar terminga ilm va texnikaga oid soʻz va iboralarnigina emas, barcha uy-roʻzgʻor asboblari nomlarini, ishlab chiqarishning hozirgi darajasidagi qurollarnigina emas, balki oʻtmishdagi ibtidoiy qurollarning barcha nomlarini, shuningdek, kustarchilik kasb-hunarga oid soʻzlarni ham kiritadilar.

Agar masala shu taxlitda qoʻyiladigan boʻlsa, har bir konkret predmet nomini termin deb atash lozim boʻlar edi. Gap terminning aniq bir maʼnoni ifodalashida emas, bu jihatdan qaraladigan boʻlsa, kasb-hunar leksikasining ilmiy-texnikaviy terminlardan deyarli farqi yoʻq, termin har qanday tushunchaning aniq atamasi sifatidagina emas, balki ilmiy tushunchani ifodalovchi vosita sifatida asosan yozma shaklda maydonga keladi”.

Demak, “atama” soʻzini “termin” tushunchasi maʼnosida qoʻllaganimizda, uni umuman narsa-predmetlar, voqea-hodisalarning nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va maʼlum bir fan sohasiga tegishli boʻlgan birliklarni anglashimiz lozim.

Oʻzbek tilshunosligida atamalarni oʻrganishga doir koʻpgina ishlar amalgam oshirilgan. Koʻplab ilmiy kitoblar, risolalar, lugʻatlar, ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu borada 200 dan ortiq lugʻatlarning nashr etilishi fanimizning katta yutugʻi hisoblanadi. Oʻzbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, “Lotin yozuvi asosidagi oʻzbek alifbosiga oʻtish toʻgʻrisida”gi Qonunning qabul qilinishi, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar qoʻmitasi olib borayotgan yirik hajmdagi ishlar atamashunoslik sohasining yanada yuqori bosqichga koʻtarilishiga sabab boʻldi.

5. Quyidagi amaliy topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Quyidagi atamalarni oʻrganing va ularning qoʻllanish xususiyatlarini tushuntiring.

Arabcha: *amaliyot, asar, asos, izoh, ilm, inʼikos, ilova, isloh, istiloh, islohot, maqola, misol, masala, maxraj, manfiy, musbat, mavzu, mazmun, mantiq, maʼnaviy, maʼrifiy, muqaddima, mushohada, tajriba, taqriz, tahlil, uslub, fan, falsafa* va hokazo.

Forscha-tojikcha: *bastakor, duradgor, zabtkor, navosoz, navoxon, shogird, peshqadam, sovrin, sozanda, ustoz, chavandoz, yakkaxon, havaskor, hamshira* kabi.

Ruscha-baynalmilal: *abzats, agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, gazeta, kodeks, lingvistika, matematika, nekrolog, plenum, realism, romantiam, sessiya, syezd, fizika, fonetika, fonologiya* va hokazolar. Ularning ma'lum qismlari:

Lotincha: *abbreviatsiya, abstrakt ot, agglyutinatsiya, adverbializatsiya, adyektivatsiya, aktualizatsiya, aksentologiya, alliteratsiya, areal, artikulyatsiya, assimilyatsiya, affiks, affiksoid, affrikata* kabi.

Yunoncha: *allegoriya, allomorph, allofon, alfavit, amorf tillar, analitik tillar, analogiya, anomaliya, antiteza, antonym, antroponim, apokopa, arxaizm, aforizm* singari.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Atama nima ekanligini tushuntiring.
2. Atamalar qanday turlarga bo'linishini misollar yordamida izohlang.
3. Atamalar qanday hosil bo'lishini izohlang.
4. O'z sohangizga oid atamalarni yozing.

3-topshiriq.

1. O'zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlang.
2. Jahonning mashhur muzeylari haqida taqdimot tayyorlang.
3. O'z sohangiz muzeyi haqida matn tuzing.

SAKKIZINCHI DARS

MAVZU: KELAJAK – BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA

O'zbek tilida sinonimlar

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni mustaqil yondashgan holda so'zlash. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: "Iqtidorli yoshlar" mavzusida bog'lanishli matn tuzish. "Mening tengdoshlarim" mavzusida dialog tuzish va uni insseniroyka qilish. Yoshlar hayotidan qiziqarli hodisa na voqealar to'g'risida hikoya tuzish.

Grammatika: O'zbek tilida sinonimlar va ularning qo'llanish xususiyatlarini o'rganish.

1. Quyidagi so'z va birikmalarni o'rganing.

bunyodkorlik ishlari	yopiq aksionerlik jamiyati
nufuzli universitetlari	o'rnatilgan tartibda
Ittifoqchilik munosabatlari	birinchi o'n kunligida
tashkil etish	oliy o'quv dargohiga
oliy darajaga ko'tardi	ilk talabalari
tarixiy uchrashuvda	ikki yo'nalishda
qad rostladi	tahsil olishni boshlaydi
qurilish ishlari	ko'paytirish-nashr etish

2. Matnni o'qing va o'rganing.

O'zbekistonda ta'lim sohasida izchillik bilan amalga oshirilayotgan islohotlarning mahsuli sifatida so'nggi yillarda dunyoning turli nufuzli universitetlari bilan hamkorlikda qator oliy ta'lim muassasalari tashkil etildi. Istiqlolimizning 15 - yillik bayrami arafasida ular safiga M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining filiali ham qo'shildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin 2005-yil 14-noyabr kuni Moskvada Ittifoqchilik munosabatlari to'grisidagi shartnomani imzoladilar. Strategik sheriklik to'grisidagi

shartnomaning mantiqiy davomi bo'lgan bu hujjat mamlakatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarni oliy darajaga ko'tardi.

Kremlda o'tgan ana shu tarixiy uchrashuvda Toshkentda M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti filialining ochilishi ma'lum qilingan edi. 2006 - yil 24- fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori qabul qilindi. MDU filialining binosi Toshkent markazidagi Movarounnahr ko'chasida qad rostladi. Qurilish ishlari "CzLITTI" yopiq aksionerlik jamiyati tomonidan bajarildi. 30-avgust kuni MDUning Toshkent filialiga tashrif buyurgan Prezident Islom Karimov bu muhtasham bino yon-atrofdagi inshootlar bilan yagona me'moriy ansambl hosil qilganini ta'kidladi.

Filial MDUning ajralmas qismi bo'lib, turli sohada malakali mutaxassislar, jumladan, ilmiy-pedagogik kadrlar yetishtirib beradi. Abituriyentlarni qabul qilish va bitiruv imtihonlari MDU tomonidan o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi. Iyulning birinchi o'n kunligida mazkur oliy o'quv dargohiga kirish imtihonlari bo'lib o'tdi. Mingga yaqin abituriyent sakson o'rin uchun o'zaro bellashdi. Yangi o'quv yilida uning ilk talabalari ikki yo'nalishda - amaliy matematika va informatika hamda psixologiya bo'yicha tahsil olishni boshlaydi. Bu yerda o'ttizdan ziyod auditoriya, ko'p-lab laboratoriyalar, korporativ tarmoqli kompyuter xonalari, axborot-resurs markazi, ko'paytirish-nashr etish bo'limi, sport majmui, xullas, barcha sharoit mavjud. Filial zarur o'quv qo'llanmalari, adabiyotlar bilan ta'minlangan.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, unga sarlavha qo'ying.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu savollar asosida savol-javob o'tkazing.
3. "O'zbekistonning kelajagi bizning qo'limizda" mavzuida do'stingiz bilan suhbat matni tayyorlang.
4. Matnda berilgan so'zlardan foydalanib, mavzu haqida so'zlab bering.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

O'zbek tilida sinonimlar

Sinonimlar (ma'nodosh so'zlar) – shakli har xil, ma'nosi bir – biriga yaqin bo'lgan so'zlar. Sinonimlar bir so'z turkumi doirasida yuzaga keladi barcha so'z turkumlarida sinonimlik mavjud. Sinonimik qatordagi asosiy so'z dominanta deyiladi. U uslubiy betaraf bo'ladi: masalan: yuz, chehra, jamol, bashara, turq. Yuz – dominanta, asosiy so'z, u uslubiy betaraf. Chehra, jamol – ijobiy bo'yoqdor so'zlar. Bashara, turq – salbiy bo'yoqdor so'zlar. Leksik (lug'aviy) sinonimlar – so'zlar sinonimligi. Lug'aviy sinonimlar o'z ichiga ikkiga bo'linadi: 1) to'iq sinonimlar – o'zlashgan so'zlar sinonimligi: tilshunoslik - lingvistika, doston - poema, amr - farmon - buyruq, bahor - ko'klam, kosmos - fazo... 2) ma'noviy sinonimlar – so'zlar bir - biridan nozik ma'nosi bilan farq qiladi: nam-ho'l-shalabbo, taqillatdi-dukillatdi-gursillatdi... Frazologik sinonimlar – iboralar sinonimligi: qo'lni yuvib qo'ltiqqa urish-hafsalasi pir bo'lish; kayfi uchib ketdi-yuragi yorilayozdi, og'zi qulog'ida-boshi osmonda-hursand... Grammatik sinonimlar – Grammatik vositalar sinonimligi: kelgani (-ga, -dan, uchun) hursand; yangiliklar (-ni, -dan, haqida) gapiring; mehmonlar (-ning, -dan) ulug'i; kel (-yapti, -ayotir, -moqda)... Sinonim so'zlar agar ko'p ma'noli bo'lsa bir necha sinonimik qatorda ishtirok etishi mumkin: o'rin - joy, o'rin - mansab; bitirda - tugatdi, bitirdi - yo'q qildi... Bir o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro sinonim bo'lishi mumkin; chopqir - chopag'on, baodob - odobli.. Tub so'z yasama so'z bilan sinonim bo'la oladi: his - sezgi; savol - so'roq...

5.Quyida berilgan topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. So'zlarning sinonimlarini topib yozing va ularning qo'llanishini misollar yordamida tushuntiring.

oldin, azob, ayyor, aytmoq, bajarmoq, bitirmoq, vatan, vaqt, dangasa, yemoq.

2-topshiriq. Quyida berilgan so'zlarning antonimlarini toping va ularni o'rganing.

ayyor -	qalin -
anqov –	soxta -
badbo'y –	tabiiy –
dag'al -	egri -

yomon -	xunuk -
yorug‘ –	g‘ayratli –
issiq-	eski -

3-topshiriq. Berilgan gaplardagi mantiqqa zid qo‘llangan so‘zlar o‘rniga mantiqan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1. Sattorov yolvorgan ohangda ko‘zlarimga umidvor qaradi. 2. Ikkalamiz ham tubsiz ko‘ngilsizlik oldidan picha tinchlanishimiz kerak edi. 3. Sattorov zarda bilan planshetni irg‘itib yubordi-da, mening so‘zlashim ga erk bermay, sakrab o‘rnidan turdi. 4. Men Ahmadni chaqirish oldidan stol ustiga uning Valitov bilan tushgan suratini ham, Zaremaning foto-suratlarini ham sohib qo‘ygan edim. 5. Mana, u oyoq uchida sekin yonimga yo‘rg‘alab keldi-da, meni odatdagiday so‘roqlarga ko‘mib yubordi. (M. Nasibullin) 6. U jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish uchun insonlarning ma‘naviyatini yuksaltiruvchi asarlar yaratdi. (A. Olimov)

TO‘QQIZINCHI DARS

MAVZU: ZAMONAVIY DUNYODA TA’LIM

Til va terminologiya

Darsning maqsad va vazifalari:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni reja asosida so‘zlab berish.

Yozma nutq: Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqida ma'lumot tayyorlash. Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozish. Turli ta'lim muassasalari haqida polilog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Til va terminologiya haqidagi bilimlarni boyitish.

1. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘rganing.

bilimlar hajmi	yosh avlod
fan va texnika	o‘quv jarayoni
ta’lim tizimi	isloh qilish

ma'naviy	ta'lim oluvchilar
ilmiy dunyoqarash	faollik darajasi
rivojlanish darajasi	reja va dastur

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Albatta, avloddan-avlodga o'tib borgan sari ijtimoiy tajriba hajmi, demak bilimlar hajmi ham ortib boradi. Fan va texnikaning rivoji ham ilmiy bilimlarning hajmiga va xarakteriga ta'sir ko'rsatadi. Bo'larning hammasi esa, o'z navbatida, ta'lim tizimida o'z aksini topadi. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish asosi bo'lib xizmat qiladi. Chunki aynan ta'lim tizimi jamiyatning har bir a'zosini ma'naviy, ilmiy dunyoqarashini shakllanishida eng asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun ham barcha tarixiy yuksalish, yangilanish bosqichlarida aynan ta'lim tizimini isloh qilish muhim o'rin tutgan. Ta'lim tizimi har bir jamiyatning rivojlanish darajasidan hamda shu jamiyatning talablaridan kelib chiqqan holda shakllanadi.

O'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim jarayonida: zarur bilimlar bilan qurollantiriladi; kerakli malakalarga ega bo'ladi; ko'nikmalar hosil qiladi.

O'quv jarayonida ta'lim oluvchilar va pedagoglar o'rtasida o'ziga xos munosabatlar o'rnatilib, bu jarayon ikki tomonning birgalikdagi faoliyati natijasida amalga oshadi. Shuning uchun ham ta'lim jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega deyiladi. Pedagoglar va talabalarning faollik darajasi ta'lim jarayonining samarasini belgilaydi. Albatta bu jarayonda pedagog yo'naltiruvchi sifatida maydonga chiqadi. Pedagog aniq maqsadni ko'zlab reja va dastur asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi. Talabalar esa ularni faol o'zlashtirib olishlari kerak.

Ta'limning asosiy vazifalaridan biri insoniyat hozirgacha erishgan ilmiy bilimlar va fan texnikaning yutuqlari bilan yosh avlodni qurollantirishdir. YOsh avlodda shunday bilimlar tizimini yaratish lozimki, bu bilimlar ularning keyingi rivoji uchun asos bo'lib xizmat qilsin. Hozirgi kunda bilimlar hajmi, axborotlar hajmi tobora oshib borayotgan bir davrda ta'lim tizimi talabalarga berishili kerak

bo'lgan bilimlar, malaka va ko'nikmalar hajmini belgilash hamda bu jarayonda qaysi omillarni hisobga olish kerak degan masalalarni echimini topish ustida bosh qotirmoqda. Zaruriy bilimlar hajmini belgilash va shu bilan bir qatorda o'qish muddatini aniqlash eng muhim masalalardan biri. Ta'lim jarayonida biror fan sohasidagi insoniyat tomonidan erishilgan hamma narsalarni o'rganish kerak deb o'ylash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. O'quv jarayonida eng asosiy, eng muhim bilimlar- fanlarning asoslari o'rganiladi. Ammo shunga qaramay hozirda o'rganish zarur bo'lgan yangi-yangi fanlarning tarmoqlari (ekologiya, EHM, oila psixologiyasi, iqtisod asoslari, ma'naviyat asoslari) vujudga kelmoqdaki ular ta'lim hajmini benihoya kengayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday muammolar hozirda deyarli barcha davlatlarda mavjud va har bir davlat bu muammolarni o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda hal etishga harakat qilmoqda. Biz bu muammolarni ta'lim tamoyillarini (prinsiplarini) bo'zmagan holda, yosh avlodning sog'ligiga ziyon etkazmagan holda echimini topishga harakat qilmoqdamiz.

Ta'limning asosiy maqsadi - zamonaviy ilmiy bilimlarni egallagan, mustaqil fikrlash va muammolarni echish imkoniyatiga ega bo'lgan ma'naviy jihatdan boy shaxslarni shakllantirishdir.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matndan yangi so'zlarni o'rganing.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing va savol-javobga tayyorlaning.
3. Matn mazmunini erkin so'zlab bering.

4. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Til va terminologiya

Terminologiya (termin va ... logiya) — 1) leksikanutg bir sohasi; muayyan fan, texnika, ishlab chiqarish. Tarmog'ining , san'at, ijtimoiy faoliyat sohasining tegishli tushunchalar tizimi bilan bog'liq terminlari majmui; 2) tilshunoslikning terminlarni o'rganuvchi sohasi. Terminologiya tor ma'noda ma'lum bir sohaga oid maxsus leksika. Masalan, fizika terminologiyasi, ijtimoiysiyosiy terminologiya, mashinasozlik terminologiyasi kabi. Terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida vujudga keladi, boyiydi. O'z navbatida u, umumxalq tilining boyishi

uchun xizmat qiladi. Terminologik leksika umumxalq tili leksikasining ajralmas qismi sifatida u bilan birga rivojlanadi, jamiyat va til taraqqiyotidagi barcha jarayonlarni boshdan kechiradi. Ma'lum bir soha yoki fan yuqori darajada taraqqiy etgandagina o'sha tilda maxsus terminologiya vujudga keladi.

Terminologiyaning rivojlanishi, boyish yo'llari har xil: boshqa tillardan so'z olish, yangi so'z yasash, ayrim grammatik kategoriyalarning leksikalashuvi, so'z birikmasining semantik bir butun holga kelib qolishi va boshqalar. Bugungi kunda o'zbek terminologiyasining boyishi, asosan, boshqa tillardan so'z olish va ichki so'z yasash hisobiga ro'y bermoqda. U yoki bu soha terminologik tizimining barkarorligini belgilovchi asosiy omil uning tartibga solinganligi va muntazamligidir.

Terminologiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko'p ma'nolilik tilning boyligi bo'lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Masalan, birgina tushunchani ifodalash uchun o'zbek tilida yarimo'tkazgich — chalao'tkazgich — nimo'tkazgich terminlari qo'llanmoqda. Bu, o'z navbatida, o'qish-o'qitish va axborot almashish jarayonini qiyinlashtiradi. Shu sababli ham terminologiyasi ma'lum darajada barqarorlashgan barcha tillarda terminlar doimiy tartibga solib turiladi. Tartibga solish ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Terminologiya rivojida fan sohalariga oid maxsus lug'atlarni nashr qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

5. Quyidagi amaliy topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Quyida berilgan birikmalardan kasbiy atamalarni toping va ularning qaysi kasbga oidligini tushuntiring.

Chaplama qilib suvamoq, jiyak qadamoq, jo'yakni katta olmoq, pushtani keng tashlash.

2-topshiriq. Kasb-hunarga oid atamalarni o'rganish asosida ular ishtirokida gaplar tuzing.

3-topshiriq.

1. Turli mamlakatlarning ta'lim tizimlari haqida ma'lumot tayyorlang.

2. Chet ellik talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlaringizni yozing.

3. “Zamonaviy ta’lim va yoshlar” mavzusida ijodiy matn tayyorlang.

O’NINCHI DARS

MAVZU: KITOB MUTOLASI

Erkin va turg’un birikmalar

Darsning maqsad va vazifalari:

Og’zaki nutq: Mavzuga oid matnni o’qib o’rganish orqali so’z boyligini oshirish. Matnni ijodiy so’zlash ko’nikmalarini shakllantirish. Kitobni tavsiya qilish usullari haqida fikr bildirish.

Yozma nutq: O’qilgan kitoblar to’g’risida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish. O’qilgan kitoblar ro’yxatini tuzish va ularga qisqacha tavsif berish.

Grammatika: Erkin va turg’un birikmalar va ularning qo’llanish xususiyatlari haqida bilimlarni chuqurlashtirish.

1. Quyidagi so’z va so’z birikmalarini o’rganing.

sevimli mashg’ulot	spektakl qo’ymoq
musiqqa	bosh rolni o’ynamoq
tasviriy san’at	maroqli bo’lmoq
havasi kelmoq	olqishlamoq
rol o’ynamoq	charchoq

2. Matnni o’qing va o’rganing.

Asabingizni tinchlantirish uchun sayr qilish yoki musiqa tinglashni afzal ko’rasizmi? Sasseks universiteti olimlari esa buning o’rniga kitob o’qishni tavsiya qilishadi. Kitob o’qish asabni tinchlantirishda eng samarali usul ekan. Atigi olti daqiqa kitob o’qish asabiylashishga barham beradi.

Xotirjam bo’lish va uxlashga yordam beradigan eng yaxshi usul ham kitob o’qishdir. Televizor yoki telefondan tarqalayotgan yorqin nur miyaga uyg’onish

kerakligi haqida signal yuboradi. Kitob o'qish esa aksincha ta'sir ko'rsatadi – miya uxlash vaqti bo'lganligini tushunadi.

Kitob o'qish jarayonida o'quvchi qahramonlar bilan birga yashaydi. Ularning quvonch va tashvishlariga sherik bo'ladi. Tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, badiiy asar o'qigan odam hayotda ham boshqalarning his-tuyg'ularini yaxshi tushunar ekan.

Shotlandiyalik olimlarning tadqiqotlariga qaraganda, kitob o'qish tushkunlikni davolashning eng samarali vositasidir. Tushkunlikka chalingan bemorlar kitob o'qishni boshlaganlaridan so'ng ularning tushkunlikka tushish holatlari kamaygan.

Yuqori darajadagi aqliy salohiyat insonning tashqi ko'rinishini ham go'zallashtiradi. Har qanday mavzuda qiziqarli suhbat qura olish va o'z bilimini namoyish etish suhbatdoshining mehrini qozonishga yordam beradi.

Ogayo shtati universiteti olimlari inson qancha ko'p kitob o'qisa, hayot yo'lini shunchalik aniq tanlashini ta'kidlashmoqda. Kitob o'qish hayotdagi to'siqlarni yengishga ham yordam beradi, deyishmoqda ular.

San'at milliy jamg'armasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar kitob o'qiydigan insonlar madaniy va ijtimoiy hayotda ham faol bo'lishlarini isbotladi.

Mutolaa xotirani va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi. Har safar kitob o'qilganida miya faol ishlaydi. U olinayotgan ma'lumotni saqlash uchun yangi tolalarni yaratadi. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, doimiy ravishda kitob o'qiydigan insonlarda fikrlash qobiliyati boshqalarga nisbatan sekinroq pasayar ekan.

Mutolaa so'z boyligini oshiradi. Kitob o'qiyotgan paytda notanish so'zlar ham uchrab qoladi. Ularning ma'nosini umumiy mazmuni orqali ham tushunib olsa bo'ladi. Kitob o'qish nafaqat so'z boyligini, balki umumiy savodxonlikni ham oshiradi.

Mutolaa yozuvchilik qobiliyatini rivojlantiradi. Kitob o'qish jarayonida muallifning yozish uslubi ham o'quvchiga ta'sir ko'rsatadi. Musiqa tinglash jarayonida musiqachining uslubi tinglovchiga o'tgani singari yozuvchining uslubi ham o'quvchining yozish uslubiga ta'sir o'tkazadi.

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga munosib sarlavha tanlang.
2. Matn mazmuni asosida soʻz va birikmalarning mavzuviy guruhini tuzing.
3. Quyidagi soʻzlarning maʼnosini izohlang; maʼrifatparvarlik, maʼnaviyat oʻchogʻi, buyuk alloma, kutubxona va qiroatxona, tashkil qilmoq.
4. Matn yuzasidan savollar tuzing va ular asosida savol-javob oʻtkazing.

4. Quyidagi nazariy maʼlumotni oʻrganing.

Erkin va turgʻun birikmalar

Tilda har bir soʻz oʻzining leksik-grammatik xususiyatlariga koʻra bir-biridan farqlanadi. Bu xususiyatni soʻz birikmalariga nisbatan ham aytish mumkin. Soʻzlar va soʻz birikmalari maʼlum usullar bilan birikadi. Bu grammatik abstraksiyaning natijasidir.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil leksik maʼnoli soʻzlarning maʼno va grammatik jihatdan munosabatga kirishishi va atash vazifasini bajarishi asosida hosil boʻlgan sintaktik qurilmaga *soʻz birikmasi* deyiladi. Taʼrifdan koʻrinadiki, soʻz birikmasida grammatikaning yordami bilan leksik maʼnolar munosabati vujudga keladi va shu yoʻl bilan murakkab tushunchalar hosil boʻladi. Masalan, *qizil* va *qalam* soʻzlari toʻbelanish orqali oʻzaro birikib, *qizil qalam* tipidagi murakkab tushuncha hosil boʻladi.

Soʻzlar koʻpincha oʻz mustaqilligini saqlagan holda birikib keladi. Soʻzlarning bunday birikishi nutq jarayonining oʻzida sodir boʻladi va ular *erkin birikmalar* deb yuritiladi. Masalan, *Bahorning mayin shabadasi daraxt shoxlarini tebratdi* gapida *bahorning shabadasi, mayin shabada, daraxt shoxlari, shoxlarini tebrat-moq, shabadasi tebratdi* kabi beshta erkin soʻz birikmasi mavjud. Soʻzlarning bunday erkin birikmalar hosil qilish qoidalari sintaksisning oʻrganish obyekti hisoblanadi.

Tilda shunday birikmalar ham borki, ularning tarkibidagi soʻzlar oʻrtasida semantik-grammatik aloqa sezilmaydi, chunki bunday birikmalar aynan shu nutq

jarayonida yaratilmay, tilda avvaldandan bir butun holda mavjud bo'ladi. Ular shu holatda tarkibidagi so'zlarning mavjud ma'no markaziga birlashadi va so'zga teng bir ma'no anglatishga xoslanadi. Shuning uchun ular so'zlarning **turg'un birikmalari** deb nomlanadi. Masalan, *Ular bir yoqadan bosh chiqarib mehnat qiladilar* gapida «bir yoqadan bosh chiqarmoq» birikmasi turg'un birikmadir, chunki uning tarkibidagi so'zlar yaxlit holda murakkab birikmani tashkil qilgan. Shunga ko'ra bu birikma, tarkibidagi so'zlarning miqdoridan qat'iy nazar, bir leksik tushunchani anglatgan va gapda ham bir sintatik bo'lak vazifasida kelgan.

So'zlarning turg'un birikmalari tilshunoslikning alohida sohasi – frazeologiyaning tekshirish obyekti.

So'zlarning turg'un birikmasi hamma vaqt so'z birikmasiga emas, balki gapga teng ham bo'lishi mumkin: *Sichqonning ini ming tanga bo'ladi, Og'zing qani desa, qulog'ini ko'rsatadi* kabi.

5. Quyidagi maqollarni yod oling va ularning mazmunini o'z so'zingiz bilan tushuntirib bering.

1. Kitob — aql qayrog'i.
2. Kitob ko'rmagan kalla — giyoh unmagan dala.
3. Kitobsiz aql — qanotsiz qush.
4. Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol.
5. Uchishga qanot kerak, o'qishga — toqat.

6. Quyidagi amaliy topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Gaplarni tarjima qiling va orttirma nisbat hosil qilgan qo'shimchalarni aniqlang.

1. Bugun adabiyot o'qituvchimiz «Men sevgan adib» mavzusida insho yozdirdi. 2. Qiziqchi yangi latifalar aytib, barchani rosa kuldirdi. 3. Sen bu qilig'ing bilan bizni uyaltirding, yuzimizni yerga qaratding. 4. Kuchli musiqa sadolari eshik, deraza va javonlarni titratdi. 5. Men bolani qo'lidan tortib, bo'sh o'rindiqqa o'tqazdim. 6. Buzilgan elektr asboblarni mana shu maishiy xizmat uyida tuzattiraman. 7. Biz yangi darvozamizni ko'k rangga bo'yatdik. 8. Sen bayramga yangi shim tiktermaysanmi? 9. Haydovchi o'chib qolgan mashinani bir

amallab yurgizdi. 10. Dilfuza singlisiga iliqqina sut ichirdi. 11. Tarbiyachi bolalarga odob, vatan, do'stlik va tinchlik haqidagi she'rlarni yodlatdi. 12. Trenerimiz bizni stadion bo'ylab yarim soat yugurtirdi.

2-topshiriq. Topishmoqlarning javobini toping. Ularning qaysi sohada ishlatilishini ayting. Shu sohaga oid yana qanday topishmoqlarni bilasiz?

1.Tushgan yerini kesar. 2.Og'zi yo'q, tishi ko'p. 3.Yer tagida oy yurar. 4. Kelib og'zini ochar, tishlab olib qochar.

3-topshiriq.

1. O'qigan badiiy asarlar ro'yxatini tuzing.
2. O'qigan badiiy asarlar to'g'risida qisqacha izoh yozing.

O'N BIRINCHI DARS

MAVZU: ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

Frazalogik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib o'rganish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirgan holda so'zlash.

Yozma nutq: Universitet kutubxonasi haqida matn tuzish. Elektron kutubxona bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar yozish. Badiiy asarlarga bag'ishlangan internet saytlarining ro'yxatini tuzish.

Grammatika: Frazelogik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari haqidagi bilimni chuqurlashtirish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'qing.

dunyo mo'jizasi	dasturlash
kashfiyot	taxlil qilish
fan sirlari	hisoblash mashinalari
tadqiqot	simsiz aloqa vositalari
fan va texnika	atom tuzilishi
olimlar	

2. Quyidagi matnni o'qing va o'rganing.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi O'rta Osiyodagi eng yirik va boy kutubxonalardan biridir. U 1870-yilda ochilgan. O'sha vaqtda uning fondida 2000 ta kitob va jurnallar bor bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda kutubxona fondida 70 tildagi 4,5 million tom kitoblar mavjud. Kutubxonaga har yili 250 mingdan ortiq nashrlar kelib tushadi. Bu yerda bebaho madaniy boyliklar saqlanadi, xususan, kutubxonada XV-XVII asrlarda nashr qilingan tarix, jug'rofiya, harbiy ishlarga oid nodir kitoblar, O'rta Osiyo va O'zbekiston haqidagi adabiy asarlar to'plangan. Qadimgi va nodir kitoblar bo'limida Fyodorovning "Apostol", Petr I buyrug'iga asosan tuzilgan I.F. Magnitskiyning "Arifmetika"(1703-y.), M.V. Lomonosovning "Rossiya grammatikasi" asarlari saqlanadi.

Kutubxonaning kitoblar fondidan har yili 20 mingdan ortiq kitobxonlar foydalanadilar.

Kutubxona roppa-rosa soat 10 da ochiladi. Dastlabki kitobxonlar o'z o'quv chiptalarini ko'rsatgan holda navbatchidan nazorat qog'ozlarini olib umumiy zalga yo'l oladilar. Bir vaqtning o'zida ilmiy, o'smirlar, periodik, xorijiy adabiyotlar zallari, qo'lyozmalar, nodir kitoblar bo'limlari hamda mikrofilmlar zali ish boshlaydi.

Kutubxonaga har kuni yuzlab kitoblar, jurnallar, broshura, gazeta va jadvallar keltiriladi. Kataloglar bo'limida 70 tilda yozilgan kitoblarning nomi yozilgan kartochkalar yig'ilgandir. Ularda kitoblarning muallifi, nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili hamda betlar miqdori ko'rsatilgan. Ba'zi o'rinlarda kartochkada kitobning qisqacha mazmuni, ya'ni annotatiya ham berilgan. Katalogda kartochkalar turli sohalar: falsafa, iqtisod, matematika, fizika, kimyo, texnika, badiiy adabiyot bo'yicha ajratilgan holdadir. Biror kitob bo'yicha buyurtma berish uchun katalogdan shu kitobning shifrini topish kifoya qiladi. Kutubxona o'z ishini kechqurungi soat 10 da tamom qiladi. Kitobxonlar o'z kitoblarini topshirib, uylariga ketadilar.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matndan yangi so'zlarni o'rganing.
2. 3. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu asosda savol-javob o'tkazing.
3. Matn mazmunini erkin so'zlab bering.
4. Matnda berilgan quyidagi so'zlarni izohlab bering: davlat kutubxonasi, nashrlar, bebaho madaniy boyliklar, adabiy asarlar, kitobxonlar, o'quv chiptalari, ilmiy, xorijiy adabiyotlar, muallifi, nashriyot nomi, buyurtma.

4. She'ning mazmunini rus tiliga tarjima qiling va uni yod oling.

O'g'lim, jonginang salomat bo'lsin,
O'z bog'ing, o'z mevang danagin saqla.
Shu meros bog'igni o'z qo'lingga ol,
Menga topshirilgan merosni haqla.
Bog'da tovu kabi xiromon bo'lib,
Umid danagini birga ekingiz,
G'olib kelajakni sayr qilaylik
Mushfiq onaginang bilan ikkimiz

(G'afur G'ulom).

5. Nazariy ma'lumotni o'rganing.

Frazalogik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari

Frazeologizm lisoniy hodisa sifatida til va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabiatga ega bo'lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorildi, do'ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko'tarmoq] va boshqa.

Frazeologizm lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi - bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi. (P. Tur.) 2. Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi. (S. Zun.) 3. Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan bunday hodisalar hali ham onda-sonda ro'y berib

turibdi. 4. Kavushini to'g'rilab qo'yish kerak. (As.Mux.) 1-va 2-gaplarda frazeologizmlar gap markazi – kesim mavqeida, 3-gapda so'z kengaytiruvchisi aniqlovchi va 4-gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.

Frazeologizm tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologizm: ko'ngli bo'sh, enka-tinkasini chiqarmoq, jig'iga tegmoq, bel bog'lamoq, kir izlamoq, terisiga sig'may ketmoq va h. Gap tipidagi frazeologizm «gap kengaytiruvchisi//kesim» qolipi mahsuli: istarasi issiq, ichi qora, labi-labiga tegmaydi, ko'ngli ochiq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq, kapalagi uchib ketdi, po'konidan yel o'tmagan, tepa sochi tikka bo'lmoq va h.

Frazeologizm, asosan, belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansub.

Fe'l turkumiga mansub frazeologizmlar: me'dasiga tegmoq, yaxshi ko'rmoq, holdan toymoq, sabr kosasi to'lmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, og'ziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq.

Sifat turkumiga mansub frazeologizm: ko'ngli bo'sh, rangi sovuq, yuragi toza, avzoyi buzuk, dili siyoh, kayfi chatoq.

Ravish turkumiga mansub frazeologizm: ipidan-ignasigacha, ikki dunyoda ham, miridan-sirigacha, ha-hu deguncha.

So'z-gaplarga mansub frazeologizm: turgan gap, shunga qaramay, katta gap.

Frazeologizmning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xos.

6. Quyidagi hikmatli so'zlarni o'qing va mazmunini tushuntirib bering.

1. Olamga odamzod sara mavjudot sifatida keldi, salohiyat bilim va zakovatda ega bo'ldi.
2. Insonga tabiat so'zlash qobiliyatini berdi, uni andisha, xushhulq va go'zal fe'l bilan ta'minladi.
3. Insonga bilim hadya qildi, shu tufayli u ulug'likka erishdi, zakovat ato qildi, shu tufayli inson chigal jumboqlarni hal qildi.
4. Tabiat kimda zakovat, aql-idrok, bilim ato qilsa, u ezgu ishlar qilishga qo'l uradi.

5. Bilimning buyukligi va zakovatning ulug'ligini anglagin, bu ikkalasiga ega bo'lgan sara kishilar ulug'likka erishadilar.

7. Quyidagi gaplarni taqqoslang. Ularning ifodalanishida qanday farqlar borligini aniqlang.

1. Ko'pchilik qum sahrolarini quyoshda qovjiragan, hayotdan asar yuq kenglik deb o'ylasalar ham, uning bag'rida rangli metallar, neft, gaz, ko'mir, hayvonot va o'simliklar dunyosi yashaydi.	1. Garchi ko'pchilik qum sahrolarni quyoshdan qovjiragan, hayotdan asar yo'q kenglik deb o'ylaydilar, ammo uning bag'rida rangli metallar, neft, gaz, ko'mir, hayvonot va o'simliklar dunyosi yashaydi.
2. O'rmonzorlarning yer maydoni har yili 5,5 mlrd.m ³ kengayib borishiga qaramay, ularga bo'lgan ehtiyoj bugungi kunga kelib, juda dolzarb bo'lib bormoqda.	2. Garchi o'rmonzorlar yiliga 5,5 mlrd.m ³ kengayib borayotgan bo'lsa-da, ularga bo'lgan extiyoj bugungi kunga kelib juda dolzarb bo'lib bormoqda.

1-topshiriq. Gaplarni o'qing. Ma'nosi o'zgargan so'zni ko'chirib yozing, ma'no farqlari va uslubiy vazifasini ko'rsating.

1. Mollarning narxi pasaysa, ishlab chiqarish pasayadi. — Samadboy shu qishloq odamlarining mollarini boqib yuribdi. 2. Fuqaro o'z ixtiyoriga ko'ra qonun doirasida o'ziga ma'qul ish bilan shug'ullanadi. — Ikkita doira chizing, ularning ichiga zid ma'noli so'zlarni yozib chiqing. 3. Eshitgan quloq nima deydi? — Quloq pardalari ehtiyotli muolajani talab etadi. 4. Yurak faoliyati insonning asab tizimiga bevosita bog'liqdir. — Yuragimga yaqin kishilar bilan ochiq gaplashib oldim. 5. Ma'lum bo'ldiki, yangi dastgohlar korxona hisob-kitobida qayd etilmagan. — Ular qachonlardir o'z «ega»sini topib ketganini xodimlar yaxshi bilishadi.

2-topshiriq. Quyidagi iboralarni o'rganing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ignaday narsani tuyaday qilmoq – bo'rttirmoq; igna ustida o'tirmoq – bezovta bo'lmoq, qo'y og'zidan cho'p olmagan – mo'min, yuvosh; tegganga tegib, tegmaganga kesak otadigan – tegajoq, xira juftliklaridagi iboralarning ifodalilik darajasi haqida fikrlashing.

O'N IKKINCHI DARS

MAVZU: ADABIYOT - MA'NAVIYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA

Badiiy nutq uslubi va uning qo'llanish xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib o'rganish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib so'zlab berish.

Yozma nutq: Badiiy asar qahramoni o'quvchini qanday tarbiyalashi haqida fikr bildirish va unga misollar keltirish. Mashhur adabiy qahramonlar haqida taqdimot tayyorlash. Adabiyot haqidagi hikmatli so'zlardan namunalar yozish.

Grammatika: Nutq uslublari haqidagi mavjud bilimlarni kengaytirish. Badiiy uslub va uning xususiyatlarini o'rganish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

hayot darsligi	izlanuvchan
voqelik	qobiliyatli
voqelikni aks ettirish	yetuk bilimdon
aks ettirish vositasi	yuksak didli
qarama-qarshilik	beqiyos olim
xur fikrli	buyuk alloma
bilimga tashna	o'lmas asarlar

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Maxmudxo'ja Behbudiy Turkiston o'lkasining xur fikrli kishilaridan biri edi. Behbudiy 1875-yili Samarqand shahrida dunyoga keldi. Yoshligidan bilimga tashna, izlanuvchan, qobiliyatli bo'lgan Maxmudxo'ja arab, fors, rus va butun turkiy tillarning yetuk bilimdoni, yuksak didli yozuvchi, bilimdon o'qituvchi, jamoat arbobi va beqiyos olim sifatida nom qozondi. O'rta Osiyo xalqlarining faxri bo'lgan bu buyuk alloma bizga o'zbek va tojik tillarida yozilgan «Qisqacha umumiy geografiya», «Bolalar uchun kitob», «Islomning qisqacha tarixi»,

«Rossiyaning qisqacha geografiyasi» singari o'lmas asarlarni tuxfa qilib qoldirdi. Behbudiy tomonidan qilingan ishlarni sanay bersak, ularni adog'iga yetish qiyin. U o'z uyida bepul maktab ochib, xalq bolalarini o'qitdi. «Behbudiy nashriyoti»ni tashkil qilib, o'zbekcha darsliklarni chop ettirdi. Samarqand shahrida maxsus kutubxona va qiroatxona ochdi. 1912-yilda «Padarkush» dramasini yozib, Quqon, Buxoro, Andijon, Kattaqo'rg'on, Namangan teatrlarida namoyish qildi. Shu orqali u ma'naviyat uchog'i hisoblangan adabiyotning yana bir ta'sirchan janriga – dramaturgiyaga asos soldi. O'z navbatida, «Padarkush» asarining saxnalashtirilishi esa teatrchilik sohasining taraqqiyotiga katta turtki berdi.

Behbudiyning ma'rifatparvarlik faoliyatini va xalqning ma'naviy yuksalishi yo'lida qilayotgan ishlarini ko'rolmagan Buxoro amiri 1919-yilda uni o'limga mahkum qildi. O'zbek xalqi ma'naviyat osmonning bir yulduzi shu tariqa so'ndi.

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga munosib sarlavha tanlang.
2. Matn mazmuni asosida so'z va birikmalarning mavzuviy guruhini tuzing.
3. Quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlang; ma'rifatparvarlik, ma'naviyat o'chog'i, buyuk alloma, kutubxona va qiroatxona, tashkil qilmoq.
4. Matn yuzasidan savollar tuzing va ular asosida savol-javob o'tkazing.

4. Quyidaki nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Badiiy nutq uslubi va uning qo'llanish xususiyatlari

Badiiy asarlar o'ziga xos uslubda yoziladi. Badiiy uslub turlari umumiy xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga, uning har bir turi (nazm, nasr, hikoya, qissa, roman, novella, doston, feleton, esse, fantastika, ertak, qo'shiq va b.) o'z yo'li, o'z vositalari, o'z uslubiga ega bo'ladi. Badiiy nutq uslubi yozuvchi va shoirlarga asarning estetik ta'sirini kuchaytirish uchun tilning barcha lug'aviy va Grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi. Badiiy nutq uslubida til obraz, xarakter va manzaralar yaratish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Badiiy nutq o'zining obrazlilik bilan adabiy tilning boshqa funksional uslublaridan ajralib turadi.

Topshiriq. Sheʼrlarning mazmunini oʻz soʻzlaringiz bilan tushuntiring.
Badiiy uslubni yaratuvchi vositalarni ajratib koʻrsating.

Kelturdilar bir xangi badpaymoy,
Ravon mindi shafaq gulgunida oy.
Aningdek tepdin sakrab ushoq tosh,
Ki hozir bir yogʻochdin qochirib bosh.

(A. Navoiy)

Chiroylidir guyo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.

(X. Olimjon)

Koʻzing osmonga tushganda,
Lovillab oftob kuygay.

(X. Olimjon)

5. Quyidagi sheʼrning mazmunini oʻrganing va yod oling.

Alp oʻgʻlonlar oʻlkasi bu koʻhna Turon,
Qalqonlari, qanotlari, ilm istang!
Yarim jahon bunyod etgan Sohibqiron,
Alisherning avlodlari ilm istang!
Taxtdan tushganda ham, otdan tushmay yurgan,
Ajdodingiz uy qurmagan – Davlat qurgan.
Yurti uchun yelkasida togʻlar surgan,
Rustamlari, farhodlari, ilm istang!
Koʻz ochganda kelib yetti baxri ummon,
Yeti tilda soʻzlashgan biz tili biyron.
Vatanida Tojmaxallar tiklar sulton –
Boburlari, Behzodlari, ilm istang!

(Muhammad Yusuf)

6. Gaplarni uslubiy shakliga koʻra guruhlariga ajratib koʻchiring. Nuqtalar oʻrniga nutq uslubiga xos soʻz yoki feʼl shaklini qoʻying.

1. Men bu gapni faqat tarjima vajidan aytayotgan... yo‘q. Yozuvchi o‘z ona tilisi ustiga o‘z zamonasining boy, madaniy tilini bilmasdan qanot bog‘lamaydi. Buning misolini adabiyotimiz tarixida, hozirgi adabiyotimizda ... ko‘rishi... mumkin (A.Q.). 2. Bulardan birinchi..., nutq madaniyati sohasining vazifasi til va nutqdagi nuqson va kamchiliklarni aniq..., to‘p..., uni o‘rgan... va bartaraf etishdan iborat..., deyilgan nuqtai nazar. 3. O‘sha «masalang» o‘rniga tushsa, dashnom...ga qalqon bo‘lishi, lovilla... asablarga suv purkab, seni ortiqcha dilsiyohliklar... asrashi ham mumkin! (O‘. Usmonov). 4. Men, Rasulov Anvar, «Eng yaxshi kitobxon» ko‘rik-tanlovini o‘tkazish... litseyimiz kutubxonasidan 10 (o‘n) ta badiiy kitob ol.... 5. Axir, talaba jamiyatning oldi qatlami sanaladi.... Shuni... kerakda, «o‘qib uqmasa bekor»

7. Parchani o‘qing, undagi badiiy tasvirga xizmat qilgan ma’nolarni aniqlang. Ifodalangan g‘oya atrofida fikrlashing.

Savollarga Nurmomo o‘zlari javob beradilar:

– O‘qrayib, bo‘zrayib, g‘o‘dayib, gerdayib, kekkayib... O‘h-ho‘, tilimiz qan chalik boy! Bitta tushunchada qancha ifoda! Ha, chiroqlarim, bu so‘zlar ila atalishdan uzoqroq yuring, takabbur bo‘lmang! Takabburlik – johillikdir!

Birov ila uchrashganingizda o‘ng qo‘lingizni ko‘ksingizga qo‘yib: «Assalomu alaykum!» deng. Sizdan oldin salom bersalar, «Vaalaykum assalom!» deya javob qaytaring. Chin insonlik yo‘lidan toymang! Buni o‘shal siz ko‘rib kelgan to‘tiqush ham yaxshi bilur, shunga amal qilur. Shul boiskim, to‘tiqush inson singari burro til, nozik dil paydo qildi. Ha, biz-u sizni oshiq-u shaydo qildi. Shul sababkim, ul dildan sayraydir, uyimiz to‘rida turgan qutlug‘ taxtiravonda yayraydir. Qo‘shaloq tug‘ilgan bu ikki egizak so‘zda – «Assalomu alaykum» birla «Vaalaykum assalom»da yetti olamning kaliti, mehri-yu sehri bor. Aytsangiz, tilsimlar ochilaverar. (Y. Muqimov)

O'N UCHINCHI DARS

MAVZU: OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

Publisistik uslub va uning xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash. Mavzu bo'yicha bahs- munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida fikr bildirish. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar, gazeta va jurnallardagi materillar, reklama matnlarini tahlil qilish. "XXI asrda axborotning o'rnini" mavzusida esse yozish.

Grammatika: Publitsistik uslub va uning xususiyatlari haqidagi bilimni kengaytirish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

Ommaviy axborot vositalari	xalqaro huquq
jamiyat taraqqiyoti	xalqaro tashkilotlar
dunyoqarash	huquqiy hujjatlar
siyosiy saviya	noshirlik faoliyati
serqirra rivojlanish	axborotlashtirish
Istiqlol	mutlaq qonuniy erkinli

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Ommaviy axborot vositalari har doim jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy saviyasining shakllanishida asosiy vositalardan biri bo'lib kelgan. O'tgan davrda barcha sohalar qatori OAV uchun ham serqirra rivojlanish davri bo'ldi. Istiqlolga erishganimizdan so'ng, birinchi navbatda, sohaning huquqiy bazasiga e'tibor qaratildi va rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish boshlandi. Ommaviy axborot vositalarining xalqaro huquqiy asoslari bu «Inson huquqlari xalqaro umumjahon deklaratsiyasi, Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt», O'zbekiston Respublikasining xalqaro

tashkilotlar va boshqa davlatlar bilan axborot siyosatiga doir tuzgan bitim va shartnomalari hisoblanadi. Mazkur huquqiy hujjatlar axborotni izlash, olish, tarqatish jarayonlari va ommaviy axborot vositalari faoliyatini bevosita yoki bilvosita tartibga soluvchi normalardir.

Mustaqillik yillarida ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soluvchi quyidagi qonunlar qabul qilindi:

- «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonun (2007-yil 15-yanvar’);
- «Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida»gi Qonun (1997-yil 24-aprel);
- «Jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida»gi Qonun (1997-yil 24-aprel);
- «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonun (2002-yil 12-dekabr);
- «Noshirlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonun (1996-yil 30-avgust);
- «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi Qonun (2006-yil 20-iyul’);
- «Reklama to‘g‘risida»gi Qonun (1998-yil 25-dekabr);
- «Axborotlashtirish to‘g‘risida»gi Qonun (1993-yil 7-may);
- «Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida»gi Qonun (1999-yil 20-avgust).

O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalari huquqiy bazasini yaratilishida Respublikamiz Konstitutsiyasiga asosiy manba sifatida tayanildi. Konstitutsiyamizning 67-moddasida «Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to‘g‘riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi» deb belgilab qo‘yilgani ommaviy axborot vositalarining mutlaq qonuniy erkinligining kafolati hisoblanadi.

Ushbu qoidaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi «Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida»gi Qonunining 7-moddasida «O‘zbekiston Respublikasida ommaviy axborot vositalarini senzura qilishga yo‘l qo‘yilmaydi. E‘lon qilinayotgan xabar va materiallar oldindan kelishib olinishini, shuningdek, ularning matni o‘zgartirilishini yoki butunlay nashrdan olib qolinishini (efirga berilmasligini) talab qilishga hech kimning haqqi yo‘q» deb ko‘rsatib qo‘yildi.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matndan yangi so‘zlarni o‘rganing.

2. 3. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu asosda savol-javob o'tkazing.
3. Matn mazmunini erkin so'zlab bering.
4. Matnda berilgan quyidagi so'zlarni izohlab bering: ommaviy axborot vositalari, axborot olish kafolatlari va erkinligi, noshirlik faoliyati

4. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Ommaviy axborot vositalari uslubi publitsistik uslub sanaladi. Bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta'sir qilish bo'lib, soddalik, tushunarlilik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir.

Publitsistik uslubning ham og'zaki va yozma shakllari mavjud. Radio-televideniye uslubi publitsistik uslubning og'zaki shakliga, gazeta, jurnal uslubi esa yozma shakliga xosdir.

Ommabop uslubda nutqning obrazlilligi barqaror xarakterga ega bo'ladi. Istiora, epitet, o'xshatish, mubolag'a, kesatq kabi his-tuyg'iga ta'sir etuvchi vositalar umumxalq tilidan olinadi.

Ommabop uslub kitobiy-yozma nutqning sintaktik me'yoriy qoidalariga asoslanadi. Bayonning keng va mufassal bo'lishi ommabop uslub uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlardan biridir.

5. Quyidagi amaliy topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Matnni o'qing, publitsistik uslubga xos bo'lgan so'zlarni toping. Siz ham bahorgi ishlar haqida kichik hikoya yozing.

Bu yil bahorni juda-juda sog'indik. Ayniqsa, yanvarning izg'irinli, ayozli kunlarida ko'klamning qadri juda bilindi. Mana, bobo quyosh charaqlab, kunlar iliy boshladi. Ona zamin qish uyqusidan uyg'ondi. Odamlarning bahri dili ochilib, kayfiyatlari ko'tarilib, bahorgi tashvishlarga sho'ng'ib ketishdi. Hammaning niyati yaxshi, ularni qulay imkoniyatdan foydalanish istagi chulg'ab olgan.

Dehqonlar yerdagi namlikdan, tog'dagi qor zaxirasidan xursand— bu yil obi hayot mo'l bo'lishidan umidvor. Dalalar esa xamirturushdek ko'pchib turibdi. Dehqon yerga tezroq baraka urug'ini qadash umidida yonmoqda. (I.Normatov)

2-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering. Uning qaysi nutq uslubiga mansubligini va bu uslubning o'ziga xos xususiyatlarini ayting.

Vatan, istiqlol, ma'naviyat... Bu so'zlar inson ongidagi eng buyuk tushunchalarni ifodalovchi purhikmat so'zlardir. Agar insonda shu so'zlarning birontasi yo'q bo'lsa, hayotining qayeridir kemtik bo'lib turaveradi.

O'zbekning mungli ko'zlariga shodlik, qadoq qo'llariga qut-baraka, bezovta qalbiga orom, osmoniga tinchlik ulashgan shu so'zlar, eng avvalo, Istiqlol emasmi?! Istiqlol tufayli uning egik boshi baland ko'tarildi, mag'rur ovozi olam uzra jaranglay boshladi.

Endi istiqlol tug'ini zabardast qo'llarda mahkam ushlab, uni mustahkamlash, Vatan ravnaqi uchun kurashish eng oliy baxtdir. (Z.Akbarova)

3-topshiriq. «Tabiatni asrang» mavzusida publitsistik uslubda matn tuzing.

- 1.Qanday uslubga publitsistik uslub deyiladi?
- 2.Publitsistik uslubning qanday shakllarini bilasiz?
- 3.Publitsistik uslubning muhim xususiyati nimalardan iborat?

4-topshiriq. Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Esi chiqib ketmoq - Nihoyatda qattiq qo'rqmoq. Varianti: es xonasi chiqib ketmoq. Ma'nodoshi: jon-poni chiqib ketmoq;

joni xalqumiga kelmoq. O'xshashi: kayfi uchmoq; yuragi chiqib ketmoq.

yuzidan o'ta olmaslik - Biror ishni qilishda kimningdir ra'yi, xohishi bilan hisoblashmoq.

6. Mustaqil ish. O'zingiz ta'lim olayotgan oliy ta'lim muassasasi hayoti haqida gazetaga maqola yozing, uning uslubiy belgilarini ayting.

O'N TO'RTINCHI DARS

MAVZU: INTERNET HAYOTIMIZDA

Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Internet madaniyati haqida matn tuzish. Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzish va tavsiya qilish. Internetdan foydalanish to'g'risida polilog tuzish va uni instsenirovka qilish.

Grammatika: Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

Internet tarmog'i	tarmoqqa tashrif buyurish
tarmoqdan foydalanmoq	sayr qilmoq
jadal taraqqiy etmoq	kirish mumkin bo'lmagan
me'yorda bo'lmoq	jalb etmoq
virtual olam	yuqori darajada
haqiqiy olam	qiziqish uyg'onishi
axborotlardan to'g'ri foydalanish	nosog'lom turmush tarzi

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Hozirgi davrda Internet tarmog'iga ulangan kompyuter, mobil telefonlari deyarli ko'plab xonadonlarda mavjud. Bundan tashqari, bolalar internet kafelarda ham tarmoqdan foydalana oladilar. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal taraqqiy etishi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga joriy etilishi sababli barcha uchun kompyuter savodxonligi dolzarb masalalardan biridir.

Zamonaviy bolalar kompyuter o'yinlari olami hamda ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o'sib, ulg'aymoqda. Bu quvonarli hol, albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Bolalar va o'smirlar Internet tarmog'ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo'lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin.

Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me'yori bo'lmog'i zarur. Bolalar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba'zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo'lib qoladilar. Bolalar va o'smirlar Internet tarmog'ida sayr qilarkan, ularga umuman kirish mumkin bo'lmagan saytlarga duch kelishlari mumkin.

Tabiiyki, bunday axborotlar qiziquvchan bola va o'smirni o'ziga ko'proq jalb etadi. Biror harakatni amalga oshirishda bolalarga qanchalik ruxsat etilmasa, ularda shunchalik yuqori darajada qiziqish uyg'onishi barchaga ma'lum. O'smirlar tarmoqdagi nosog'lom turmush tarzidan axborot beruvchi ayrim manbalarga duch kelsalar, yanada qiziqib, mazkur axborotlarga alohida e'tibor qaratishlari ehtimoldan holi emas. Shu sababdan kattalar farzand tug'ilgan kundan boshlab ulariga issiq choynak, qozonlarga yaqinlashish, pichoq, qaychi kabi o'tkir uchli narsalarga tegish mumkin emasligini onglariga singdirganlari kabi, tarmoqdagi axborotlar ham xavfli ekanligini tushuntirishlari, ularda axborotlardan to'g'ri foydalanish salohiyatlarini shakllantirishlari zarur. Albatta, Internet tarmog'i manbalari zamonamiz o'smirlari bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirishi bilan ayrim jihatlariga ko'ra ularning tarbiyasiga nafaqat salbiy, balki xavfli ta'sir ko'rsatishi ham mumkinligini unutmasligimiz zarur.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matndan yangi so'zlarni o'rganing.
2. 3. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu asosda savol-javob o'tkazing.
3. Matn mazmunini erkin so'zlab bering.
4. Matnda berilgan quyidagi so'zlarni izohlab bering: Internet tarmog'i, virtual olam, tarmoqqa tashrif buyurish, nosog'lom turmush tarsi.

4. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari

Og`zaki nutq, ma`lum bir modal munosabatlarni ifodalash uchun asos bo`lsa, uslub fanining ob`yekti bo`ladi. Bu holat – gap bo`laklari tartibining “buzilishi” bilan, soda gap, to`liqsiz gaplarning bo`lishi, dialog nutqning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Shunisi xarakterliki, og`zaki nutqning ba`zi shakllari yozma nutqda o`z o`rnini topadi: (keluvdi, kelardi). Og`zaki nutq uslubida qisqa hajmli bog`lovchisiz qo`shma gaplar ko`p ishlatiladi, badiiy vositalar kam qo`llaniladi. Ayniqsa, ko`p ma`noli so`zlar ko`proq ishtirok etadi. Og`zaki nutqda qochirma, piching, hazil-mutoiba, askiya uchun keng imkoniyat mavjud bo`ladi. Og`zaki nutq rasmiy – ish yuritish va ilmiy uslubda qo`llanilmaydi.

Og`zaki so`zlashuv uslubi ikkiga ajratiladi:

1. Adabiy so`zlashuv uslubi
2. Oddiy so`zlashuv uslubi.

Adabiy so`zlashuv uslubi tilning adabiy me`yorlariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo`lishi bilan xarakterlanadi.

Oddiy so`zlashuv uslubida esa betakalluflik bilan erkin muomala – aloqa qilish xarakterli xususiyatdir.

So`zlashuv uslubning quyidagi xususiyatlari bor:

1. Fonetik xususiyatlar.
2. Leksik-frazeologik xususiyatlar.
3. Grammatik xususiyatlar.

5. Quyidaki amaliy topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Ko`chiring. Matnning qaysi nutq uslubiga xosligini va bu uslubning

o`ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

— Turing, Nazirabuvi! Turing. To`xtabuvinikiga chiqamiz.

— A? Nimaga?

— To`xtabuvinikiga chiqamiz. Rais kelibdi.

— Rais?..

— Endi, o`g`lim, dabdurustdan majlis deding... asli shu gapni avval jo`n gaplashib, pishiqtirib olsag-u, keyin majlisga solsang bo`lardi.

— To‘g‘ri, avval jo‘n gaplashib olaylik. Xo‘p, majlis yopiq. Gapni bir joyga qo‘yganimizdan keyin ochamiz. (Abdulla Qahhor)

2-topshiriq. «Do‘stlar davrasida» mavzusida dialogli matn tuzing. Og‘zaki va yozma uslubga xos muhim belgilar haqida fikr yuriting.

O‘N BESHINCHI DARS

MAVZU: O‘ZBEKISTON VA JAHON

Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni qisqartirib so‘zlab berish.

Yozma nutq: O‘zbekiston a‘zolik qilayotgan xalqaro tashkilotlar haqida ma’lumot tayyorlash. Xalqaro tashkilotlardan birining faoliyati haqida taqdimot tayyorlash. Xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomlari ro‘yxatini tuzish.

Grammatika: Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlarini o‘rganish.

1. Quyidagi so'z va iboralarni o'rganing.

e‘lon qilmoq	asriy orzu
mustaqil davlat	hokimiyatning yagona manbai
diplomatik munsabatlar	jahon jamoatchiligi
elchixona	demokratik jamiyat mustahkam tinchlik
xalqaro shartnoma	tarixiy qadriyatlar
vatanparvar	milliy madaniyat
o‘zligiga qaytish	

2. Matnni o‘qing va o'rganing.

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida e‘lon qilindi. O‘zbek xalqining asrlar davomida orzu qilgan istagi amalga oshdi.

O'zbekiston davlat hokimiyatini to'laligicha boshqarishni qo'lga oldi, o'z kelajagini o'zi boshqarishga ega bo'ldi. Xalq hokimiyatning yagona manbaiga aylandi.

O'zbekiston mustaqilligini e'lon qilinishi butun jahon jamoatchiligi tomonidan qizg'in kutib olindi va ma'qullandi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilib, demokratik jamiyat qurish yo'lini tanladi.

Davlatimiz olib borayotgan siyosatining asosiy maqsadi barqaror tinchlik, qurolsizlanish, yadroviy qurollarni bartaraf qilishidan iborat.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasini dunyoning 165 mamlakati tan oldi, 130 dan ortiq mamlakat bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Mamlakatimiz poytaxti Toshkent shahrida 50dan ziyod davlatning elchixonalari ochildi.

O'tgan yillar davomida Respublikamiz ko'pgina muhim konvensiyalarga qo'shildi.

Mustaqillik o'zbek xalqiga tarixiy o'zligiga qaytish, milliy madaniyati va an'analarini tiklash, vijdon erkinligiga to'la amal qilish imkoniyatini berdi.

3. Matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matnning mazmunini o'z so'zingiz bilan bayon qiling.
2. Matn yuzasidan o'zaro savol –javob o'tkazing.
3. Oxirgi yillarda O'zbekistonda xalqaro miqyosida qanday voqealar sodir bo'lganligi haqida so'zlab bering.
4. Quyidagi so'zlarni izohlab bering: meros, an'ana, tantanali, manba, baholamoq, tashkil topmoq, ma'qullamoq, keng jamoatchilik.

4. Quyidagi hikmatli so'zlarni o'qing va o'rganing.

Orqaga turgan do'stdan oldinda turgan dushman yaxshi (Gruzin maqoli)

Mehnat hayot chirog'iga yog' qo'yadi, tafakkur esa uni yoritadi

(Ingliz maqoli)

Nodon aytur - g'olib chiqdim, Dono aytur – yo'l berdim. (Tatar maqoli)

Aqlli xalqqa intilsa, nodon o'z qarindosh-urug'lariga intiladi.

	(Qirgiz maqoli)
Ozodlik-obodlik.	(Tojik maqoli)
Do'stlik shishaga o'xshaydi, sinsa – ulayolmaysan.	(Rus maqoli)
Kishilarga muhabbat – eng yaxshi davlat.	(Arab maqoli)
Aqlli qariya - oqib turgan daryo.	(Qozoq maqoli).
Hatto eng baland tog' ham quyoshni tusa olmas.	(Xitoy maqoli).
Baxt kulgi bor uyga kiradi	(Yapon maqoli).

5. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari

Adabiy tilning yozma rasmiy shakliga xos bo'lib, muayyan nutqiy qolip, qat'iy odat tusiga kirib qolgan shakllarga ega bo'lgan nutq uslubi rasmiy uslub sanaladi.

Bu uslub davlat arboblari o'rtasidagi diplomatik munosabatlarda, idora, korxona, muassasalarning rasmiy ish yuritish jarayonlarida, shaxslarning ariza, tilxat, ishonch qog'ozi singari ish yuritish qog'ozlarida qo'llaniladi.

6. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: 1.Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar). 2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish). 3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma, tavsifnoma, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar). 4.Öizmat yozishmalari (taklifnoma, telegramma, xatlar).

Ish yuritish hujjatlarining har bir turi o'ziga xos nutqiy qoliplarga ega. Masalan, xizmat yozishmalarida quyidagi qoliplar ko'proq uchraydi:

1) «Sizga ...ni ma'lum qilaman(miz)//bildiraman(miz)//eslataman(miz)»;

2) «...ga rozilik bildiradi//kafolat beradi//qarshi emas» yoki farmoyish hujjatlarda gap kesimlari «tayinlansin», «topshirilsin» kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi.

2-topshiriq. Ko'chiring. Matnning qaysi nutq uslubiga mansubligini va uslubiy xususiyatlarini ayting.

Tilxat

Men, Paxtakor tumanidagi 5-maktabning 9-sinf o'quvchisi Ahmadjon Mamajonov, «Gulzor» mahallasida yashovchi Bahrom Safarovning shaxsiy kutubxonasidan o'n kun ichida qaytarish sharti bilan «O'tkan kunlar» romanini oldim.

(Sana)

(imzo)

A.Mamajonov

3-topshiriq.

1. O'zbekiston a'zolik qilayotgan xalqaro tashkilotlar haqida ma'lumot tayyorlang.
2. Xalqaro tashkilotlardan birining faoliyati haqida taqdimot tayyorlang.
3. Xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomlari ro'yxatini tuzing.

O'N OLTINCHI DARS

MAVZU: XXI asrda innovatsiyalar

Ilmiy uslub va uning xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Turli sohalarga oid innovatsiyalar haqida gapirib berish.

Yoza nutq: "Zamondoshlarimizning kashfiyotlari" mavzusida taqdimot tayyorlash. Kasb sohasidagi innovatsiyalar haqida ma'lumot tayyorlash. Sohada qo'llaniladigan baynalmilal so'zlar lug'atini tuzish.

Grammatika: Ilmiy uslub va uning xususiyatlarini o'rganish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

innovatsion faoliyat	ta'lim sohasi tizimiga
aql-zakovat	faol tadbirkorlik
mehnat qurollari	innovatsion g'oyalar
algoritm va nanozarralar	texnologiyalar
zamonaviy innovatsion kompyuter	qo'llab-quvvatlash
yuqori texnologiyalar	innovatsion rivojlanish

2. Quyidagi matnni o'qing va o'rganing.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Tarix shundan dalolat beradiki, inson o'zining aql-zakovati bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter, quyosh va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi.

Shu bilan bir qatorda ta'lim sohasi tizimiga, balki jamiyatning barcha sohalarining rivojiga o'zining aks ta'sirini ko'rsatadi. Shu bois ham ana shu ta'sirning oldini olish maqsadida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yilni "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilindi.

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejis emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oyaga innovatsiyaga tayangan davlat yutadi. Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan mamlakatimiz ilm-fani, yetakchi ilmiy maktablar, birinchi navbatda, eng yirik va muhim ahamiyatga ega tashkilot – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasini yanada rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratishga alohida e‘tibor qaratildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan ham qabul qilingan farmon va qarorlar yangi tarixiy voqeliklarga mos keladigan fan-texnika va innovatsiya sohasida davlat siyosatini izchil amalga oshirish uchun o‘ziga xos rag‘bat bo‘ldi.

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar ta‘lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta‘lim tizimi orqali Respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta‘limda eng muhim strategik yo‘nalish ta‘lim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta‘lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis kadrlarni tayyorlovchi oliy ta‘lim maskanlarida innovatsion texnologiya ko‘rinishida faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan.

3. Quyidagi matnni o‘qing va o‘rganing.

1. Matnning mazmunini o‘z so‘zingiz bilan bayon qiling.
2. Matn yuzasidan o‘zaro savol-javob o‘tkazing.
3. Oxirgi yillarda O'zbekistonda innovatsiya sohasida qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lganligi haqida so‘zlab bering.

4. Quyidagi so'zlarni izohlab bering: innovatsion faoliyat, algoritm va nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter, innovatsion rivojlanish.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Ilmiy uslub va uning xususiyatlari

Daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil shaklda bayon qiluvchi uslub ilmiy uslub sanaladi.

Ilmiy tadqiqotlarning natijalarini o'zida aks ettiruvchi original asarlar hisoblangan ilmiy maqola va monografiyalar sof ilmiy uslubga tegishli bo'ladi. Bu ilmiy uslubning birinchi janrlari sirasiga kiradi, chunki ular soha mutaxassislari tomonidan faqat mutaxassislar uchun yoziladi.

Monografiya –faqat bir muammo, bir masalani o'rganishga bag'ishlangan ilmiy ish, ilmiy kitob.

Ilmiy maqola – muallif o'z shaxsiy izlanishlari natijalarini bayon qilgan kichik hajimdagi yozma ish, insho.

Janrlarning bu guruhiga ma'ruza (doklad), dissertatsiya ishi, shuningdek, ilmiy uslubning boshqa tur ko'rinishi – o'quv-ilmiy janriga tegishli bo'lgan kurs ishi, diploma ishi ham kiradi. Ko'rsatilgan janrlarning matni boshqa har qanday ilmiy matnlarga xos bo'gan – aniqlik, mantiqiylik, abstraktlik umumlashganlik, qat'iy kompozitsiyon tuzilish kabi xususiyatlarga ega bo'lishi lozim.

Bu janr matnlarida mazmun tuzilishi komponentlari ajratiladi: mavzu (sarlavha), kirish, asosiy qism, yakuniy qism (xulosa).

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Matnni o'qing. Qanday nutq uslubiga xos ekanligini aniqlang.

Tobe so'zning hokim so'z talabiga ko'ra ma'lum kelishik qo 'shimchalari yoki ko 'makchi bilan kelishiga boshqaruv deyiladi.

(G'. Abdurahmonov)

2-topshiriq. Matnni ko'chiring. Qaysi nutq uslubiga mansub ekanligini va o'ziga xos uslubiy vositalarini aniqlang.

Atomlar kimyoviy bo'linmaydigan zarralardir. Bir xil turdagi atomlardan tashkil topgan moddalar oddiy moddalar deyiladi. Ularga vodorod va kisloroddan tashqari grafit, oltingugurt; barcha turdagi metallar: temir, mis, magniy va boshqalar kiradi.

Har xil turdagi atomlardan tashkil topgan moddalar murakkab moddalar deyiladi. Suv, karbonat angidrid, mis (11) oksidi shular jumlasidandir.

(«Kimyo» darsligidan)

3-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering. Uning qaysi nutq uslubiga mansubligini va o'ziga xos uslubiy vositalarini aniqlang.

Ultra tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish a'zosi bo'lgan quloq deb hisoblangan.

Tovush to'lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi.

Hozirgi paytda tovushning havodagi tezligi normal sharoitda 33 m/sekundga teng bo'lsa, suvdagi tezligi 1500 m/sekund, po'latda esa 6000 m/sekund ekanligi o'lchov asboblari yordamida isbotlangan.

(«Tilshunoslik va tabiiy fanlar»)

4-topshiriq.

1. "Zamondoshlarimizning kashfiyotlari" mavzusida taqdimot tayyorlang.
2. Kasb sohasidagi innovatsiyalar haqida ma'lumot tayyorlang.
3. O'zingiz o'qiyotgan sohada qo'llaniladigan baynalmilal so'zlar lug'atini tuzing.

O'N YETTINCHI DARS

MAVZU: DAVRIMIZNING GLOBAL MUAMMOLARI

Maqola va uning turlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Mavzu bo'yicha bahs- munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Insoniyat oldida turgan global muammolar to'g'risida taqdimot tayyorlash. Global muammolardan biriga bag'ishlangan publitsistik maqola yozish.

Grammatika: Maqola va uning turlari haqida tushunchaga ega bo'lish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

atrof-muhit	ichimlik suvini
sanoat inqilobi	tozaliini saqlash
atrof-muhit ifloslanishi	badalini to'lamoq
o'rta asrlarda	mas'uliyat his etmoq

2. Quyidagi matnni o'qing va o'rganing.

Atrof-muhitni asrash masalasi hozirgi davrda butun insoniyatni tashvishga solmoqda va global xarakter kasb etmokda.. Tabiatga o'ylamasdan va pisandsizlik bilan munosabatda bo'lish tabiat muhitini halokatli tarzda vayron bo'lishiga olib kelmoqda.

Zavodlar, fabrikalar, turli-tuman korxonalar, avtomashinalar va boshqa transport vositalari atmosferani bulg'ab, katta miqdorda kislorodni sarf qilmoqda. Ular o'zlaridan zaharli havo ajratib, havo, suv va yerni ifloslantiryapti. Chiqindilar bilan ifloslangan daryo suvlari dengiz va boshqa suv havzalariga tushib, ularda mavjud hayvonot va o'simliklar dunyosini zaharlayapti.

Qishloq xo'jaligida kimyoviy moddalardan noto'g'ri foydalanish oqibatida tuproq zararlanayapti, o'simlik dunyosi halok bo'lyapti, insonlar sog'ligiga putur

yetmoqda. Atom qurollarini sinash ishlari va atom stansiyalaridagi halokatlar natijasida biosferada reaktiv gazlar tarqalmoqda.

Foydali qazilmalarning olinishi va yog'och tayyorlash ishlarining kengayishi o'rmonzorlar va o'tloqzor maydonlarining kamayishiga sabab bo'lmoqda.

Garchi fan va texnikaning taraqqiyoti insoniyat qo'liga qudratli kuch va imkoniyatlarni bersa ham, shu bilan bir qatorda ko'pgina tashvishlarni ham tug'dirmoqda.

O'lkamiz tabiati qanchalik boy bo'lmasin, uning hazinasi tugashi yoki foydalanishga yaroqsiz bo'lib qolishi mumkin. Agar tabiat boyliklarini asrab-avaylamasak, uning tiklanishiga g'amxo'rlik qilmasak, ular butunlay yo'qolishi mumkin.

Agar tabiatni asrash uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar qilinmasa, ekologiya halokati sodir bo'lishi mumkin.

Insonlar faqat o'zaro hamkorlikda tabiatni asrab qolishlari va shu orqali o'zlarini ham asrab qolishlari mumkin.

2. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matnning umumiy mazmunidan kelib chiqib, unga sarlavha qo'ying.
2. Matnni o'rganib, savollar rejasini tuzing.
3. Tuzilgan savollar rejasi asosida matnni so'zlab bering.

4. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Современное значение понятия *экология* имеет более широкое значение, чем в первые десятилетия развития этой науки. В настоящее время чаще всего под экологическими вопросами ошибочно понимаются, прежде всего, вопросы охраны окружающей среды. Во многом такое смещение смысла произошло благодаря всё более ощутимым последствиям влияния человека на окружающую среду, однако необходимо разделять понятия *ecological* («относящееся к науке экологии») и *environmental* («относящееся к окружающей среде»).

Всеобщее внимание к экологии повлекло за собой расширение первоначально довольно чётко обозначенной Эрнстом Геккелем области знаний (исключительно биологических) на другие естественнонаучные и даже гуманитарные науки.

Классическое определение экологии: наука, изучающая взаимоотношения живой и неживой природы. Второе определение дано на 5-м Международном экологическом конгрессе (1990) с целью противодействия размыванию понятия экологии, наблюдаемому в настоящее время. Однако это определение полностью исключает из компетенции экологии как науки аутэкологию (см. ниже), что в корне неверно.

5. Quyidagi hadislarni tarjima qiling va esda tuting.

Baxtli odam fitna-fasodlardan chetlab yuruvchi va musibatga sabr qiluvchi kishidir.

Har bir odamning amakisi izzat-hurmat va munosabatda o'z otasi kabidir.

So'zda sehr bor, she'rda esa hikmat.

Faqat xayrli va savobli ishlar buyurilganda, unga itoat qilish kerak.

Men barcha yaxshi axloqni takomillashtirish uchun yuborilganman.

Ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda, bexosdan qiyomat-qoim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham, ulgursangiz uni ekib qo'yavering.

Men yetimning kafilligini olgan odam bilan jannatda birga bo'laman.

Tangri senga bergan ne'matlarini o'zingga ham safrlagin!

Nikoh to'yida bir qo'y so'yib bo'lsa ham ziyofat ber!

Ro'za, namoz va sadaqa qilishdan ham afzal amaldan xabar beraymi?! U ikki kishini yarashtirib qo'yishdir.

Farovonlik vaqtlaringda Tangrini tanib, unga iltijo qilib yur, toki qiyinchilik vaqtingda u ham seni tanisin.

6. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Maqola va uning turlari

Maqola —publitsistik janr. Maqolada ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot,

texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalari ommalashtiriladi, xalq xo'jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi. Matbuotda bosh maqola, nazariy va targ'ibot maqola, muammoli maqola keng qo'llanadi. Bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola) tahririyatning eng mas'uliyatli maqolasi bo'lib, unda ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni o'quvchilar ommasiga yetkazish vazifasi qo'yiladi. Bunday maqola muayyan masala yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatishi, mavjud kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy, haqiqiy yo'lini belgilab berishi lozim. Prezident farmonlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan davlat va hukumat hujjatlari, qarorlari, qonunlari davrning dolzarb masalalari bosh maqolada ochib beriladi. Nazariy maqola va targ'ibot maqolaning asosiy vazifasi mustaqillik, milliy g'oya, istiqlool mafkurasining asoslari va prinsiplarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o'quvchining g'oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Muammoli maqola munozara va bahslashuv mazmunida bo'lib, unda biror masala yuzasidan muallif o'z qarashlarini o'rta tashlaydi.

O'zbekistonda maqola janri tarixi, asosan, "Turkiston viloyatining gazetisi" bilan bog'liq. Unda ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalari o'z ifodasini topgan (Furqat, Ibrat, Hakimxon va boshqalar). Keyinchalik taraqqiyparvar o'zbek milliy matbuotida Hamza, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy va boshqalar o'z maqolalari bilan ishtirok etishgan. Hozirgi ommaviy axborot vositalarida maqolaning hamma turlarida materiallar berib boriladi. Maqola bu dolzarb mavzularni yorituvchi nashirdir.

Maqola termini keng ma'noda gazeta, jurnal, radio, televideniye, shuningdek, to'plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo'llanadi.

(Vikipediya, ochiq ensiklopediya)

7. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Ilmiy asarlar to'plamida maqola shaklida berilgan materialni o'qing. Yo'l qo'yilgan kamchiliklarini aniqlang. Quyidagi savollar asosida matnni tahrir qiling:

- mazmun mavzuga muvofiqmi?
- maqolaning asosiy tezisi nimadan iborat va ishning hamma qismlari unga bo'ysundirilganmi?
- maqolaning qismlari bir-biriga nisbatan proporsionalmi?
- mantiqlikning buzilishlari yo'qmi?
- ish ilmiy uslub talablariga javob beradimi?
- nutqiy xatolar bormi?
- ishning umumiy saviyaligi qanday?

2-topshiriq. Matnning tushirib qoldirilgan o'rinlarini o'z so'zlaringiz bilan to'ldiring. O'z fikringizni matnning asosiy mazmuniga bog'lovchi vositalarni ajratib ko'rsating.

Hayot go'zal, yashash maroqli. Biroq inson uchun.... Shu bois bo'lsa kerak, inson borki, hamma vaqt imkon qadar bu dunyoning go'zalliklaridan ko'proq bahra olishga, u ... intilib yashaydi. Bu istak esa ba'zida odamzodga baxt keltirsa, Insoniyatning eng zaif tomoni ham shunda, menimcha U amal qilayotgan ko'plab zararli odatlarning oxir-oqibatini bilsa-da, Bugun yoshlar orasida ommalashib borayotgan chekish odati ham ayni yuqoridagi fikrimizga dalil. E'tibor bergan bo'lsangiz, yoshlarimiz ruju qo'yayotgan sigareta tutunlari ... singari tobora farzandlarimizning katta qatlamini o'z iskanjasiga olmoqda. Yurtimizda ... e'tibor berilayotgan bir paytda kelajagimiz vorislari bo'lgan o'g'il-qizlarimizning bu qadar o'zlarini zaharlashlariga nima sabab bo'lmoqda? Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatga ruju qo'yishlarida, avvalo ... bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

3-topshiriq.

1. Insoniyat oldida turgan global muammolar to'g'risida taqdimot tayyorlang.
2. Global muammolardan biriga bag'ishlangan publitsistik maqola yozing.

O'N SAKKIZINCHI DARS

MAVZU: TABIAT VA INSON

Intervyu olish va intervyu berish qoidalar

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni ijodiy so'zlash.

Yoza nutq: Dunyoda va O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida esse yozish. "Orol fojiasi" mavzusida taqdimot tayyorlash. O'zbekiston ekologik harakatining faoliyati to'g'risida ma'lumot tayyorlash.

Grammatika: Intervyu olish va intervyu berish qoidalar haqida ma'lumotga ega bo'lish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

nobud qilmoq	tashqi muhit
tabiat muvozanati	mavjudot
chambarchas bog'liq	yirtqich hayvon
kemiruvchi	qirib tashlamoq
muvozanatining buzilishi	o'simliklar va hayvonot olami

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Inson va tabiat... Hozir biz aniq bilamizki, tabiatsiz yashay olmaymiz. Tabiat esa bizziz ham mavjud bo'laveradi va hech qachon o'z-o'zini nobud qilmaydi. Tabiat muvozanatining buzilishiga faqat insonlarga sabab bo'la oladi.

Tabiatning bir bo'lagi bo'lgan inson tashqi muhit: yer, suv, havo va atrofida yashovchi barcha mavjudotlar bilan chambarchas bog'liq. Bir vaqtlar bo'ri, tulki kabi yirtqich hayvon va qushlarni qirib tashlashga kirishilgan edi. Natijada bo'rilar kamayib ketgan joylarda bug'ular kasallikka uchrab qoldi. Tulki va yirtqich

qushlar bo'lmagan joylarda kemiruvchilar shu darajada ko'payib ketdiki, ular qanchadan-qancha g'allani eb qo'ydi.

Yirtqich hayvonlar va ularning o'ljalari minglarcha yillardan beri yonmayon yashab keladi. Bunga sabab tabiat muvozanatidir. Inson tabiatdagi ana shu munosabatni esdan chiqarmasligi kerak. Bolalik chog'imizdanoq o'z tabiatimizni, o'simliklar va hayvonot olamini sevishimiz va asrashimiz lozim.

Zero, o'z vatanini sevgan inson uning tabiatini ham sevadi.

3. M.Prishvinning "qushlarga osmon, baliqlarga suv, hayvonlarga o'rmon, cho'l, tog'lar, insonga esa Vatan kerak. Tabiatni asramoq-Vatanni asramoq demakdir"-degan fikrini tushuntirib bering.

4. Quyidagi savollarga javob bering.

O'yinli texnologiya: «Kim ko'p misol keltiradi»

O'zbekistonda o'sadigan qanday mevali va mevasiz daraxtlarni bilasiz?

Reza mevalarga nimalar kiradi?

Qanday boshqoli o'simliklarni bilasiz?

Qanday sabzavot va mevalarni bilasiz?

5. Hayvonlar haqidagi qiziqarli matn bilan tanishing.

KENGURU

Avstraliyaga birinchi bo'lib borgan Yevropalik sayyohlar, qornidagi maxsus xaltachada bolasini olib yuradigan, sakrab harakat qiladigan g'alati hayvonni ko'rib hayratlanishgan. Shunda bir sayyoh mahalliy aholidan: "Bu hayvonning nomi nima?" deb so'rabdi. U esa: "Kenguru" deb javob beribdi. Aslida u yevropalik sayyohga "Gapingga tushunmadim" degan ekan. O'shandan beri bu hayvonning nomi "kenguru" bo'lib ketgan.

Agar kenguru bolasi onasining yonida o'tirgan paytida salgina xavf tug'ilib qolsa, xaltacha ichiga boshi bilan sho'ng'iydi. U yerda keyin o'girilib olsa ham bo'laveradi. Xaltacha chuqur teri qatlamidan iborat bo'lib, kenguruning deyarli butun qornini berkitib turadi.

6. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Intervyu olish va intervyu berish qoidalari

Intervyu (ing . interview — uchrashuv) — publitsistika janri. Jurnalistning bir yoki bir necha shaxs bilan dolzarb masalalar yuzasidan suhbat. Ikki turga bo'linadi: I.-xabar, asosan, axborot yetkazish maqsadida o'tkaziladi; **Intervyu** tahlilda — muhim voqea, hodisa va hujjatlar sharhdab beriladi.

Blog mavzusiga aloqador sohalarda ekspertlarni intervyu qilish bir necha sabablarga ko'ra oqilona harakatdir.

Birinchidan, agar siz blog g'oyalarini ishlab chiqishda qiynalayotgan bo'lsangiz, ProfNet va PR kabi ba'zi PR-saytlarga osonlikcha chizib qo'yishingiz mumkin, ular biron-bir mavzudan intervyu olishni istagan odamlarni yo'q qilishlari mumkin. Ikkinchidan, ular o'z muxlislariga, oila a'zolariga va do'stlariga intervyu haqida xabar berishadi va bu o'z navbatida saytingizga yangi mehmonlarni jalb qiladi. Nihoyat, intervyu boshqa shaxs bilan maxsus suhbatdir. Hech kim sizning aniq savollaringizga ega emas, bu odam sizga bergan aniq javoblar yoki ularning saytida bir xil tarkibga ega bo'lmaydi. Buni olish uchun o'qiydiganlar blogingizga kelishlari kerak.


Intervyu mavzusini qanday topish mumkin

Blogingiz qanday mavzularni qamrab olmasin, ehtimol u erda bir mutaxassis yoki ikkita narsa bor. Siz suhbat mavzusini topishingiz mumkin bo'lgan bir necha joy mavjud:

ProfNet PR Newswire-dan kelib chiqadi va mutaxassislarni ular bilan suhbatlashishni istagan odamlar bilan bog'lash usulidir. Siz bepul hisob qaydnomasida ro'yxatdan o'tishingiz va qanday mavzularda suhbatlashishingiz mumkin. Siz hatto intervyu so'rovlarini qancha vaqt olishingizni cheklashingiz mumkin. PR vakillari va shaxslar keyin siz bilan bog'lanib, o'z mahsulotlarini, tajribalarini yoki shaxslarini bilib olishadi. Bu katta maqola uchun narx taklif qilish yoki suhbatdoshlar uchun manba sifatida ishlaydi.

8. Quyidagi krossvordni birgalikda to'ldiring.

1. Скупой, жадный. 2. Скромный, безобидный. 4. Злой, коварный. 5. Заботливый, сердечный. 3. Лодырь, бездельник. 7. Некорректный, неуклюжий. 6. Скрытный, неискренний. 8. Вялый, безтемпераментный.



Dunyoda va O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida esse yozish. "Orol fojiasi" mavzusida taqdimot tayyorlash. O'zbekiston ekologik harakatining faoliyati to'g'risida ma'lumot tayyorlash.

7. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Gazeta va jurnaldan ta'lim yoki madaniyat mavzusidagi maqolani o'qing, ularning tezisini tayyorlang.

2-topshiriq. Gaplarni o'qing, uslubiy xatolarini tuzatib, daftaringizga ko'chiring.

1. Ehtiyot qismlar, yoqilg'i-moylash va boshqa xomashyolarning sarf-xarajat narxlari oshganligi bilan shahar yo'lovchi tashish transportida yangi yo'lkira haqlari belgilandi. 2. Yaqin kelganimda «Xush kelibsiz!» degan yozuv uzoqdan ko'zga tashlandi. 3. Eng avvalo, dalalar to'la, nihollar sog'lom bo'lishi kerak. 4. Mahalla ko'chalarida piyodalar yurish xavfsizligi oyligi o'tkazildi. 5. Naqqosh kuzning saxiy mo'yqalamida bahra olgan g'o'zalar qulog'ida oltin baldoqlar selkillab turibdi. 6. Jamoa raisi bosh agronom bilan o'z xonasida uchrashdi.

3-topshiriq.

1. Dunyoda va O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida esse yozing.
2. "Orol fojiasi" mavzusida taqdimot tayyorlang.
3. O'zbekiston ekologik harakatining faoliyati to'g'risida ma'lumot tayyorlang.

O'N TO'QQIZINCHI DARS
MAVZU: INSON VA SALOMATLIK
Reportaj tayyorlash

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash. Mavzu bo'yicha bahs- munozarada ishtirok etish.

Yoza nutq: "Salomatligimiz o'z qo'limizda" mavzusida esse yozish. Jahon tibbiyoti yutuqlari haqida taqdimot tayyorlash. Salomatlik haqidagi o'zbek xalq maqollaridan namunalar yozish. Mehnat xavfsizligi qoidalarini tuzish.

Grammatika: Reportaj tayyorlash ko'nikmalarini egallash.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarni o'rganing.

murakkab tuzilish	mevalarining qay tarzda yetilganligi
organik birikmalar	ob-havo bilan yorug'lik
biologik faol moddalar	chidamsiz moddalar
vitaminlar miqdori	qaynagan suv
o'sish sharoiti	modda almashinuv jarayoni

2. Matnni o'qing va o'rganing.

VITAMINLAR (DARMON DORILAR)

Vitaminlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan organik birikmalardan tashkil topgan biologik faol moddalardan biridir. Vitaminlarni asosan o'simliklar to'playdi. O'simliklarda vitaminlar miqdorining oz yoki ko'p bo'lishi, ularning o'sish sharoitiga, rivojlanish davriga, urug' hamda mevalarining qay tarzda yetilganligi yoki yetilmaganligiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Shuningdek, ularning o'zgarib turishiga ob-havo bilan yorug'lik katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, kunduzgi havo ochiq, yorug'lik yetarli bo'lsa vitamin C (askorbin kislotasi)

miqdori ko'payib, tunda yoki yog'ingarchilik paytida bu ko'rsatkich kamayib ketadi.

Ko'pchilik vitaminlar juda chidamsiz moddalardan iborat. Ular ishlatilish jarayonida yoki narsalar ta'sirida tez buziladi, parchalanadi, hamda o'z qiymatini yo'qotadi.

Vitaminlardan C, P, B1, B2, D6, PP1, H va pantoten kislotalari qaynagan suvda tez parchalanib, o'z xususiyatlarini yo'qotib qo'yadi. A, K, D, E, vitaminlari suvda parchalanmaydi, ammo yog'larda parchalanadi. C, A, B vitaminlari kislorod ta'sirida buziladi, B2 vitamini esa ta'sirga ancha chidamli.

Vitaminlar tirik organizmlar ehtiyoji uchun hayotiy moddalardir. Vitaminlar yetishmasa turli xastaliklar yuzaga keladi. Ayniqsa, modda almashinuv jarayonining buzilishi, asab sistemalari funksiyasining ishdan chiqishi kuzatiladi. Vitaminlar organizmda yetishmasligi sababli avitaminoz kasalliklari sodir bo'ladi.

Vitaminlar inson to'qimalari uchun doimiy va zarur zarralar hisoblanib, modda almashinuv jarayonida faol qatnashadi. Ovqat hazm qilish paytida muhim ahamiyat kasb etadi. Inson organizmini turli kasalliklardan himoya qilish qobiliyatini oshiradi. Qon tomirchalarining devorlarda to'planadigan xolestiringa yo'l qo'ymaydi.

Shu narsani ta'kidlash lozimki, inson organizmi vitaminlar ishlab chiqarmaydi, balki ularni faqat ovqatlanish jarayonida qabul qiladi.

3. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Matnni o'qing va rus tiliga tarjima qiling.
2. Matndagi quyidagi gaplarning ma'nosini izohlab bering:

Vitaminlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan organik birikmalardan tashkil topgan biologik moddalardir;

- a) ...ularning o'zgarib turishiga ob-havo bilan yorug'lik katta ta'sir ko'rsatadi;
- b) ko'pchilik vitaminlar juda chidamsiz moddalardan iborat;
- d) vitaminlar tez buziladi, parchalanadi va o'z qiymatini yo'qotadi.

4. Salomatlik to'g'risida aytilgan hikmatli so'zlarni daftaringizga yozing hamda ma'nosini izohlab bering.

Uzoq yashamoqchi bo'lsang, kam-roq ovqatlan.

B. Franklin

Taomning eng yaxshi qaylasi — nafsni tiyish.

Suqrot

Og'zingni ehtiyot qil: hamma kasallik og'iz orqali o'tadi. Shunday qilginki, ovqatdan keyin ham ishtahang qarnay bo'lsin.

L. N. Tolstoy

Agar me'yoridan chiqib ketilsa, to'qlikning ham, ochlikning ham, boshqa narsalarning ham xosiyati bo'lmaydi.

Gippokrat

Tush paytida kamroq ovqatlan, kechqurun esa undan ham kamroq bo'lsin, chunki butun sog'ligimiz oshqozonimizga bog'liq. M. Servantes

5. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Reportaj tayyorlash

Ommaviy axborot vositalarining vazifasi haqidagi an'anaviy tasavvur OAV auditoriyasini yangiliklar, ya'ni jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi muhim, dolzarb voqealar haqida xabardor qilishi va bu bilan bizni o'rab turgan voqelikning real manzarasini, undagi turfaliklar qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlab berishi kerak, degan fikrdan iborat. Biroq keyingi o'n yilliklar ichida jurnalistika sohasining rivojlanishi qoidaga aylangan ushbu tasavvurni sezilarli darajada o'zgartirdi, to'g'rirog'i, sezilarli darajada kengaytirdi. Endi yuqorida bayon etilgan vazifalar bilan birgalikda, zamonaviy ommaviy axborot vositalari o'z kuchiga tayanib va, albatta, halol vositalar yordamida adolat va qonun oldidagi tenglik tamoyillarini himoya qilishi, korrupsiya, yolg'on, vijdotsizlarcha firibgarliklar yo'lida to'siq bo'lishi kerak.

“Surishtiruv”, “Surishtiruv jurnalistikasi” tushunchalari bugungi kunda

jurnalistlarning ham, o'quvchilar ommasining ham so'z boyligidan mustahkam o'rin olgan. Sho'ro davri jurnalistikasida ushbu tushunchalar hozirgi matbuotda qaysi ma'noda qo'llanilayotgan bo'lsa, shu ma'noda deyarli ishlatilmagan. Zamonaviy jurnalist surishtiruvlarining mohiyatiga murojaat etiladigan bo'lsa, buning sababi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularda, asosan, salbiy ma'noga "o'ralgan" "favqulodda hodisalar va voqealar, ya'ni fojialar, jinoyatlar, moliyaviy firibgarliklar va korrupsiya faktlari, tarix sirlari hamda undagi «qora» sahifalar va hokazolar eng ommabop mavzular hisoblangan"¹². Ana shu holatdan kelib chiqilsa, hozirgi surishtiruvlar sho'ro zamoni jurnalistikasida nima sababdan bo'lmagani oydinlashadi.

Ta'kidlash joizki, qaysidir ma'noda, jurnalist surishtiruvi ham eski, ham yangi janr va faoliyat turi hisoblanadi. Chunki surishtiruv xarakteridagi materiallar jurnalistika amaliyotida mazkur janr nazariyasi va jurnalist faoliyatining tegishli yo'nalishi shakllanishidan ancha oldin paydo bo'lgan. Surishtiruv jurnalistikasining qadimiy va shonli tarixi bor. Jurnalist surishtiruvi hozirgi tushunchadagi janr sifatida Amerikada paydo bo'lgan. Aniqrog'i, buning uchun XIX – asr oxiri – XX – asr boshidagi amerikalik mualliflardan minnatdor bo'lish kerak. Surishtiruv jurnalistikasi ana shu ikki asr chegarasida matbuotda fosh etuvchi maqolalarni chop etgan "makreykerlar" – "balchiq tituvchilar"dan boshlanadi. Ularning faoliyati ildizi ushbu mamlakatning buyuk publitsistlari va yozuvchilari ijodiga borib taqaladi. Yangi janrning ijtimoiy ahamiyatini materiallarning mavzusi ham ta'kidlab turibdi: korrupsiya, katta shaharlarda avj olgan mehnat reketi, firibgarlik. "Balchiq tituvchilar"ning o'tmishdoshlari ham ko'p bo'lgan. Ular jamiyatni o'zi haqidagi haqiqatni qabul qilishga tayyorlagan. Amerikalik mashhur jurnalist, keyinchalik yozuvchiga aylangan Semyuel Lengxorn Klemens (1835–1910) haqli ravishda birinchi surishtiruvchi jurnalistlardan biridir. U o'z ijodiy yo'lini "Territoriyel Enterprayz" gazetasining xodimi sifatida Mark Tven taxallusi ostida boshlagan.

(Y. Mamatova.O'zbekistonda surishtiruv jurnalistikasi.O'quv qo'llanma)

6. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Matnni o'qing. Telefonda so'zlashish odobiga oid jumalarning ma'nosini izohlang.

Agar siz qo'ng'iroq qilsangiz, albatta, gapni salom-alikdan boshlang. Shundan so'ng o'zingizni taniting (ish yuzasidan telefon qilsangiz xizmat vazifangizni ham aytganingiz ma'qul) va kerakli joyga tushdingizmi yoki yo'qmi shuni aniqlab oling. Kerakli joyga tushganingizga ishonch hosil qilganingizdan so'ng, sizga zarur bo'lgan kishini chaqirib berishlarini iltimos qiling. Hol-ahvol so'rab, asosiy maqsadga o'ting. Telefonda qisqa, lo'nda gaplashishga harakat qilishingiz lozim. Xayrlashib bo'lganingizdan keyin telefon dastagini birinchi bo'lib siz qo'ying, chunki telefon raqamini siz tergansiz.

Agar sizni telefonga chaqirishsa, «Labbay» yoki «Eshitaman» deb javob qiling. Boshqa joyga tushib, sizdan kechirim so'rashsa, «marhamat, hechqisi yo'q», deb dastakni qo'ying. Telefon orqali muloqot qilayotganingizda xodimlardan biri huzuringizga kelib muhim ishi borligini aytib qolsa, hamsuhbatingizdan uzr so'rang va ma'lum vaqtdan keyin unga o'zingiz qo'ng'iroq qilishingizni aytib, telefon dastagini ohista qo'ying. Telefonda gaplashayotganda o'tirgan joydan turib, qo'lini ko'ksiga qo'yib yoki boshni egib gaplashish kabilar odob doirasiga kirmaydi. Bu holatda gaplashsangiz atrofdagi xodimlarning g'ashiga tegasiz.

2-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing va ma'nosini tushuntirib bering.

Как я победил чемпиона

- Ты знаешь, я летом играл в шахматы и в теннис. Так хорошо играл, что победил чемпиона-шахматиста и чемпиона-теннисиста.

- А как ты это сделал?

- Я победил чемпиона - теннисиста. Когда с ним играл в шахматы. А чемпиона - шахматиста победил, когда с ним играл в теннис.

Идти или ходить

-Не знаю, что мне делать. Один врач говорит: «Вам нужно больше

ходить». А другой: «Вам нужно ехать на курорт» Что мне делать?
Идти на курорт пешком!

3-topshiriq.

1. “Salomatligimiz o’z qo’limizda” mavzusida esse yozing.
2. Jahon tibbiyoti yutuqlari haqida taqdimot tayyorlang.
3. Salomatlik haqidagi o’zbek xalq maqollaridan namunalar yozish.
4. Mehnat xavfsizligi qoidalarini tuzing.

YIGIRMANCHI DARS

MAVZU: HUQUQIY MADANIYAT

Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og’zaki nutq: Mavzuga oid matnni o’qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib so’zlab berish.

Yozma nutq: “Qonunlarni o’rganish va ularga rioya qilish” mavzusida matn tuzish. O’zbekistan fuqarolarining huquqlari va burchlari to’g’risida dialog tuzish. Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lug’atini tuzish.

Grammatika: Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlarini o’rganish.

1. Quyidagi so’z va so’z birikmalarini o’rganing.

huquq - право	tarbiyaviy – воспитательный
adolat – справедливость, правосудия	mezon – критерий, мерило
tartib – порядок; режим	choralar – мероприятие; мера
o’rnatmoq – устанавливать	ta’qiqlamoq - запрещать
qo’riqlamoq – охранять, защищать	xulq-atvor – нрав, характер, поведение

2. Quyidagi matnni o’qing va o’rganing.

Huquq - davlat tomonidan o'rnatilgan yoki maqullangan va uning kuchi bilan himoya qilinadigan umummajburiy xulq-atvor qoidalarining tizimi. "Huquq" iborasi ikki manoda qo'llaniladi. Birinchi manosi umummajburiy xulq-atvor qoidalarining yig'indisi. Bu mano u yoki bu insonning irodasi hamda xohish-istagidan kat'iy nazar mavjud bo'ladi. Ikkinchisi jismoniy yoki yuridik shaxsga tegishli bo'lgan huquq. Bu mano yuridik jihatdan shaxs erkinligini taminlaydi, unga mustaqillik beradi va tashabbus ko'rsatishga imkon yaratadi.

Huquq davlat bilan chambarchas bog'liq. Davlatsiz huquq bo'lishi mumkin emas. Chunki aynan davlat huquqni keltirib chiqaradi va huquqiy normalarning amalga oshirilishini kafolatlaydi, huquqni muhofaza qiladi.

O'z navbatida, davlat ham huquqsiz mavjud bo'lishi mumkin emas.

Huquqning asosiy belgilari bu:

- Davlat tomonidan o'rnatilishi
- Barcha uchun majburiyligi
- Huquq normalarining qonunlar va boshqa muayyan manbalarda ifodalanishi.

Huquq adolatdan ajralmasdir. Huquq jamiyat hayotida muayyan funksiyalarni bajaradi. Huquqning funksiyasi deganda, ijtimoiy munosabatlarga tasir etish, ularni tartibga solishning asosiy yo'nalishlari tushuniladi.

Huquqning asosiy funksiyalari quyidagilar: tartibga soluvchi, qo'riqlovchi va tarbiyaviy.

Tartibga solish funksiyasi - tegishli ijtimoiy aloqalar hamda munosabatlarni va u yoki bu subyekt faol xulq-atvorining mezonini mustahkamlash va rivojlantirishdan iborat.

Qo'riqlash funksiyasi huquqiy muhofaza va yuridik javobgarlik choralarini belgilaydi.

Tarbiyaviy funksiyasi nimalar qilish mumkin, nimalar esa ta'qiqlanadi, u yoki bu vaziyatda qanday harakat qilish lozimligini belgilaydi.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga sarlavha tanlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing va savol-javob uyushtiring.

3. Matnning asosiy g'oyasini aytib bering.

4. Quyidagi so'zlarning izohini aytib bering: huquq, shaxs erkinligi, tashabbus ko'rsatish, mustaqillik, tartibga solish, qo'riqlash, tarbiyaviy, vaziyat.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari

Rasmiy yozishma va hujjatlar uslubi iqtisodiy, yuridik va diplomatik munosabatlarda, davlat idoralari, sudlar, savdoga doir o'zaro muomalalarda aloqa qilish uchun ishlatiladi. Shunga ko'ra, bu uslubda yuridik qonun moddalari, diplomatik murojaatnomalar — notalar, hukumat idoralarining qarorlari, instruksiyalar, buyruqlar, shartnomalar, rasmiy e'lon va xabarlar, yozishmalar va shu kabi hujjatlar yoziladi.

Rasmiy yozishma va hujjatlar uslubining qo'llanish doirasi keng va xilma-xil bo'lganligidan uning tarkibi ham turlichadir. Ular leksik-frazeologik hamda grammatik vositalarni tanlash va ishlatish jihatidan bir-biridan ozmi-ko'pmi farq qiladi. Masalan, qaror va protokol ishlarida ta'kidlov qismi bilan qaror qiluv qismlarining o'rnini almashtirib bo'lmaydi. Bayon qilingan fikrlarning izchillik bilan uzviy bog'langan bo'lishiga alohida e'tibor qilinadi.

Idoraviy yozishmalarga oid qog'ozlar, chunonchi, spravka, tilxat, chaqiriq xati, tushuntirish xati, taklifnomalar qisqa va aniqligi bilan ajralib turadi. Tildagi muayyan nutqiy shtamplar, qat'iy odat tusiga kirib qolgan formalar idoraviy yozishmalarga xos xususiyatlar sanaladi. Bu holat idoraviy ish qog'ozlarining vazifasi va xarakteridan kelib chiqadi. Nutqiy shtamplar matnga rasmiylik ottenkasini kiritadi. Rasmiy e'lon va xabarlar ham qisqa va sodda, ravon va tezda anglashilarli bo'lishni talab qiladi. Lekin ifodalanish jihatidan juda murakkab bo'lgan yuridik qonun va hujjatlarni ba'zan bir necha bor o'qishda tushunib olinadi. Zaruriyat bo'lsa, bir necha bor takror-takror o'qiladi, hatto huquq masalalari bo'yicha maslahat beruvchi mutaxassislariga — yurist-konsultantlarga ham murojaat qilinadi.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Gaplarni o'qing. Ma'nosi o'zgargan so'zni ko'chirib yozing, ma'no farqlari va uslubiy vazifasini ko'rsating.

1. Mollarning narxi pasaysa, ishlab chiqarish pasayadi. — Samadboy shu qishloq odamlarining mollarini boqib yuribdi. 2. Fuqaro o'z ixtiyoriga ko'ra qonun doirasida o'ziga ma'qul ish

bilan shug'ullanadi. — Ikkita doira chizing, ularning ichiga zid ma'noli so'zlarni yozib chiqing. 3. Eshitgan quloq nima deydi? — Quloq pardalari ehtiyotli muolajani talab etadi. 4. Yurak faoliyati insonning asab tizimiga bevosita bog'liqdir. — Yuragimga yaqin kishilar bilan ochiq gaplashib oldim. 5. Ma'lum bo'ldiki, yangi dastgohlar korxona hisob-kitobida qayd etilmagan. — Ular qachonlardir o'z «ega»sini topib ketganini xodimlar yaxshi bilishadi.

2-topshiriq. Matnni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning ma'nosini izohlang.

O'zbekiston yer islohoti tizimida yer mulkchiligiga amal qilish iqtisodiy mexanizmining asosiy maqsadi — yerda turli xil xo'jalik yuritish shakllarining teng huquqli rivojlanishi, ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, yerdan samarali va oqilona foydalanish hamda uni muhofaza etish uchun shart-sharoitlar yaratish manfaatlari yo'lida yerni qayta taqsimlashdan iborat bo'lmog'i kerak. Bunday maqsadga erishish, albatta, oson emas va u yer islohotining prinsidial masalalarini aniqlab olishni taqozo etadi.

Birinchidan, yer resurslariga egalik qilish, tasarruf etish va foydalanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash va asoslash lozim. Ayniqsa, yerdan foydalanuvchilarning manfaatlari va mas'uliyatlarini uyg'unlashtirish, ularni amalga oshirishning samarali mexanizmlarini topish va amaliyotga tatbiq qilish muhim vazifa hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi vaqtda tub yer islohotini o'tkazish uchun davlatning yerga bo'lgan mutlaq mulkiy huquqi ta'minlangan holda yer resurslaridan foydalanish,

egalik qilish va tasarruf etish bo'yicha iqtisodiy vazifalarni kuchaytirish nihoyatda zarur bo'lmoqda.

«O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi» jurnalidan.

3-topshiriq.

1. "Qonunlarni o'rganish va ularga rioya qilish" mavzusida matn tuzing.
2. O'zbekistan fuqarolarining huquqlari va burchlari to'g'risida taqdimot tayyorlang.
3. Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lug'atini tuzing.

YIGIRMA BIRINCHI DARS

MAVZU: O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM

Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Matnni kengaytirib so'zlab berish.

Yozma nutq: O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari haqida ma'lumot tayyorlash, Oliy ta'lim muammolariga bag'ishlangan ilmiy maqola yozish. Oliy ta'lim terminlari lug'atini tuzish. O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida ifodalash.

Grammatika: Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar haqida bilimga ega bo'lish.

1. Quyidagi so'z va birikmalarni o'rganing.

milliy dastur	mutaxassis
kadrlar tayyorlash	davlat namunasidagi diplom
oliy o'quv yurti	kasbiy faoliyat
o'rta maxsus ta'lim	ma'naviy-ma'rifiy
kasb-hunar ta'limi	ilmiy kengash
institutga kirish	asosiy bo'g'in
bitiruv malakaviy ish	o'qitish ishlari
akademik daraja	o'quv mashg'ulotlari

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Oliy o'quv yurtiga o'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejini tugatgan har bir o'g'il qiz oqishga xujjat topshirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasida oliy o'quv yurtlariga o'qishga qabul qilish imtihoni test tizimi shaklida amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida o'qish ikki bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich bakalavriat bo'lib, u to'rt yillik ta'limni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich magistratura bo'lib, u ikki yillik ta'limdan iborat.

Mamlakatimiz oliy o'quv yurtlariga universitetlar, institutlar, konservatoriya, akademiya, harbiy o'quv yurtlari kiradi.

Oliy o'quv yurtlarini rektor boshqaradi. O'quv, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni rektorning o'rinbosarlari hisoblangan prorektorlar nazorat qiladi. Rektor oliy o'quv yurtining kengashini tuzadi. U Ilmiy kengash deb ataladi va o'quv yurtining barcha masalalarini ko'rib chiqadi, hamda tasdiqlaydi.

Oliy o'quv yurti o'z navbatida fakultetlarga, bo'lim va kafedralarga bo'linadi. Kafedra oliy o'quv yurtining asosiy bo'g'ini bo'lib, bunda ma'lum sohalarga oid fan professor-o'qituvchilari birlashgan bo'ladi.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitish ishlarini kafedra mudirlari, professorlar, dotsentlar, katta o'qituvchilar va assistent-o'qituvchilar olib boradi. Oliy o'quv yurtlarining asosiy o'quv mashg'ulotlari ma'ruzalar, seminarlar, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar, o'quv amaliyoti, ishlab chiqarish amaliyotidan iborat bo'ladi.

O'qish davrida talabalar bir qancha kurs ishlari yozadilar. Ular o'qishni tugatish davrida bitiruv malakaviy ishini bajaradilar va uni Davlat attestatsiya komissiyasi oldida himoya qiladilar hamda imtihon topshiradilar. So'ng ular oliy o'quv yurtini tugatganligi to'g'risida bakalavrluk diplomini oladilar.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn mazmunidan kelib chiqib, unga sarlavha qo'ying.
2. «Oliy o'quv yurti» mavzusiga oid so'zlarning mavzuviy guruhini tuzing.

3. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu savollar asosida savol-javob o'tkazing.
4. Matnda berilgan so'zlardan foydalanib, o'qingiz, o'qiydigan oliy o'quv yurti haqida so'zlab bering

4. Quyidaki nazariy ma'lumotlarni organing.

Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar

Leksema nutq uslubiga munosabatiga ko'ra uslubiy betaraf va uslubiy xoslangan turlarga ajraladi.

Uslubiy betaraf leksika. Uslubiy betaraf leksema barcha uslublarda birdek va bab-baravar ishlatilaveradi va uning ifoda semalarida uslubga munosabat «uslubiy betaraf» deb beriladi: kel, bor, o't, ket, kitob, qalam, stol, mashina, oq, qora, tez, sovuq, faqat, lekin va h. Lekin nutqda ko'chma ma'noda ishlatilganda, bu ma'nosi bilan ayrim uslubga xoslanib qoladi. Masalan, *sovuq* leksemasi «xunuk» ma'nosida (sovuq rangli) faqat so'zlashuv yoki badiiy uslubga xos.

Uslubiy xoslangan leksika. Uslubiy xoslangan leksikani uchga bo'lish mumkin: a) kitobiy leksika; b) badiiy leksika; v) so'zlashuv leksikasi.

Ilmiy, rasmiy va publitsistik leksikaga mansub birliklar umumlashtirilib, kitobiy leksika deb yuritiladi:

- ilmiy leksikaga oid birlik: integral, meridian, tangens, olmosh, bo'lish, ko'paytirish;
- rasmiy leksikaga oid birlik: bayonnoma, buyruq, farmon, qo'mita, sessiya, tashkilot;
- publitsistik leksikaga oid birlik: jangovar, mafkura, ilg'or, ittifoq, jahon, afkor.

Bunday leksemaning uslubga xoslikni ko'rsatuvchi ifoda semasi «ilmiy nutqqa xos», «rasmiy nutqqa xos», «publitsistik nutqqa xos» deb belgilanadi.

Badiiy leksikaga ifoda semalari sirasida «badiiy nutqqa xos» semasi mavjud, badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan leksik birliklar kiradi: Mehnat bilan topadi iqbol (Yo.Mirz.). Uning odobida, uning xulqida, insoniy kamolot mavjud, barqaror (Uyg'). Tabiatan serzavq va har narsaga qiziquvchi bo'lgan Sodiq uchun har hunar zavq baxsh etar, ko'nglini ko'tarar, sog'lig'ini saqlardi (Shuhr.). Kundan kunga

yashnamoqda ko'ring, jamoling. (G'ayr.) Bahorning fikri bulut bosgan osmonday qorong'ilashdi-yu, ko'z oldini tuman chulg'adi (Sh.Rash.). Yaxshi qoling, sevgan yurt-u diyorim (Hamz.).

Badiiy nutqda ilmiy, rasmiy, publitsistik va so'zlashuv uslubiga xos birlik ham bimalol ishlatilaveradi.

So'zlashuv leksikasiga oddiy so'zlashuv nutqiga xos, erkin muomalada qo'llaniladigan, adabiy til uchun me'yor bo'lmagan leksema kiradi: ketvorgan, po'rim, qitday, mullajiring kabi. Misollar: O'ylab ko'rsam, sarkotib odamga shundan bop sovg'a yo'q ekan. Ruchkaning poshshaxoni, perosi oltindan (N.Saf.).

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Quyidagi matnni tarjima qiling va uni nomlang.

В субботу у нас в гостях был Анвар. Он учиться в Америке. Когда Анвар пришёл к нам, мы попросили его рассказать о том, как он изучал английский язык.

- Я считаю, что кто хочет изучить язык должен заниматься регулярно. Это самое главное, когда вы изучаете язык. Когда я изучал английский язык, я всегда выполнял домашнее задание во время и исправлял все свои ошибки. Сначала я повторял материал, который мы изучали на занятиях. Потом я читал текст и писал упражнение. А вечером я смотрел телевизор и записывал слова, которые я не понимал. На следующий день я спрашивал преподавателя, что значит эти слова. Я часто смотрел фильмы, потому что фильмы помогают узнавать уже знакомые слова и запоминать новые. А также, ежедневно покупал новые газеты и следил за новостями дня. Помогли друзья правильно и красиво говорит.

2-topshiriq. Quyidagi so'z va iboralarni o'rganing.

Men Sizni u qadar tushuna olmayapman. Я Вас не совсем понимаю.

Marhamat, sekinroq qattiqroq... gapiring. Говорите, пожалуйста. . . .
помедленнее, по тише...погромче.

Itimos, yana bir marta takrorlang. Повторите, пожалуйста, ещё раз.

Bu soʻz nimani anglatadi? - Что означает это слово?

Buning oʻzbekcha nomi nima? - Как называется это по-узбекски?

Bu soʻz qanday yoziladi? - Как пишется это слово?

Marhamat, buni oʻzbek tilida yozing. - Напишите. пожалуйста, Это слово по-узбекски.

Bu soʻzning toʻgʻri talaffuzi qanday boʻladi? - Как правильно произносить это слово?

Itimos, bu yerda nima yozilganini tushuntirib bering. -

Объясните, пожалуйста, что здесь написано.

3-topshiriq. Yozma nutqni rivojlantirishga tegishli quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Oʻzbekistondagi oliy taʼlim muassasalari haqida yozma maʼlumot tayyorlang.
2. Oliy taʼlim muammolariga bagʻishlangan ilmiy maqola yozing.
3. Oliy taʼlim terminlari lugʻatini tuzing.
4. Oʻzbekistondagi oliy taʼlim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida ifodalang.

YIGIRMA IKKINCHI DARS

MAVZU: ILM MASKANIMIZ HAYOTIDAN

So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Sevaga xos so'zlar

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi nom va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni o'zgartirib so'zlab berish.

Yozma nutq: Ilm maskani haqida taqdimot tayyorlash. Universitet (institut)da o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan reportaj tayyorlash. Ilm maskaniga tarixi haqida bog'lanishli matn tuzish.

Grammatika: So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so'zlar.

1. Yangi so'z va iboralar bilan tanishing.

o'ziga xos iqtidor	chuqurlashtirib o'qitmoq
ro'yobga chiqarish va kashf etish	birinchi qaldirg'och
orzu qilgan maqsadlar	astoydil harakat qilmoq
tabaqalashtirib o'qitish	ilm-fan taraqqiyoti
tadbiq etmoq	ko'p qiyinchiliklar evaziga
g'oliblikni qo'lga kiritmoq	ishonchi yanada orta boshlamoq
aniq fanlar sohasida	chegara bilmaslik
yetishib chiqmoq	sarhadlarni egallash

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Men Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida ta'lim olaman. Ilm maskanimiz shaharning markaziy qismida joylashgan. Institutimizning o'ziga xos tashkil topish va rivojlanish tarixi bor. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 28-fevraldagi qarori bilan 1975-yildan faoliyat ko'rsatib kelgan Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti Qarshi filiali negizida Qarshi agrar-iqtisodiyot instituti, 1995-yil 3-iyun qarori bilan

Qarshi agrar-iqtisodiyot instituti va Toshkent Davlat texnika universiteti Qarshi filiali negizida Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tashkil etilgan.

Ayni paytda institutda 6 ta fakultet faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular Iqtisodiyot, Texnologiya, Neft va gaz, Energetika, Muhandis-texnika, Geologiya va konchilik fakultetlaridan iborat. Shuningdek, fundamental va ijtimoiy-gumanitar fanlarni kafedralarini birlashtirgan fakultet ham mavjud. Umuman olganda ta'lim maskanimizda 24 ta kafedra faoliyat ko'rsatadi, shundan 19 tasi mutaxassis chiqaruvchi kafedralar bo'lsa, 5 tasi mutaxassis chiqarmaydigan yordamchi kafedralar hisoblanadi. Bizning institutda xalq ho'jaligining turli sohalari, jumladan, iqtisodiyot, energetika, kimyo, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi, neft-gaz, geologiya va razvetka, muhandis-texnika sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Ilm maskanimizda «Axborot texnologiyalari» markazi, «Iqtidorli talabalar» markazi, 1 ta akademik-litsey faoliyat ko'rsatmoqda. 30 ta ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlar, 10dan ortiq mutaxassisliklar bo'yicha magistrilar tayyorlanmoqda.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matnni mazmunidan kelib chiqib, uni nomlang.
2. Matnda berilgan mazmunga xos so'zlarni izohlang.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing.
4. Matnning asosiy g'oyasini izohlang.

4. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

- Камола, что такое конституция?
- Это основной закон государства. Произошло это слово от латинского «устройство».
- А что значит основной закон?
- Он определяет общественное и государственное устройство, порядок и принципы образования представительных органов власти, избирательную

систему, права и обязанности граждан. Конституция – основа всего законодательства государства.

- Какие права гарантирует Конституция Республики Узбекистан?

- Права на труд, на отдых, на охрану здоровья, на материальное обеспечение в старости и в случае болезни, право на собственность, на жилище, на образование, на участие управления государственными, общественными делами. Гарантируются свобода печати, слова, собраний.

- А какие обязанности имеет каждый гражданин республики?

- Во-первых, он обязан соблюдать Конституции Республики Узбекистан. Во-вторых, добросовестно трудиться, оберегать интересы своей страны.

- Спасибо Камола. Как я понимаю, права и обязанности каждого гражданина нашей республики неотделимы друг от друга.

5. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Sevaga xos so'zlar

So'zlashuv uslubi. Hozirgi o'zbek tilining so'zlashuv uslubi ikki asosiy turga ajratiladi: adabiy so'zlashuv uslubi va oddiy so'zlashuv uslubi.

Adabiy so'zlashuv uslubi tilning adabiy normalariga mos, tartibga solingan va ishlangan bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ifoda tili sodda: jargon va sheva elementlaridan xolidir. Adabiy so'zlashuv uslubi o'z adabiy tilini bilgan kishilar uchun tanish va ma'lum bo'lgan asosiy uslub hisoblanadi. Tilning adabiy so'zlashuv stili kundalik aloqa-aralashuv uchun xizmat qiladi: maktablarda va o'quv yurtlarida o'qitish ishlari shu stilda olib boriladi, undan badiiy adabiyotda juda keng foydalaniladi. Qisqasi, adabiy so'zlashuv uslubi umumxalq adabiy tilining eng keng va universal turidir.

Oddiy so'zlashuv uslubi uchun esa betakalluflik bilan erkin muomala — aloqa qilish xarakterli xususiyatdir. Unda so'zlashuv nutqiga xos emotsionallik yaqqol sezilib turadi. Bu hol, ayniqsa, uning sintaktik qurilishida, lug'at boyligidan so'z tanlashida yaqqol ko'rinadi. Oddiy so'zlashuv uslubi tarkibiga sodda tilga xos

elementlarni, ya'ni u yoki bu darajada tilning adabiy normalariga mos kelmaydigan fonetik, grammatik va leksik-frazeologik hodisalarni kiritish mumkin.

6. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Quyidagi maqollarni rus tiliga tarjima qiling. Ularda qo'llangan sifatlarning ma'nosi va vazifasini izohlang.

1. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g'am keltirar. 2. Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar. 3. Kelining yaxshi bo'lsa, o'g'lingdan ko'r; o'g'ling yomon bo'lsa, keliningdan ko'r. 4. Aqlli odam qish g'aminini yozda yeydi. 5. Yaxshini maqtasang yarashur, yomonni maqtagan adashur. 6. Farzandsiz kishi – mevasiz daraxt. 7. Qizli uy – bo'ston, qizsiz uy – go'riston. 8. Qo'ng'iz bolasini oppog'im der, kirpi bolasini yumshog'im der. 9. Kengashganga – keng dunyo, talashganga- tor dunyo. 10. Yog'och kessang, uzun kes, kessa bo'lar; temir kessang, qisqa kes, cho'zsa bo'lar. 11. Qorinni to'yg'azish oson, ko'zni to'yg'azish qiyin. 12. To'qayga o't tushsa, ho'l-quruq baravar yonar.

2- topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Bir bosh bo'lakli gap turini aniqlang.

1. Hirot. Husayn Boyqaro saroyi. Hamma motamda. 2. Vaqtni to'xtatib bo'lmaydi. 3. Erta eksang, erta o'rasan. 4. Sharqda keksalarni donishmandlarga tenglashtirishadi. 5. Ertaga barvaqtroq kelaman.

3-topshiriq. Quyidagi matnni rus tiliga tarjima qiling.

SUHBAT

Siz sport bilan shug'ullanasizmi?

Ha, shug'ullanaman.

Sportning qaysi turlari bilan shug'ullanasiz?

Qishda chang'ida, tennis o'ynashni yaxshi ko'raman. Yil davomida esa cho'milaman.

Bularning hammasiga vaqtingiz yetadimi?

Bo'sh vaqtim oz bo'lganligi uchun basseynga haftada ikki marta erta bilan, chang'ida uchishga esa faqat yakshanba kunlari boraman.

Chang'ida uchish uchun qayerga borasiz?

Biz oilamiz bilan Chimyonga chiqamiz.

Siz sport bilan ko'pdan beri shug'ullanasizmi?:

Ha, yoshligimdan beri shug'ullanaman.

4-topshiriq. Yozma nutqni rivojlantirishga tegishli quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. O'zingiz ta'lim olayotgan ilm maskani haqida taqdimot tayyorlang.
2. Universitet (institut)da o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan reportaj tayyorlang.
3. Ilm maskaningiz tarixi haqida bog'lanishli matn tuzing.

YIGIRMA UCHINCHI DARS

MAVZU: BO'LAJAK KASBIM

Matn va uning ko'rinishlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash.

Yozma nutq: Kasb tanlovi to'g'risida esse yozish. Kasb-hunar mavzusida o'zbek maqollaridan namunalar yozish. Mutaxassislikka oid terminlar lug'atini shakllantirish.

Grammatika: Matn va uning ko'rinishlari haqida bilimga ega bo'lish.

1. Quyidagi so'z va iboralarni o'rganing.

puxta bilim	ma'naviyatini yuksaltirish
yo'limizni yoritib turadi	ustuvor o'rin tutmoq

kamolot sari yetaklaydi	jamoat tashkiloti
Prezidentimiz rahnamoligida	yoshlar ijtimoiy harakati
yoshlarga qanot bag'ishlamoq	iqtidorli talabalar
huquq va manfaatlarini ta'minlash	ta'lim grantlari dasturlari
ijodiy salohiyat	mas'uliyat va daxldorlik tuyg'usi

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: «Hayotda Siz uchun eng sevimli bo'lgan kasbni tanlab va Siz bir umr ishga bormaysiz». Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlayotgan bo'lsa u hech qachon har ertalab o'zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O'zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.

Bugun dunyo bo'ylab qanchadan-qancha kishi zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobillarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutib, tushlik vaqtining tezroq kelishi umidida soatga ma'yus termulib o'tirishadi. Bu toifadagi kishilar o'zlari yoqtirgan kasbni tanlashmagan. Ya'ni, ular o'zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug'ullanuvchi kishilardir.

Ba'zilar «Kishi bajarayotgan ishidan katta daromad olsa bo'ldi-da, kasb kishiga katta pul keltirsa bo'lgani, uning qilayotgan ishi o'ziga yoqishi ikkinchi darajali», deb hisoblashadi. Ammo hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o'z bajarayotgan faoliyati orqali katta daromadga erisha olmaydi. Balki biror kishi shug'ullanayotgan kasb katta foyda keltiradigan ishdir, balki kimlardir shu kasb ortidan katta daromadga erishayotgandir, ammo bu kasbning egasida o'z ishiga nisbatan qiziqish va zavqlanish bo'lmasa, u hech qachon o'z kasbidan barakat topa olmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda bugun haqiqiy hayotda kasbidan zavqlana olganlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini, o'z kasbini yomon ko'rganlarning esa kunni zerikarli bekorchilik bilan o'tkazishayotganligini

ko'rishimiz mumkin. Bunday sharoitda o'z kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy poyafzal ta'mirlovchisi bugungi kunda milliardlab foyda ko'rish mumkin bo'lgan ilg'or tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi, ammo o'z kasbini yomon ko'radigan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan kishidan ancha ko'proq foyda ko'rishi mumkin.

Unutmang, Siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz Sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi!

3. Matn asosida quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn mazmunidan kelib chiqqan holda uni nomlang.
2. Matnning mazmunini o'z so'zingiz bilan bayon qiling.
3. Matn yuzasidan o'zaro savol –javob o'tkazing.
4. Oxirgi yillarda O'zbekistonda yoshlar hayoti bilan bog'liq muhim voqealar haqida so'zlab bering.

4. Quyidagi kasb-hunar haqidagi maqollarni tarjima qiling va o'rganing.

Aql ko'pga yetkazar, hunar — ko'kka.
O'rganish — bir hunar, o'rgatish — ikki hunar.
Qunt bilan o'rgan hunar, hunardan rizqing unar.
Har kasbning o'z gashti bor.
Hunar bo'lsa qo'lingda, non topilar yo'lingda.
Hunarlining hunari murodiga yetkazar.
Hunarsizning yurari qaro yerga yetkazar.

5. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Matn va uning ko'rinishlari

Matn – nutq ko'rinishi bo'lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo'lib, u og'zaki hamda

yozma ijod namunasi hisoblanadi. Matn soʻz birikmasi va gapdan farqlanadi, chunki matnning ham oʻz kategoriyasi va qonuniyatlari mavjud. Matn soʻzining lugʻaviy maʼnosida birikish, bogʻlanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi oʻzaro qaysidir bogʻlovchilar yordamida birikishni oʻrganish “Matn tilshunosligi” sohasining asosiy muammolaridan biridir.

Matn hajm va mazmun belgisiga koʻra ikkiga boʻlinadi: 1. Hajm belgisiga koʻra matn turlari. 2. Ifoda maqsadi va mazmun belgisiga koʻra matn turlari.

1. Hajm belgisiga koʻra matn turlari. Matn gapdan koʻra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan yozma nutq koʻrinishidir. Matn hajm belgisiga koʻra ikkiga ajratiladi. Minimal matn (mikromatn) va maksimal matn (makromatn).

Badiiy uslubda minimal matn deyilganda biror mavzuni yoritishga bagʻishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, sheʼr va sheʼriy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi.

Maksimal matn deyilganda keng koʻlamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Maksimal matn mikromatnlardan iborat. Eng kichik butunlik abzatsga, eng katta butunlik esa bob (qism yoki fasl)larga toʻgʻri keladi. Bunday matn tarkibida epigraf, soʻzboshi (muqaddima), soʻngsoʻz (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin.

2.Ifoda maqsadiga va mazmuniga koʻra badiiy matnni quyidagi turlarga boʻlib chiqish mumkin: 1. Hikoya mazmunli matn. 2. Tasviriy matn. 3.Izoh mazmunli matn. 4. Didaktik matn. 5. Xabar mazmunli matn. 6. Buyruq mazmunli matn. 7. Hissiy ifoda mazmunli matn.

6. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Matnning tushirib qoldirilgan o‘rinlarini o‘z so‘zlaringiz bilan to‘ldiring. O‘z fikringizni matnning asosiy mazmuniga bog‘lovchi vositalarni ajratib ko‘rsating.

Hayot go‘zal, yashash maroqli. Biroq inson uchun.... Shu bois bo‘lsa kerak, inson borki, hamma vaqt imkon qadar bu dunyoning go‘zalliklaridan ko‘proq bahra olishga, u ... intilib yashaydi. Bu istak esa ba’zida odamzodga baxt keltirsa, Insoniyatning eng zaif tomoni ham shunda, menimcha U amal qilayotgan ko‘plab zararli odatlarning oxir-oqibatini bilsa-da, Bugun yoshlar orasida ommalashib borayotgan chekish odati ham ayni yuqoridagi fikrimizga dalil. E’tibor bergan bo‘lsangiz, yoshlarimiz ruju qo‘yayotgan sigareta tutunlari ... singari tobora farzandlarimizning katta qatlamini o‘z iskanjasiga olmoqda. Yurtimizda ... e’tibor berilayotgan bir paytda kelajagimiz vorislari bo‘lgan o‘g‘il-qizlarimizning bu qadar o‘zlarini zaharlashlariga nima sabab bo‘lmoqda? Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatga ruju qo‘yishlarida, avvalo ... bosh omil bo‘lib xizmat qiladi.

2-topshiriq. Matn bilan tanishing. Matndan foydalanib o‘zingizning biznes rejangiz matnini tuzing.

BIZNES-REJA QANDAY ISHLANADI?

O‘z (shaxsiy) ishingizni boshlamoqchi bo‘lsangiz, albatta biznes-reja tuzishingiz kerak. Mazkur jarayonni yengillashtirish uchun quyidagi besh bosqichda ish tutishni tavsiya etamiz:

1. Maqsadingizni aniqlang. Birinchi bosqichda kim uchun ma’lumot tayyorlashingiz kerak, kompaniyangiz haqida ular nimani bilishi kerakligini tushunib oling. Kompaniya faoliyatining qaysi tomonlarini bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadga muvofiq, qaysilari haqida kamroq gapirish, qaysilari to‘g‘risida esa umuman gapirmaslik zarurligini belgilang.

2. Biznes-rejaning taxminiy mundarijasini tuzing. Maxsus talablarni hisobga olgan holda tuzilgan mundarija oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin. Biroq mundarija qanchalik batafsil yozilsa, biznes-rejani tayyorlash shuncha oson kechadi.

3. Keyingi bosqichda mundarijani diqqat bilan tekshirib chiqish kerak. Kelgusida biznes-rejangizni o'qiydigan odamlarning fikrini va o'z maqsadingizni e'tiborga olib, ahamiyatli deb hisoblangan ma'lumotlarni kengaytirish, juz'iy tomonlarni ilovada berish mumkin.

3-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. Kasb tanlovi to'g'risida esse yozing.
2. Kasb-hunar mavzusida o'zbek maqollaridan namunalar yozing.
3. Mutaxassislikka oid terminlar lug'atini shakllantiring.

YIGIRMA TO'RTINCHI DARS

MAVZU: HAYOT MENING TASAVVURIMDA

Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Hayotga munosabat va qiziqishlar haqida gapirib berish. Inson barkamollikka erishishi uchun nimalar qilishi kerakligi haqida fikr bildirish. Hayotdagi idealini tasvirlab berish. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: "Hayot mening tasavvurimda" mavzusida esse yozish. Hayotdagi maqsadlar va orzular haqida dialogik matn tuzish va uni insseniroyka qilish.

Grammatika: Dialogik matn va uning ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqida bilimga ega bo'lish.

1. Quyidagi soʻz va soʻz birikmalarni oʻrganing.

inson qiyofasi	muomala vositasi
insonning jamiyatdagi oʻrni	nutqiy faoliyat
his – tuygʻu	nutq madaniyati
tafakkur qilmoq	yozma shakl
mushohada etmoq	ogʻzaki shakl

2. Quyidagi matnni oʻqing va oʻrganing.

Har bir inson bolaligidan boshlab hayotni oʻzicha tasavvur qila boradi. Dastlab, hayotni oʻz oilasi muhitida anglaydi. Axir, oila muhiti har bir insonning hayotidagi eng muhim va unitilmas narsadir. Har bir oilada ota va onaning oʻrni va ahamiyati muhim hisoblanadi. Bola oʻz hayotini ota va ona munosabatlari doirasida anglaydi hamda oʻrganadi. Har bir inson ulgʻayib, kamolga yetgan sayin, shu tasavvur doirasida kelajak orzularini qura boshlaydi.

Bola hayotni anglay boshlar ekan, mening kelajakdagi hayotim qanday boʻlishi kerak, degan savolni oʻz oldiga qoʻyadi. Albatta, u kelajakda yaxshi taʼlim olishni, oʻzi sevgan kasb boʻyicha yaxshi mutaxassis boʻlib yetishishni, oʻzi yoqtirgan kishi bilan turmush qurib, farzandli boʻlishni orzu qiladi.

Men kelajagim yaxshi boʻlishini tasavvur qilaman. Men ulgʻayaman, oʻrganaman, ajoyib kasbga ega boʻlaman. Hayotda nima qilishimni allaqachon aniqlab qoʻyganman - men dasturchi va veb-dizayner boʻlmoqchiman. Menga bu kasb juda yoqadi. Men endi koʻp narsani qila olaman va kelajakda men uchun foydali boʻladigan koʻnikmalarni doimiy ravishda egallab boraman. Shuning uchun men ajoyib mutaxassis boʻlishimga ishonaman. Bu degani men yaxshi ish topaman va oilam hech narsaga muhtoj boʻlmaydi.

Men kelajakda oʻz kasbim orqali nafaqat jamiyatga foyda keltirish va yaxshi maosh olish, balki hayotimni qiziqarli boʻlishi uchun ham hamma narsani qilaman. Ishonchim komilki, inson qilgan ishini yoqtirmasa, baxtli boʻlmaydi. Men uchun ideal kelajak – orzularimning ushalishidir.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga sarlavha tanlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing va savol-javob uyushtiring.
3. Matnning asosiy g'oyasini aytib bering.
4. Quyidagi so'zlarning izohini aytib bering: tafakkur, mushohida, hayotiylik, hohish-istak, , nutq madaniyati.
5. «Hayot mening tasavvurimda» mavzusida so'z va so'z birikmalarining ma'noviy guruhlarini tuzing.

4. Hayot haqidagi quyidagi hikmatli so'zlarni o'rganing.

Hayot — oliy darajadagi progressiv faoliyatdir va uning taraqqiyotga yo'l ochajak bosh harakatlantiruvchi prujinalari ezgulikka intiluvchi insonlar, ya'ni naslimizning sog'lom hamda normal vakillarining tafakkuri va orzu-istaklariga ulangandir.

D. I. Pisarev

Inson jamiyat va davlatning ko'lamli manfaatlari uchun qanchalik foyda keltirsa, u shu qadar barkamoldir.

D. I. Mendeleyev

Jamiyatning keng manfaatlari va vazifalariga xizmat qilishga bag'ishlanmagan umrni umr demasa ham bo'ladi.

N. S. Leskog

Quloqdan dilingga gar kirmasa nur,
Sichqon kavagidan ne farqi bo'lur.

A. Jomiy

Doimiy tashvish, mehnat, kurash, yo'qchilik — bu zaruriy shart-sharoitlardir, hech kimsa bular haqida o'ylashdan o'zini bir daqiqa ham chetga olmasligi kerak... Halol yashamoq uchun intilmoq, adashmoq, urinmoq, yanglishmoq, nimanidir boshlamoq va tashlab qo'ymoq va yana boshlab, yana tashlab qo'ymoq, doimo

kurashmoq va yo'qchilikka chidamoq kerak. Xotirjamlik ruhiy pastkashlikdir.

L. N. Tolstoy

Inson hayotining ma'nosi tinib-tinchimaslik va doimiy tashvishdan iboratligini tushungan odam kaltafahmlikdan qutulgan bo'ladi.

A. Blok

Kishi o'ziga qanchalik kam talab qilib, odamlarga shunchalik ko'proq foyda yetkazsa, uning yaxshiligi shu qadar ulug'dir; boshqalarga qanchalik kam foyda yetkaza turib, o'ziga ko'pni talab qilsa, yomonligi ham shu qadar ortiqdir.

L. N. Tolstoy

5. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Dialogik matnning ma'no munosabatiga ko'ra turlari

Dialog grek tilidan olingan bo'lib (dio – ikki, logos – so'z, nutq). Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarda bo'lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani ifodalaydi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rtaga tashlangan savol, taklif, da'vat biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

So'zlovchi va tinglovchi nutqlari replika deyiladi. Replika birinchi shaxs tomonidan suhbatga tortish, chorlash yoki murojaat replikasi. II shaxs tomonidan esa javob replikasi xarakteriga ega bo'ladi. 1 – replika so'rog'i, 2 - replika yuzaga kelishining asosiy omili sanaladi. Replikalar chegarasi birinchi replikaning tugallanish, ikkinchi replikaning boshlanish nuqtalari bilan belgilanadi.

Dialogda javob replikasining mazmuni, xakteri murojaat replikasida qaysi so'zga mantiqiy urg'u tushganligiga bog'liq bo'ladi. Mantiqiy urg'u gapdagi fikriy jihatdan ahamiyatli bo'lgan so'zning kuchli talaffuz qilinishidir. Bunda so'zlovchi gap ichidagi ba'zi so'zlarning ma'nosini yanada ta'kidlab, kuchaytirib ko'rsatish uchun uni boshqa so'zlarga nisbatdan kuchliroq ohang bilan talaffuz etadi.

Nutqda mantiqiy urg`yu tushgan so`z ovozni balandlatish, pastlatish, pauza qilish kabi vositalar bilan ajratib aytilgani uchun tinglovchining diqatini tez tortadi.

Replikada diologik matnda to`liq yoki to`liqsiz gap shakllarida uchraydi. Diologlarda intinatsiya muhim ahamiyatga ega. So`zlovchining o`z hisiyotini ifodalashi uchun ovoz tonini o`zgartirishi, mua`yan istak, niyat harakat natijasida yuzaga keluvchi ovoz tovlanishlari intonatsiyadir. Uning yordamida turli ma`nolar ifodalanadi.

6. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Dialogda ajratib ko`rsatilgan so`zlarning uslubiy ma`no va vazifalarini aniqlang. Gaplarni tuzilishiga ko`ra guruhlab yozing.

— Siz... qochqoqsiz, — dedi.

— Siz...

— Men?

— Siz quvloqsiz.

— Ajab qilaman, — dedi Kumush va shapalog`i bilan erining yuziga sekingina urib qo`ydi.

— Bu yoqqa ham...

— U yoqqa Zaynab ursin.

— Zaynabning... urishga haqqi yo`q.

Kumushning ko`zida haligacha ko`rilmagan bir shodlik o`ynadi:

— To`g`ri aytasizmi?

— To`g`ri aytaman!

— Mana bo`lmasa, — dedi Kumush. Otabekning ikkinchi yuzini ham silagandek qilib qo`ydi. Yana kulimsirashib, termulishib qoldilar...

— Biravning g`amida kuyib qaridim, — dedi Kumush.

— Bekor aytasiz... Meni aytsangiz to`g`ri.

— Siznimi? — dedi Kumush.

2- topshiriq. Matnni o'qib, dialogdan qanday farqlanishini ayting. Sifatlovchilarning ma'no va vazifasini izohlang.

... Ta'birimiz qo'pol tushmasa bu go'zal qiz och ra'no gulining tusida yoki oq sariq tusda yaratilg'an edi. A'zoda o'skan tuklarga ham haligi tusning ta'siri bo'ladi. Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham quyoshda bir oz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi. Shunga o'xshash Ra'noning ko'zida ham buning asari ko'ruladi: mudavvarga moyilroq jodu ko'zi kishiga qattiq qaraganda qoraliqdan boshqacha yana bir turluk nur sochar erdi. Kiċraklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi.

3-topshiriq. Matn namunalarini o'qing va bir-biriga qiyoslang. So'zlar va ularning ma'nolaridagi farqlarni izohlang.

1. Texnika – yunoncha so'z bo'lib, san'at, mahorat degan ma'noni bildiradi. Texnika – inson faoliyati vositalari majmui. Ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish va jamiyatning turmush talablarini qondirishga xizmat qiladi. Ba'zan biror faoliyatdagi mahorat va usullar ham texnika deb ataladi. (Masalan, milliy kurash texnikasi). Ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanish jarayonida insoniyatning bilimi va ishlab chiqarish tajribasi texnikada mujassamlanadi. Texnika insonning og'ir mehnatini yengillashtiradi. 2. Shirin muomalada bo'lish har bir kishining burchidir. Odamlar bir-birlarining qalbiga yaxshi va shirin so'z orqali yo'l topadilar. Ammo inson qalbiga so'zni o'z holicha singdirib bo'lmaydi. Buning uchun o'zingizga libos tanlagan kabi so'zni ham pardozlaysiz. So'zingizga libos sifatida ohang kiydirasiz, gapingiz go'zal so'zlardan tashkil topsin. Ortiqcha har bir so'z noo'rin ichilgan dori kabi zararlidir. Har bir kishi so'zning qadrini baland tutsin, samimiy va jarangdor so'zni sog'inib yashasin.

4-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. "Hayot mening tasavvurimda" mavzusida esse yozing.
2. Hayotdagi maqsadlar va orzular haqida dialogik matn tuzing.
3. "Hayot mening tasavvurimda" mavzusida taqdimoy tayyorlang.

YIGIRMA BESHINCHI DARS

MAVZU: USTOZ MAKTabI

Monologik matn. Unda mazmun izchilligi va ohang

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash. Matnni ijodiy so'zlash. Ustozlarga bag'ishlangan she'r yodlash va aytish.

Yozma nutq: Kasbiy faoliyatda ustoz va shogird an'analari to'g'risida matn tuzish. Ustozlar haqida esse yozish. Ustoz haqidagi rivoyat yoki hikoyatlardan namunalar yozish.

Grammatika: Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang haqida bilimga ega bo'lish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarni o'rganing.

boks maktabi	oltin medal
jahon chempioni	hamyurtimiz
boks muxlislari	kuchli zarba
kuchli texnika	zarhal harflar
Toshkent yo'lbarsi	mag'lub etmoq
sobiq ittifoq	sport majmui

2. Quyidagi matnni o'qing va o'rganing.

O'zbek boks maktabi haqida fikr yuritganda, boks bo'yicha birinchi jahon chempioni Rufat Risqiyev faoliyatini esga olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Rufat Risqiyev 1949- yilning 2- oktabrida Toshkent shahrida dunyoga keldi. Boks bilan 14 yoshidan boshlab shug'ullandi.

Boks muxlislari Rufat Risqiyevni ringda kuchli texnikaga asoslangan jang uslubini, har ikkala qo'lida ham o'ta kuchli zarba berishga qodir bokschi sifatida qadrlashadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, muxlisu mutaxassislar Rufat Risqiyevni

"Toshkent yo`lbarisi", deb atashardi. Boks faoliyati davomida Rufat Risqiyev to`rt marotaba - 1972, 1974, 1975 va 1976- yillarda sobiq ittifoq chempionatida oltin medallarni qo`lga kiritdi. Yurtdoshimiz o`z faoliyati davomida 189 ta jang o`tkazib, shulardan 174 tasida q`olib chiqqan.

2007- yil 14 -aprel sanasi o`zbek sporti tarixiga zarhal harflar bilan bitildi. Hamyurtimiz og`ir vaznli bokschi Ruslan Chagayev professional boksning WVA yo`nalishi bo`yicha chempion hisoblangan Nikolay Valuyevni mag`lub etib, o`ta oqir vaznda jahon chempioni degan sharaflı nomni olish baxtiga erishdi. Germaniyaning Shtutgart shahridagi sport majmuida chempionlik kamarini qo`lga kiritgan vatandoshimiz Ruslan Chagayevning Yurtboshimizga yo`llagan maktubida shunday ilıq fikrlar bayon etilgan edi: "Men o`z g`alabamni O`zbekiston mustaqilligiga bag`ishlayman. qayerda bo`lishim, qaysi mamlakatda jang o`tkazishimdan qat`i nazar, men uchun O`zbekiston sporti sha`nini himoya qilishdan ko`ra muqaddasroq narsa yo`q".

Ha, chindan ham, o`zining kuch va irodasiga ishongan azmu shijoat sohibi Ruslan Chagayev erishgan betakror g`alabasi bilan yurtimiz nomini ko`klarga ko`tardi, vatandoshlarimiz qalbida faxr uyg`otdi. Ayniqsa, yoshlarning ko`zlaridagi quvonch ularning ongi shuurida jo`sh urayotgan g`oliblik tuyg`ularining ifodasi bo`ldi.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga sarlavha tanlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing va savol-javob uyushtiring.
3. Matnning asosiy g`oyasini aytib bering.
4. Quyidagi so`zlarning izohini aytib bering: boks maktabi, jahon chempioni, boks muxlislari, kuchli texnika, Toshkent yo`lbarisi.

4. Jismoniy tarbiya haqidagi quyidagi fikrlarni o`qing va tarjima qiling.

Jismoniy tarbiya, badan tarbiya — sog`liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg`un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy

qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko'rsatkichlardan biri. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg'ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya bilan qo'shib olib boriladi.

Ibtidoiy davrdan boshlab jismoniy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilgan. Dastlab u jismoniy mashqlar, turli o'yinlar, mehnat jarayonlari, ovchilik, harbiy harakatlarga o'xshatilgan musobaqalar va sinovlar shaklida mavjud bo'lgan, turli marosimlarni aks ettirgan. Keyinchalik yoshlarni qilichbozlik, chavandozlik, kamondan otish, yakkama-yakka kurash mahoratiga o'rgatish jamiyatning asosiy vazifalaridan biriga aylana borgan. Uyg'onish davrida jismoniy tarbiyaga e'tibor yanada kuchaydi. Gumanistlar jismoniy tarbiyani o'quv dasturiga kiritishga uringanlar. Jismoniy tarbiyaga o'rta asrlarda Yevropada oilaviy tarbiya va maktabdagi pedagogik jarayonning muhim qismi sifatida qarala boshlandi.

O'zbekistonda jismoniy tarbiyaga juda qadimdan salomatlikni mustahkamlashning asosiy vositasi deb qaralgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida 100 dan ziyod xalq o'yinlari to'g'risida ma'lumot berilgan. "Alpomish" o'zbek xalq qahramonlik dostoni, Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin", Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul-vaqoye" ("Nodir voqealar"), Boburning "Boburnoma" asari va b.da jismoniy, jangovar mashqlar, kuchlilik bahsmunozaralarining xilma-xil namunalaridan xikoya qilinadi.

5. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Monologik matn. Unda mazmun izchilligi va ohang

Tavsifiy (monologik) matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma'lumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Ma'lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriylar vositalar yoki dalillar bilan ta'riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsifiy matnga xos xususiyatlardandir. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyat ifodalovchi

soʻzlar, atamalar, modal soʻzlar, feʼlning funksional shakllari, ravishlar faol qoʻllanadi.

Tavsifiy matn yaratishda uyushiq boʻlaklar, ajratilgan gap boʻlaklari, atov gaplar, qoʻshma gap koʻrinishlaridan ham keng foydalaniladi. Tavsifiy matn ilmiy, publisistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir.

Alohida bir kishiga taalluqli boʻlgan nutq monologik nutq sifatida baholanadi. Bu nutq ikki xil koʻrinishga ega: ochiq nutq va ichki nutq.

Ochiq nutq jamoaga qaratilgan boʻladi va turli xarakterdagi yigʻilishlarda – qurultoylarda, sessiyalarda, ilmiy anjumanlarda, dars jarayonida, hisobot yigʻilishlarida, har xil jamoalarning majlislarida, uchrashuvlarda, bayramlarda, toʻy-tomoshalarda, tugʻilgan kunlar, doʻstlar uchrashuvi singari kichik davralarda, motam mitinglarida soʻzlanadi. Bu yigʻilishlarning mazmuni turlicha boʻlganligi sababli ularda soʻzlanadigan monologik nutq xarakteri ham bir-biridan farq qiladi. Adabiy asarda monologning ichki koʻrinishi xarakterli boʻlib, badiiyat manfaati nuqtai nazaridan ular alohida vazifa bajaradi. Shuning uchun Said Ahmad: «Yozuvchi faqat qahramonning tilidagini yozmay, uni ichidan ham gapirtira bilishi kerak. Chunki ichidan gapirtirilgandagina, qahramonning ichki olami ochiladi. Qahramonning ichki olamini, ichidagi boʻlgan ohangni, ichki dardni yozuvchi oʻz tili bilan olib chiqadi» yegan edi. Prof.B.Yoʻldoshev «Badiiy nutq stilistikasi» nomli kitobida oʻzining ana shu qarashlariga amal qilgan yozuvchi asarlari («Turnalar», «Alla», «Oʻrik domla», «Ufq»,) misolida ularning obrazni individuallashtirish va xarakter yaratishdagi vazifalari xususida mulohaza yuritib, dialogik va monologik nutq tahliliga keng toʻxtalgan va ularni badiiy nutq uslubidagi bayon usullari sifatida koʻrsatib bergan.

6. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Sheʼrni nasriy matnga aylantirib daftaringizga koʻchiring. Matn mazmunini oʻz fikr-qarashlaringiz bilan toʻldiring va xulosa yozing.

... Koʻp jahongir koʻrgan bu dunyo,

Hammasiga guvoh – yer osti.

Lekin, doʻstlar, sheʼr ahli aro

Jahongiri kam bo‘lar, rosti.
Besh asrkim, nazmiy saroyni
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig‘i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.
Dunyo bo‘ldi chamanim, manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.
Bosh ustingdan o‘tdi ko‘p zamon,
O‘tdi Budda, o‘tdi Zardushti,
Har uchragan nokas-u nodon,
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.
Seni Chingiz g‘azabga to‘lib
Yo‘qotmoqchi bo‘ldi dunyodan.
Jaloliddin samani bo‘lib
Sakrab o‘tding Amudaryodan.
Sensan o‘shal samanim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Abdulla Oripov.

2-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va undagi monologik nutqqa xos bo‘lgan xususiyatlarni qniqlang.

Darhaqiqat, yozuvchi qo‘lida ichki monolog qahramon qiyofasini o‘quvchi ko‘z oldida butun borlig‘i va murakkabligi bilan gavdalantirishga xizmat qila oladigan kuchli badiiy vosita bo‘la oladi. «Shaytanat»dagi Asadbek o‘quvchi ko‘z o‘ngida har ishga qodir bo‘lgan qudratli kishi sifatida namoyon bo‘lgan. Ammo u ham hamma qatori inson. Bedavo dard – saraton kasaliga yo‘liqqanda uning xayolidan o‘tgan kechinmalarni yozuvchi quyidagicha beradi: To‘yib-to‘yib nafas olishga tor bo‘lib o‘laman. Jonim yo‘tal bilan chiqsa o‘lganimni bilmay ham qolishadi. Birov xabar olguncha sasib yotaveraman. Jag‘imni tang‘ishadi, oyoqlarimni bog‘lashadi. Dod-voy... Kim yig‘laydi? O‘g‘illarim uzoqda. Zaynab dod solar balki... Yana bir-ikki xotin qo‘shilar., Xotinlarning yolg‘ondan bo‘lsa

ham yig‘lab turgani yaxshi. Bo‘lmasa bu uydan o‘lik chiqqanini birov bilmaydi. Xotinlarning yig‘isisiz o‘likning ham fayzi bo‘lmasa kerak. Manzura yetib kelsa, bu yog‘ini o‘zi eplashtiradi! Yo‘-o‘q... u yig‘lamaydi. Jalilning onasi o‘lgandamidi... ha, o‘shanda yig‘isini eshitib «Dodlashni ham o‘rniga qo‘yar ekansan, o‘lsam maza qilib eshitib yotaman», deb hazillashganimda «Voy adasi, xotinlar eriga yig‘lamaydi, ayb bo‘ladi», degan. Qiziq, nima uchun ayb bo‘ladi? Manzuraning yig‘lashi shart ham emas. Balki...qutulganiga shukur qilar?.. Menga tekkanidan beri boshi tashvishdan chiqmaydi. Endi yayrayman, deganida bolalarni o‘qishga jo‘natdim. Keyin chet elga yubordim.

3-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. Kasbiy faoliyatda ustoz va shogird an‘analari to‘g‘risida matn tuziing.
2. Ustozlar haqida esse yozing.
3. Ustoz haqidagi rivoyat yoki hikoyatlardan namunalar yozing.

YIGIRMA OLTINCHI DARS

MAVZU: KASBIM TARIXI

Soha lug‘atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi

Darsning maqsad va vazifalari:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matnni reja asosida so‘zlab berish. Tanlangan kasb haqida rivoyat yoki hikoyat so‘zlab berish.

Yozma nutq: “Sohaning vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusida matn tuzish. Kasb taraqqiyoti haqidagi ma‘lumotlardan xronologik jadval tuzish. Ish jarayonidagi muloqot vaziyatlarini aks ettiruvchi kasbiy o‘yin ssenariysini tuzish va uni insseniroyka qilish.

Grammatika: Soha lug‘atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishini o‘rganish.

1.Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘rganing.

globallashuv jarayoni	xalqaro hujjatlar
bozor munosabatlari	faol soʻzlar
mijozlarga xizmat koʻrsatish	maishiy xizmat
huquq va erkinliklar	xizmat koʻrsatish ehtiyoji
axborot olish	xizmat turlari
mujassam etmoq	takomillasha bormoq
masʼuliyat yuklamoq	doʻkon peshtaxtalari

2.Matnni oʻqing va oʻrganing.

Neftni sanoatlashgan tarzda qazib olish ishlari Oʻzbekistonda 1885-yilda boshlangan. Neft Fargʻona vodiysida joylashgan Chimyon qishlogʻi yaqinidagi ikki burgʻ qudugʻidan qazib olinar edi. 1900-yilda ushbu mintaqada jiddiy razvedka ishlari boshlandi va 1904-yilda 270 metrdan ortiq chuqurlikdan neft favvorasi otilib chiqdi.

1906-yilda Fargʻona viloyatida neft haydash zavodi qurilib, u davriy harakat qiluvchi bitta ikki kubali qurilmadan iborat edi. Neft konidan qazilma boylik otulov transportida tashilar edi. Neftning sifati esa termometr va areometr yordamida aniqlanar edi. Qayta ishlash natijasida olinadigan asosiy mahsulotlar chiroq kerosini va isitish mazuti edi. Oʻsha zamonda keraksiz benzin zavod hududi tashqarisidagi chuqurlarda yoqib yoʻq qilinar edi. 1915-1916-yillarda, Oʻrta Osiyoda ichki yonuv dvigateli yordamida harakatlanadigan avtomobillar paydo boʻlgandan keyingina benzin foydali mahsulotga aylandi. Mahsulot Afgʻoniston va Xitoyga temir yoʻl va ot-ulov transportida eksport qilinar edi. 1907-yilda zavodni aka-uka Nobellar sotib olishdi va uning bosqichma-bosqich rekonstruksiyasini boshlashdi. Oʻsha yilning oʻzida Chimion konidan zavodgacha tortilgan toʻrt dyuymli neft quvuridan foydalana boshlandi hamda rezervuar parki qurildi. 1940-yilga kelib zavod oʻz laboratoriyasiga ega boʻldi, texnologik jarayon sifat jihatidan yuksaldi, yillik ishlab chiqarish quvvati 176 ming tonnaga etdi.

1972-yilda Qashqadaryo viloyatida jahondagi eng yirik qurilmalardan biri bo'lgan Muborak gazni qayta ishlash zavodi qurildi, 1980-yilda esa Sho'rtanda zavod ishga tushirildi.

Birinchi gaz 1953-yil Qizilqum cho'lidagi Setalantepa konidan qazib olindi. 1962-yilda noyob Gazli koni ishga tushirilgandan keyin Buxoro-Ural va O'rta Osiyo-Markaz transkontinental gaz quvuryo'llari o'tkazildi.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga sarlavha tanlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu asosda savol-javob o'tkazing.
3. Matnda berilgan quyidagi so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing: bozor munosabatlari, mijozlarga xizmat ko'rsatish, huquq va erkinlik, axborot olish, maishiy xizmat, xizmat ko'rsatish ehtiyoji.
4. Xizmat ko'rsatish madaniyati deganda nimani tushunasiz?
5. Xizmat ko'rsatish turlari haqida klastr tuzing.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi

Maxsus entsiklopedik lug'at (MEL). Fan-texnika, san'at va madaniyatning ma'lum bir sohasiga oid tushunchalarni shu soha qiziquvchilari va mutaxassislari uchun mo'ljallab tavsiflaydi. Bunday lug'at sifatida soha entsiklopedik lug'atlari - «Meditsina entsiklopediyasi», «Fizicheskiy entsiklopedicheskiy slovar», «Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar» kabilarni misol qilib keltirish mumkin. UELdan farqli ravishda MEL tor sohaga doir tushunchani keng va batafsil sharhlaydi. Masalan, rus tilida yaratilgan «Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar»da shunday deyiladi: «Bu lug'at turli ixtisosliklardagi filolog-tilshunoslar va ilmiy xodimlarning keng doirasiga, shuningdek, tilshunoslik bilan yaqin bo'lgan soha vakillari psixologlar, mantiqshunoslar, filosoflar, etnograf va adabiyotshunoslarga mo'ljallangan». Quyida «Lingvisticheskiy

entsiklopedicheskiy slovar»dan namuna keltiramiz (Bunday lug'at o'zbek tilida yaratilmagani uchun olingan maqolaning tarjimai berildi).

“Akkomodatsiya” - (lat. Accomodatio-moslashish) tovushning kombinator o'zgarishidan biri: qo'shni undosh va unlining qisman moslashuvi. Akkomodatsiya shunday hodisaki, keyingi tovushning ekskursiyasi (artikulyatsiyasining boshlanishi) oldingi tovushning rekursiya (artikulyatsiyasining tugashi)ga moslashadi (progressiv akkomadatsiya) yoki oldingi tovushning rekursiyasi keyingi tovushning ekskursiyasiga moslashadi. Ayrim tillarga unlining undoshga moslashishi xosdir, masalan, rus tilida [a], [o], [u] unlilari yumshoq undoshdan keyin til oldi unlilariga aylanadi (ularning artikulyatsiyasi ekskursiyaga intilgan). Qiyoslang: «mat» - «myat», «mol» - «myol», «luk» - «lyuk». Boshqa tillarda esa undoshning unliga akkomodatsiyasi kuzatiladi, masalan, fors tilida til oldi unlisidan oldin kelgan undosh tanglaylashadi».

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Matn parchalarini o'qib, ularning qaysi nutq uslubiga xosligini aniqlang. Har bir matnning uslubiy o'ziga xosligini asoslab bering.

I. 7- modda. Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o'zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi. Davlat o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini

ta'minlaydi, shu jumladan, unga hamma e'tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo'mitasining roziligi bilan o'zbek tiliga joriy etiladi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi qonunidan.

II. Notiqlik qadimgi Sharqda juda katta ijtimoiy-siyosiy mavqega ega bo'lib, umumdavlat ahamiyatiga molik ish hisoblangan. U bir necha turga ajratilgan:

1. Ilmiy-siyosiy ma'ruza.
2. Bahs-munozarali nutq.
3. Targ'ib va tashviq qilish ruhidagi nutq.
4. Marsiya nutqi.

5. Tabrik nutqi va boshqalar.

2-topshiriq. Gaplarni uslubiy shakliga ko'ra guruhlarga ajratib ko'chiring. Nuqtalar o'rniga nutq uslubiga xos so'z yoki fe'l shaklini qo'ying.

1. Men bu gapni faqat tarjima vajidan aytayotgan... yo'q. Yozuvchi o'z ona tilisi ustiga o'z zamonasining boy, madaniy tilini bilmasdan qanot bog'lamaydi. Buning misolini adabiyotimiz tarixida, hozirgi adabiyotimizda ... ko'rishi... mumkin (A.Q.). 2. Bulardan birinchi..., nutq madaniyati sohasining vazifasi til va nutqdagi nuqson va kamchiliklarni aniq..., to'p..., uni o'rgan... va bartaraf etishdan iborat..., deyilgan nuqtai nazar. 3. O'sha «masalang» o'rniga tushsa, dashnom...ga qalqon bo'lishi, lovilla... asablarga suv purkab, seni ortiqcha dilsiyohliklar... asrashi ham mumkin! (O'. Usmonov). 4. Men, Rasulov Anvar, «Eng yaxshi kitobxon» ko'rik-tanlovini o'tkazish... institutimiz kutubxonasidan 10 (o'n) ta badiiy kitob ol...

3-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. "Sohaning vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida matn tuzing.
2. Kasb taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlardan xronologik jadval tuzing.
3. Ish jarayonidagi muloqot vaziyatlarini aks ettiruvchi dialog tuzing.

YIGIRMA YETTINCHI DARS

MAVZU: IQTIDOR VA MEHNAT

Matnga so'z va termin tanlash

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnd munosabat bildirib so'zlash. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: "Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?" mavzusida esse yozish. Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida ma'lumot berish. Kasb sohasida muvaffaqiyatga erishish to'g'risida dialog tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Matnga so'z va termin tanlash ko'nikmalarini egallash.

1. Yangi soʻz va iboralar bilan tanishing.

oʻziga xos iqtidor	chuqurlashtirib oʻqitmoq
roʻyobga chiqarish va kashf etish	birinchi qaldirgʻoch
orzu qilgan maqsadlar	astoydil harakat qilmoq
tabaqalashtirib oʻqitish	ilm-fan taraqqiyoti
tadbiq etmoq	koʻp qiyinchiliklar evaziga
gʻoliblikni qoʻlga kiritmoq	ishonchi yanada orta boshlamoq
aniq fanlar sohasida	chegara bilmaslik
yetishib chiqmoq	sarhadlarni egallash

2. Matnni oʻqing va oʻrganing.

Har bir bolada oʻziga xos iqtidor bor. Bu iqtidorni roʻyobga chiqarish va kashf etish sirlari nimada ekanligini Buxoro viloyati qorakoʻl tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan iqtidorli bolalar maktab-internati direktori, Oʻzbekiston Respublikasi Xalq oʻqituvchisi, “El-yurt hurmati” ordeni sohibi Toʻxtamurod Jumayevga murojaat qildik:

Oʻtgan asrning 80-yillarida Boltiqboʻyi respublikalariga sayohatim koʻpdan orzu qilgan maqsadlarimga turtki boʻldi, — deya hikoyasini uzoqdan boshladi Toʻxtamurod aka, — oʻsha paytlarda maktabga tabaqalashtirib oʻqitishni ish faoliyatimda tadbiq etib, bir necha markaziy jurnallarda oʻtkaziladigan matematika fan tanlovlarida oʻquvchilarim qatnashishlari, gʻoliblikni qoʻlga kiritganliklari iqtidorlilarni tabaqalashtirib oʻqitish samara berishiga ishonch tugʻdirdi. Bu gʻoyani amalga oshirish uchun ancha izlandim. Qadim Buxoro, ayniqsa, Qorakoʻl vohasidan aniq fanlar sohasida koʻpgina olimlar yetishib chiqqanligi fikrimning isbotidir. Dastlab maktab-internatni ochish uchun oʻzim dars berayotgan sinfda matematika fanini chuqurlashtirib oʻta boshladim. Buning ijobiy samarasi — oʻquvchilarim “Yosh kuch” jurnalida berilayotgan “Matematika” olimpiadasida sovrinli oʻrinlarni egalladi. Demak, astoydil harakat qilinsa, bunday iqtidorli oʻquvchilarni bir joyga yigʻsa, ilm-fan taraqqiyotga olib kelishini vujudim bilan his qildim. Juda koʻp qiyinchiliklar evaziga 1990-yilda shu maktab-internatni ochishga muvaffaq boʻldim.

Мактаб-интернатга о`қувчилар қабул қилишда анча муаммоларга дуч келдик. Шунга қарамай, мактаб-интернатга суҳбат асосида 8-синфга 20 нафар, 9-синфга 40 нафар о`қувчи қабул қилдик. 1993-йилда мактаб-интернатимизнинг биринчи қалдирғочлари парвози муваффақиятли бўлди. 40 нафар битирувчиларимиздан 38 нафари oliy о`қув yurtlari talabalari degan nomga musharraf бўлдилар. Shundan keyin ota-onalarning bizga бўлган ishonchi yanada orta boshladi. Respublikamizning deyarli barcha viloyatlaridan о`қувчиларимиз bor. Mana, hozirgi kunga kelib shogirdlarim men orzu qilgan niyatlarni amalga oshirmoqdalar. Ilm-fan va uning taraqqiyoti aslo chegara bilmaydi. Uning sarhadi cheksiz, bu sarhadlarni egallash uchun esa tinimsiz izlanish, ijod qilish, o`qish lozim. (*“Gulxan” jurnali*)

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matnni mazmunidan kelib chiqib, uni nomlang.
2. Matnda berilgan mazmunga xos so`zlarni izohlang.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing.
4. Matnning asosiy g`oyasini izohlang.

4. Quyidagi matnni o`zbek tiliga tarjima qiling.

- Камола, что такое конституция?
- Это основной закон государства. Произошло это слово от латинского «устройство».
- А что значит основной закон?
- Он определяет общественное и государственное устройство, порядок и принципы образования представительных органов власти, избирательную систему, права и обязанности граждан. Конституция – основа всего законодательства государства.
- Какие права гарантирует Конституция Республики Узбекистан?
- Права на труд, на отдых, на охрану здоровья, на материальное обеспечение в старости и в случае болезни, право на собственность, на жилище, на образование, на участие управления государственными, общественными делами. Гарантеруются свобода печати, слова, собраний.

- А какие обязанности имеет каждый гражданин республики?

-Во-первых, он обязан соблюдать Конституции Республики Узбекистан.

Во-вторых, добросовестно трудиться, оберегать интересы своей страны.

- Спасибо Камола. Как я понимаю, права и обязанности каждого гражданина нашей республики неотделимы друг от друга.

5. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Matnga so'z va termin tanlash

Matnning asosi — sodda gaplar, qo'shma gaplar va murakkab gaplardir. Shuning uchun ham matnni tuzishda sodda gap, uning turlari (darak, so'roq, undov, buyruq gaplar, bir va ikki tarkibli gaplar), gap bo'laklarini, murakkab gapni tashkil etgan kirish so'z va so'z birikmalari, kirish gaplar, undalma hamda sifatdosh, ravishdosh qurilmalarini, qo'shma gap va uning turlari — bog'lovchisiz bog'langan ergash gaplar va ularning tuzilishi hamda mazmuni bo'yicha quyi sinflarda olingan ma'lumotlarni bilish va eslash kerak.

Matnning har bir uslubiy turi o'ziga xos mazmunga, leksik hamda grammatik belgilarga ega. Matn turlarini aniqlash va uning ustida ishlash shunday matnlarni tuzish yo'llarini bilib olishga yordamlashadi hamda turli xil matnlarni mustaqil tuzishni o'rgatadi. Matn og'zaki va yozma usullarga bo'linadi. Matnning har ikki turida ham fikr ravshan, qisqa, anglashilarli bo'lishi, gaplar grammatik qoidalar asosida tuzilishi kerak.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1- topshiriq. Matnning uslubini va tarkibini aniqlang.

Ustozni unutish jinoyat. Senga bilim-shuur, chin insoniy fazilat, insoniy tarbiya bergan bag'ri keng ustozni bir umr unutib bo'larmikin! Darhaqiqat, ustoz, o'qituvchi inson qalbining yorug' mash'ali.

Hamid Sulaymon — zukko va saxovat sohibi, ilm-u madaniyatning pushtipanohi, ziyo targ'ibotchisi va tafakkurimizning durri noyobi edi. Uning tabarruk ishlari qadimiy avlod-ajdodlarimizning jahonshumul e'tiqodini, muqaddas

fan shukuhini, milliy iftixor bilan bilim-ma'rifat xazinasini bunyod etdi. Ming chandon ofarin bu ustozga!

G'afur G'ulom falsafiy-publitsistik she'riyat maktabini, Oybek nazm va nasr mulkini, Hamid Olimjon tabiat latifligini, Maqsud Shayxzoda donishmandlik poetikasi koshonasini va nihoyat, Sobir Abdulla g'azalnavislikning buyuk maskanini yaratib ketdilar. Ularning badiiy dahosi yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi mahorat kalitini hadya etdi. Bu xazina kalitini topib, undan bahramand bo'lishlik o'quvchiga huzur bag'ishlaydi.

Dunyoda uch shaxs eng buyuk va muqaddas hisoblanadi: ota, ona va ustoz. Bu oliyjanob, buzrukvor kishilarni hamisha e'zozlash hamma uchun zaruriyatdir...

O'qituvchi — ustozlaming o'zlari ham hikmatli, dono o'gitlarga amal qilishlari oltin uzukka la'l ko'z qo'yishga o'xshaydi. Demak, bu ta'lim-tarbiya sohiblarining saviyasi balandligidir.

Ustoz -murabbiylarning yuksak ma'naviyati, har bir ishga sadoqat, fidoyilik bilan qarashi ibrat ko'zgusidir. Ular bu muqaddas merosni yoshlarga qoldiradilar. Yoshlar esa bunday tabarruk va qutlug' udumni o'z ish faoliyatlarida hamisha qomlaganlaridagina ularning istiqboli durkun va barkamol bokladi.(Sh. Orifiy)

2-topshiriq. Quyidagi maqollarni rus tiliga tarjima qiling. Ularda qo'llangan sifatlarning ma'nosi va vazifasini izohlang.

1. Yaxshi bola nom keltirar, yomon bola g'am keltirar. 2. Yaxshi qand yedirar, yomon pand yedirar. 3. Kelining yaxshi bo'lsa, o'g'lingdan ko'r; o'g'ling yomon bo'lsa, keliningdan ko'r. 4. Aqlli odam qish g'amini yozda yeydi. 5. Yaxshini maqtasang yarashur, yomonni maqtagan adashur. 6. Farzandsiz kishi – mevasiz daraxt. 7. Qizli uy – bo'ston, qizsiz uy – go'riston. 8. Qo'ng'iz bolasini oppog'im der, kirpi bolasini yumshog'im der. 9. Kengashganga – keng dunyo, talashganga- tor dunyo. 10. Yog'och kessang, uzun kes, kessa bo'lar; temir kessang, qisqa kes, cho'zsa bo'lar. 11. Qorinni to'yg'azish oson, ko'zni to'yg'azish qiyin. 12. To'qayga o't tushsa, ho'l-quruq baravar yonar.

3- topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling. Bir bosh bo'lakli gap turini aniqlang.

1. Hirot. Husayn Boyqaro saroyi. Hamma motamda. 2. Vaqtni to'xtatib bo'lmaydi. 3. Erta eksang, erta o'rasan. 4. Sharqda keksalarni donishmandlarga tenglashtirishadi. 5. Ertaga barvaqtroq kelaman.

4- topshiriq. Quyidagi matnni rus tiliga tarjima qiling.

SUHBAT

Siz sport bilan shug'ullanasizmi?

Ha, shug'ullanaman.

Sportning qaysi turlari bilan shug'ullanasiz?

Qishda chang'ida, tennis o'ynashni yaxshi ko'raman. Yil davomida esa cho'milaman.

Bularning hammasiga vaqtingiz yetadimi?

Bo'sh vaqtim oz bo'lganligi uchun basseynga haftada ikki marta erta bilan, chang'ida uchishga esa faqat yakshanba kunlari boraman.

Chang'ida uchish uchun qayerga borasiz?

Biz oilamiz bilan Chimyonga chiqamiz.

Siz sport bilan ko'pdan beri shug'ullanasizmi?:

Ha, yoshligimdan beri shug'ullanaman.

5-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. "Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish mumkin?" mavzusida esse yozing.
2. Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida ma'lumot bering.
3. Kasb sohasida muvaffaqiyatga erishish to'g'risida dialog tuzing va u asosida suhbat o'tkazing.

YIGIRMA SAKKIZINCHI DARS

MAVZU: YETUK MUTAXASSIS

Matn tahlili va tahriri

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi qo'shimcha fikrni ajratib so'zlab berish. Malakali mutaxassis haqidagi tasavvurlarni gapirib berish.

Yozma nutq: "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzish. Mutaxassisning kasbiy kompetentsiyalari ro'yxatini tuzish va ularni misollar bilan izohlab berish.

Grammatika: Matn tahlili va tahriri haqida ko'nikmaga ega bolish.

1. Yangi so'z va birikmalarni o'rganing.

yuksak bilimli	ta'limini rivojlantirish
yosh avlodni tarbiyalash	yangicha qiyofa kasb etmoq
umumta'lim maktablari	laboratoriya uskunalari
oliy ta'lim muassasalari	ko'rgazmali vasitalar
ta'lim dargohlari	qo'llarini ko'ksilariga qo'yib
namunali maktablar	sharoit va imkoniyatlar yaratilgan
dasturiga muvofiq	o'z bilimini namoyish etmoq

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Bugungi kunda zamon talablariga javob beradigan yetuk mutaxassis bo'lish uchun nimalarni bilish, qanday malaka talablariga javob bera olish kerak. XXI asrda ish beruvchilarni hatto ikki oliy ma'lumot bilan ham hayron qoldira olmaysiz. Yetuk mutaxassis yetarli kasbiy tayyorgarlik bilan bir qatorda, computer yordamida ofis dasturlari, electron pochta bilan ishlash, xatlarni ochish va o'qish, nusxalar, imzolar, boshqa manzillarga qaytarib jo'natishni, tahrir etishni va boshqa muhim narsalarni bilishi kerak.

Ko'pincha elektron rejalashtiruvchilardan ish malakasi talab qilinadi. Chunki korporativ muloqotlar messenjerlarda olib boriladi. Yetuk mutaxassis

yozishmalarning korporativ etikasini bilishi, u yoki bu ma'lumotlarni yozma ravishda tasvirlashni, zo'dlik bilan har qanday faoliyatning hisobotlarini qilishni bilishi kerak.

Mijozlar bilan ishlaydiganlar yozishmalar bilan ko'proq shug'ullanishadi, qolganlar esa — kamroq, lekin undan har qanday holatda ham qochib qutulib bo'lmaydi.

Yaxshi yozma nutq uchun savodlilik va barcha turdagi xatlar, hisobotlar va hujjatlarni yozish borasida tajriba talab qilinadi.

Yetuk mutaxassi bo'lish uchun insoniy fazilatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buning hech qanday ajablanarli joyi yo'q. Haqiqat shundaki, yaxshi ishga joylashish va o'z imkoniyatlaringizni namoyon qilishingiz uchun siz nutq madaniyatini egallagan inson bo'lishingiz ham talab etiladi. Xushmuomala, odobli, har xil odamlar bilan muomala qilishni bilishingiz lozim bo'ladi.

Bu shaxsingizni to'liq o'zgartirishingiz uchun taklif emas, balki korporativ madaniyat, etika va yurish-turish qoidalarining muhimligiga bo'lgan ishoradir. Ular tasodifan o'ylab topilgan emas. Yuqoriga til topish mumkin bo'lgan odamlar mstahkam ish o'rinlariga ega bo'ladilar va mansab pillpoyalaridan ko'tarilib boradilar.

Yetuk mutaxassisning muhim shartlaridan yana biri o'z ishiga ijodiy yondashuvidir. Ijodiy yondashish sizga statistlar guruhi orasida ajralib turishingizga va o'z ishingizni yaxshi ko'rishingizni namoyon qilishga yordam beradi. Albatta juda shiddatli ijod bilan ehtiyot bo'lishingiz kerak. Ayniqsa muhim holatlarda u yoki bu g'oyalaringizni hayotga tatbiq qilish masalasida rahbariyat bilan maslahatlashganingiz ma'qul.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matnni mazmunidan kelib chiqib, uni nomlang.
2. Matnda berilgan mazmunga xos so'zlarni izohlang.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing.
4. Matnning asosiy g'oyasini izohlang.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Matn tahlili va tahriri

Matn tahlili va tahriri matn mazmuni asosida xat boshi (abzas) jumllalarini belgilash, ortiqcha va takror so'zlarni chiqarish, uslubiy jihatdan ta'sirchan vositalarini kiritish, gaplarni o'zgartirish, fikrning aniqligi va boyligini ta'minlash kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Lingvistik tahlil - til, nutq birliklarini uni tashkil etuvchi qismlari, mazmuni, vazifasi va boshqa xususiyatlari nuqtai nazaridan tadqiq etish, til (nutq) birliklarining aniq holatini belgilash. Mac, hosildorlikni so'zida ikki asil til hodisasi mavjud bo'lib, u xuddi shu hodisalar nuqtai nazaridan tahlil etilishi mumkin: 1) so'z yasalishi hodisasi; 2) shakl yasalish hodisasi (morfologik hodisa). Bu so'zda ikkita yasama so'z mavjud bo'lib, so'z yasalishi tah-lilida har bir yasama so'zning tarkibi va bu tarkibiy qismlarning mohiyati, vazifasi, ma'nosi va shu kabilar belgilanadi. Bunda: qosildor yasama so'z ekani, u so'z yasalish asosi hosil va so'z yasovchi dor qo'shimchasidan iborat tarkibiy qisimga egaligi, so'z yasalish asosi (hosil) ot turkumiga oidligi, dor qo'shimchasining qaysi turkumga oid so'zdan qaysi turkumga mansub so'z va qanday ma'noli so'z yasashi hamda uning boshqa xususiyatlari qayd etiladi. Hosildorlik yasama so'zining tahlili ham xuddi shu tarzda olib boriladi, ya'ni u yasama so'z ekani, unda hosildor so'z yasalish asosi, -lik so'z yasovchi qo'shimcha ekani, shuningdek, bu qo'shimchaning ma'nosi va boshqa xususiyatlari qayd etiladi. Morfologik tahlilda hosildorlik so'zining ot ekanligi, -ni qo'shimchasi shu so'z (ot)ning tushum kelishik shaklini yasashi, uning ma'nosi va sh.k. qayd etiladi. Lingvistik tahlilning yana quyidagi turlari farqlanadi: 1) leksikologik tahlil; 2) frazeologik tahlil; 3) semasiologik tahlil; 4) fonetik tahlil; 5) imloviy tahlil; 6) orfoepik tahlil; 7) morfem tahlil; 8) sintaktik tahlil; 9) punktuatsion tahlil; 10) uslubiy tahlil; 11) etimologik taxlil.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. “Sohamiz ravnaqi” mavzusida matn tuzing.
2. Mutaxassisning kasbiy kompetentsiyalari ro'yxatini tuzing va ularni misollar bilan izohlang.

2- topshiriq. Quyidagi maqollarni yod oling va ularning ruscha muqobilini toping.

1. Qo‘rqqanga qo‘shsha ko‘rinar.
2. Egilganga egilgin - boshing yerga tekkuncha, kerilganga kerilgin - boshing ko‘kka yetguncha.
3. Maqtanganning uyiga bor, kekkayganning to‘yiga.
4. Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv.

3- topshiriq. Quyidagi matnni tarjima qiling va uni nomlang.

В субботу у нас в гостях был Анвар. Он учиться в Америке. Когда Анвар пришёл к нам , мы попросили его рассказать о том, как он изучал английский язык.

- Я считаю, что кто хочет изучить язык должен заниматься регулярно. Это самое главное, когда вы изучаете язык. Когда я изучал английский язык, я всегда выполнял домашнее задание во время и исправлял все свои ошибки. Сначала я повторял материал, который мы изучали на занятиях. Потом я читал текст и писал упражнение. А вечером я смотрел телевизор и записывал слова, которые я не понимал. На следующий день я спрашивал преподавателя, что значит эти слова. Я часто смотрел фильмы, потому что фильмы помогают узнавать уже знакомые слова и запоминать новые. А также, ежедневно покупал новые газеты и следил за новостями дня. Помогли друзья правильно и красиво говорит.

4-topshiriq. Quyidagi matnlarni o'qib, tahlil qiling va ularning farqlarini izohlang

IBRAT

O'RGIMCHAK BILAN IPAK QURTI

O'rgimchak ipak qurtini ko'rib, uning ustidan kuldi va: — Omonmisan, do'stim! Sen juda sekin, juda og'ir ish qilyapsan. Qara, men oz vaqtda kattakon bir to'rni bir zumda to'qib tashlayman, — dedi.

Ipak qurti o'rgimchakka dedi: — To'g'ri, sen haqsan. Ammo bir zumda qilingan bu uyingdan nochorroq uy bormi? Sening ingichka iplaring juda zaifdir. Men sekin ishlayman, ammo pishiq ish qilaman. Shu bois iðagimni hamma qadrlaydi. Ipagim oz bo'lsa ham, senikidan ustun va qimmatdir. (Sharq hikoyasi)

HIKMAT

Har bir yaxshi va puxta ish kelajakda katta rivojlanishlarga sabab bo'ladi. O'rgimchakning shoshib bajargan ishi sifatsiz. Ipak qurtining sekin bajargan ishi pishiq, puxta. Shu bois, u qimmatli. Odamlar ham xuddi o'rgimchak singari shoshma-shosharlik bilan emas, iðak qurti singari sekin, shoshmasdan, o'ylab, pishiq, puxta ish qilishi kerak.

Ey o'quvchi! Jamiyatga kerakli bo'lishni istasang, ishingni puxta qil. Shuni aniq bilginki, jamiyat sen kabi insonlarga muhtojdir.

(Muhammad Kamol)

YIGIRMA TO'QQIZINCHI DARS

MAVZU: KASB BAYRAMI

Matn mazmunining qisqacha bayoni(tezisi),uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni o'zgartirib so'zlab berish. Turli mamlakatlarda nishonlanadigan shu kasb egalarining bayramlari haqida gapirib berish.

Yozma nutq: Kasb bayrami haqida matn tuzish. Kasb bayramiga bag'ishlangan reportaj yozish. Reportaj mazmunini rezyume ko'rinishida ifodalash.

Grammatika: Matn mazmunining qisqacha bayoni (tezis), uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari haqida bilimga ega bo'lish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

rasmiy tantana	chorvachilik va dehqonchilik
o'yin-kulgi	Ramazon va Qurbon haytlari
qadimiy udumlari	qurolli kuchlari kuni
yaxshi niyatlar	Xalqaro xotin-qizlar
uzum sayli,	hazil-mutoyiba, kulgi va shodlik kuni,
ekin ekishga kirishish	
hosil bayrami	

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Bayram – muhim tarixiy voqea, hodisa sharafiga shodlik, rasmiy tantana o'tkazish uchun belgilangan muborak kun. Bunday muborak kunlar xalq tomonidan quvonch, shodlik, tantana, o'yin-kulgi bilan kutib olingan, tantanavor nishonlangan.

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan, ardoqlab-e'zozlaydigan o'ziga xos bayramlari, tantanalari, an'analari bo'ladi. Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab xalq hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

Bayramlarda xalqning qadimiy udumlari, an'analari, tarixi, madaniyati o'zining yorqin ifodasini topadi. Bayramlarda kishilarning diniy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy yutuqlari namoyish etiladi. Bayram arafasida, bayram kunlari kishilar bir-birlarini tabriklaydilar, bir-birlariga yaxshi niyatlar izhor etib, muvaffaqiyatlar tilaydilar.

O'zbek xalqi eng qadimgi davrlardan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Shuning uchun ham xalq orasida Navro'z, gul sayli, ekin ekishga kirishish, qovun sayli, uzum sayli, hosil bayrami kabilar keng tus olgan. Keyinchalik islom dini bilan bog'liq Ramazon va Qurbon hayitlari ham keng nishonlanadigan bo'lgan.

Bugungi mustaqil O'zbekistonda bayramlar dam olish kuni deb e'lon qilingan. Quyidagi sanalar qonuniy bayram kunlari hisoblanadi: 1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro'z, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentabr – Mustaqillik kuni, 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni, 8-dekabr – Konstitutsiya kuni, Ramazon va Qurbon hayitlari hijriy hisobga ko'ra har yili o'n kun farq bilan nishonlanadi. Bulardan tashqari, mamlakatimizda 14-yanvar – respublika qurolli kuchlari kuni, 1-aprel – hazil-mutoyiba, kulgi va shodlik kuni, 1 iyun – bolalarni himoya qilish kuni, 21-oktabr – o'zbek tiliga davlat tili huquqi berilgan tarixiy sana sifatida nishonlanib kelinadi.

Bayramlar ichida Navro'z va Yangi yilni bolalar ham, kattalar ham intizorlik bilan kutadilar. Bu bayramlarga imkon qadar jiddiy tayyorgarlik ko'rishadi.

Sharq xalqlari qadimdan Navro'zni Yangi yilning birinchi kuni sifatida keng nishonlab kelishgan. Navro'zda kecha bilan kunduz tenglashib, hayvonlar nomi bilan ataluvchi yil – muchal almashadi. Buyuk bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Nosiriddin Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy va boshqalar Navro'zni bahor, uyg'onish, yoshlik, go'zallik bayrami sifatida tasvirlaganlar.

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga munosib sarlavha tanlang.
2. Matn mazmuni asosida soʻz va birikmalarning mavzuviiy guruhini tuzing.
3. Quyidagi soʻzlarning maʼnosini izohlang; maʼrifatparvarlik, maʼnaviyat oʻchogʻi, buyuk alloma, kutubxona va qiroatxona, tashkil qilmoq.
4. Matn yuzasidan savollar tuzing va ular asosida savol-javob oʻtkazing.

4. Quyidagi nazariy maʼlumotni oʻrganing.

Matn mazmunining qisqacha bayoni(Tezis),uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Tezis – maʼruza va ilmiy maqolaning asosiy mazmunini qisqacha ifodalangan shakli. Unda materiallarni berilishi va mazmuniga koʻra tezislar birlamchi, original (asl) ilmiy asar boʻlishi ham mumkin, annotatsiya, referat, konspektga oʻxshash ikkilamchi matn boʻlishi ham mumkin. Original tezislar muallifning sof maʼruza, maqolalarining ixchamlashtirilgan koʻrinishi hisoblanadi. Ikkilamchi tezislar boshqa muallifga tegishli birlamchi matnlar asosida tuziladi. Tezislarda tegishli mavzular mantiqiy va qisqa bayon etiladi. Har bir tezis, odatda alohida abzasni tashkil etib, alohida kichik (mikro) mavzuni yoritishga xizmat qiladi. Agar reja koʻrib chiqilayotgan masalani faqat sanab oʻtsa, tezislar bu masalalarning yechimini ochib berishi lozim.

Tezislar qatʼiy meʼyoriy mazmuniiy-kompozitsiiyon tuzilishga ega boʻlib, ular quyidagilarni oʻz ichiga oladi: preambula, tezisning asosiy mazmuni, yakunlovchi tezis.

Tezis mundarijasining qatʼiy ravishda mantiqiy boʻlinishi rasmiy yoki grafik shaklda qayd etiladi. Tezislar oʻrtasidagi mantiqiy oʻzaro bogʻlanishni rasmiy ifodalash quyidagi usullar bilan koʻrsatilishi mumkin:

- har bir tezisning oldida kirish soʻz (birinchidan, ikkinchidan)lardan foydalanish;
- oppozitsion fraza (ibora)lar (tashqi omillar – ichki sabablar)dan foydalanish;

- klassifikatsion frazalar (harakat fe'llari maydoni, holat fe'llari maydoni, yurish fe'llari maydoni)dan foydalanish.

Tezislarda quyidagi nutqiy shakllar bilan boshlanishi mumkin:

Ma'lumki, ...; Ta'kidlab o'tish lozimki, ...; Ammo ...; Bunda shunisi muhimki, ...; Shu narsa ko'zda tutiladiki, ...; Mutaxassislar maqsad qilib qo'yadilarki,... va b.

Tezislarda asosiy axborotlar quyidagi leksik vositalar bilan o'zaro bog'lanishi mumkin:

... masalani qo'yadi. ... deb hisoblaydi. ... taqqoslaydi. ... misollar keltiradi. ... sanab o'tiladi. ... xarakterlaydi. ... ta'kidlaydi va b.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Quyidagi tezis namunasini o'raning va shu asosda o'zingiz mustaqil tezis yozing.

Har qanday matn – muallif fikrini til vositasida ifodalashdir.

O'qish algoritmi matning asosiy mohiyatini qabul qilish jarayonida aqliy faoliyatning izchilligini belgilab beradi.

Psixologik moslashish – insonning ma'lum bir faollikka, ayrim jarayonlarga qatnashishga, tanish stimul yoki tanish vaziyatga tayyorligidir.

O'qishda integral algoritmdan foydalanish algoritmi bloklariga mos ravishda ratsional harakatning ma'lum bir izchilligini nazarda tutuvchi o'qish malakalari shakllanadi.

Psixologlar predmetlar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish tushunchasini mavjud bilimlardan foydalanish yo'li bilan amlga oshadi deb hisoblaydilar.

2-topshiriq. Matnni o'qib, dialogdan qanday farqlanishini ayting. Sifatlovchilarning ma'no va vazifasini izohlang.

... Ta'birimiz qo'pol tushmasa bu go'zal qiz och ra'no gulining tusida yoki oq sariq tusda yaratilgan edi. A'zoda o'skan tuklarga ham haligi tusning ta'siri bo'ladi.

Ra'noning sochi gungurt-qora, ya'ni quyoshsiz joylarda qora ko'rinsa ham quyoshda bir

oz sarg'ish bo'lib ko'rinar edi. Shunga o'xshash Ra'noning ko'zida ham buning asari ko'ruladir: mudavvarga moyilroq jodu ko'zi kishiga qattiq qaraganda qoraliqdan boshqacha yana bir turluk nur sochar erdi. Kiðraklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi.

3-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. Kasb bayramlari haqida matn tuzing.
2. Kasb bayramlariga bag'ishlangan reportaj yozish.
3. Reportaj mazmunini tezis ko'rinishida ifodalang.

O'TTIZINCHI DARS

MAVZU: SHARQ AKADEMIYALARI

Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifasi:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni davom ettirgan holda so'zlab berish. Ilmga fidoyilik tushunchasini misollar bilan ta'riflab berish.

Yozma nutq: Ixtisoslik sohasining ahamiyati to'g'risida ilmiy uslubdagi ma'lumotnoma matnini tayyorlash. Fan rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlar haqida referat tayyorlash.

Grammatika: Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlarini o'rganish.

1. Quyidagi so'z va birikmalarni o'rganing.

xalq bayramlari	milliy o'yinlar
hosil bayrami	afsona va rivoyatlar
xalq sayllari	joriy qilinmoq
katta-katta doshqozonlar	yil hisobi

masxarabozlar va dorbozlar xush kayfiyat ulashmoq	dunyoga yuz tutmoq milliy kurash
--	-------------------------------------

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Bundan ming yil muqaddam Xorazmning poytaxt shahri Gurganjda (Ko'hna Urganch) ma'rifatparvar ma'muniylar sulolasiga mansub Xorazmshox Ali Ibn Ma'mun va Ma'mun ibn Ma'munning sa'yi-harakati hamda qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning bevosita rahnamoligida Sharqning yirik ilmiy markazi "Dor-ul hikma va ma'rifa" tashkil qilingan edi. Fanning dolzarb muammolari bilan shug'ullangan bu ilm dargohi shundan ikki asr avval Bag'dodda faoliyat ko'rsatgan "Bayt-ul hikma" hamda O'rta Osiyo, xususan Xorazmda shakllangan qadimiy ilmiy-ma'rifiy an'analarni davom qildirib, jahon ilm-fani taraqqiyotida munosib o'rinni egalladi. "Dor-ul hikma va ma'orif"da ijod qilgan olimlar faoliyati o'tgan asrdayoq yevropalik va rus sharqshunos olimlarida juda katta qiziqish uyg'otdi. Yevropalik olim E.Zaxau, rus sharqshunoslaridan akad. S.P.Tolstov, I.Yu.Krachkovskiy, A.Yu.Yakubovskiy, P.G.Bulgakov, o'zbek olimlaridan akad.Ya.G'ulomov, I.Mo'minov, M.Xayrullaev, A.Ahmedov, B.Abduhalimov va boshqalar o'z tadqiqotlarida shu ilmiy dargoh faoliyatini chuqur o'rganib, uni o'z davrining Fanlar akademiyasi bo'lganligini asoslab berdilar. Bu ilmiy dargoh endilikda Xorazm Ma'mun akademiyasi nomi bilan yuritilib kelmoqda. "Dor-ul hikma" yoki "Majlisi uloma" nomi bilan atalgan bu ilm maskani Xorazmshohlar shuhratini orttirish maqsadini ko'zlagan bir guruh olim, adib, shoirlarning tasodifiy yig'ini emas edi. Masalaga shu nuqtai nazardan qarash mutlaqo noto'g'ri bo'lar edi. Boshqacha aytganda u quruq yerda tasodifan vujudga kelmadi, aksincha o'zining mustahkam zaminiga ega edi. Ma'mun akademiyasi avvalo ko'hna Xorazmning uzoq o'tmishdagi ilm-ma'rifat ildizlari bilan bevosita aloqador, shuningdek, u ilk o'rta asr Uyg'onish davri madaniy yuksalishining qonuniy natijasi bo'ldi. Zero ko'hna Xorazmda ayniqsa, falakiyot (astronomiya), riyoziyot (matematika) va boshqa ilmlarga bo'lgan qiziqish ancha erta vujudga kelgan.

Kishilik sivilizatsiyasining qadimiy beshiklaridan bo'lgan Xorazm ilk o'zbek davlatchiligining tamal toshi qo'yilgan muqaddas o'lkalardan biridir. Insoniyatning ma'naviy boyligi bo'lgan zardushtiylik dini va muqaddas "Avesto" kitobi aynan shu go'zal zaminda yaratilgan, Qadimiy Sharqning dastlabki qomusiy asari "Avesto" - ajdodlarimizning insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan ming yillik diniy-falsafiy, ilmiy-ma'rifiy qarashlarini o'zida mujassam qilgan.

Xorazm Ma'mun akademiyasida Abu Rayhon Beruniy boshchiligidagi xorazmlik olimlardan matematik va astronom Abu Nasr Iroq, al-Xorijiy, al-Xamdokiy, kimyogar olim Abul Hokim Muhammad ibn Abdumalik as Solih al-Xorazmiy al-Kosiy, Ahmad ibn Muhammad as-Suhayly al-Xorazmiy va boshqalar bilan bir qatorda, buxorolik qomusiy olim, mashhur tabib Abu Ali ibn Sino, tarixchi olim, faylasuf va shoir bag'dodlik Abul Xayir ibn Xammor, tabib va faylasuf Abu Sahl Iso ibn Yaxyo al-Masihiy al-Jurjoniy, matematik va astronom Mahmud ibn Xidr al-Ho'jandiy, tarixchi olim va shoir Abu Mansur Abdumalik ibn Muhammad ibn Ismoil as Saolobiy, Abul Xayr al-Hasan ibn Sivar ibn Boba ibn Bixnam, Abu Sayd Ahmad ibn Muhammad ibn Iroq, al-Xamadoniy, Abu Abdulloh Biyon Naysoburiy, Ahmad ibn Hamid as-Naysoburiy, tarixchi olim ibn Mixxavayx, Abul Fazl Bayhakiy, tabiatshunos olim Abu Abdulloh Husayn ibn Ibrohim at-Tabariy an-Notiliy, Ahmad ibn Muhammad as-Sahriy va boshqa o'z zamonasining yetuk olimlari ko'plab ilmiy va amaliy muammolarni yechib, jahon fani rivojiga ulkan hissa qo'shdilar. Yuqoridagi nomlari zikr qilingan olimlar Ma'mun akademiyasida xizmat qilgan allomalarning hozircha aniqlangan, lekin to'liq bo'lmagan ro'yxati bo'lib, shular qatorida xorazmliklar aksar ko'pchilikni tashkil qilganligi ma'lum.

Olimlar dunyoviy va tabiiy fanlar bilan, xususan astronomiya, matematika, fizika, kimyo, minerologiya, kartografiya, geografiya, geometriya, tabiatshunoslik, tibbiyot, falsafa, tarix, arab tili, mantiq, adabiyot, islom huquqshunosligi va boshqa ilmlar sohasida chuqur tadqiqotlar qildilar. Ular arab, fors, hind, lotin, yunon va turkiy tillarini mukammal bilganlar. Yunon olimlaridan Platon, Aristotel, Ptolemey, Yevklid, Pifagor va Galen asarlarini chuqur tahlil qilib, ularga

bag'ishlab sharhlar bitganlar. O'zlari yuqoridagi ilmlar sohasida tadqiqotlar o'tkazib, fanni yangi g'oyalar bilan boyitdilar.

3. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga munosib sarlavha tanlang.
2. Matndan foydalanib, uning mazmuniga oid so'zlarning ma'naviy guruhlarini tuzing.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu asosda savol-javob o'tkazing.
4. Matn mazmunini so'zlab bering.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Referat yozish intellektual ijodiy jarayon bo'lib, bunda matnning g'oyasini o'zida aks ettirgan, axborotlarni analitik-sintetik usul bilan o'zgartirilgan va qayta yaratilgan (ikkilamchi) matn yaratish hisoblanadi.

Referat – mohiyatiga ko'ra, birlamchi matnning mazmunini bayonini o'zida mujassamlashtiradi. Referat birinchi manbada mavjud asosiy axborotlarni, yangi ma'lumotlarni, muhim faktlarni aks ettiradi. Referatlarni tayyorlash – mustaqil ishlarning murakkab turlaridan biri hisoblanadi, referat yozish insonni adabiyotlar bilan mulohaza bilan ishlashga, kerakli axborotlarni tanlashda ularga to'g'ri yondashishga o'rgatadi. Referat kerakli axborotlarni olishga asoslanishi, bayonning mukammaligi bilan ajralib turishi, birlamchi matnning mazmunini obyektiv yoritishi, birlamchi manbada mavjud bo'lgan materialni to'g'ri baholashi lozim. Referat reprodaktiv (samarasiz), ya'ni birlamchi matn mazmunini aynan takrorlovchi va produktiv (samarali), ya'ni referat yoziladigan manba tanqidiy yoki ijodiy qayta ishlangan bo'lishi mumkin.

Reproduktiv referatlar ikki turli bo'lishi mumkin: referat-konspekt va referat-rezume.

Referat-konspekt faktik axborotlar, illustrativ materiallar, tadqiqot metodi haqida ma'lumot, olingan natijalar va ularni qo'llash imkoniyatlarini umumlashtirgan ko'rinishda bo'ladi.

Referat-rezume faqat matnning mavzusi bilan mustahkam bog'langan asosiy holatlarni o'zida aks ettirgan bo'ladi.

Produktiv referatlar referat-sharh va referat-ma'ruza shaklida bo'ladi. Referat-sharh bir qancha birlamchi matnlar asosida tuziladi, aniq bir masalalar bo'yicha turli nuqtayi nazarlarni qiyosiy tahlil etadi.

Referat-ma'ruza mufassal xarakterga ega bo'ladi, u birinchi manbada keltirilgan axborotlarni tahlil etish bilan bir qatorda, muammolarning holatiga obyektiv baho ham beradi.

Har qanday referatning tuzilishida uch asosiy komponent mavjud bo'lishi lozim: bibliografik tavsif, referatning asosiy matni, ma'lumotlar bazasi.

Boshqa har qanday ilmiy matn kabi referatlar ham ma'lum bir kompozitsiyaga ega bo'ladi:

Kirish. Kirishning vazifasi quyidagicha bo'lishi mumkin: matnga tegishli boshlang'ich ma'lumotlari (manba matn mavzusi, qachon va qayerda nashr qilingan)ni keltirish, muallif haqidagi ma'lumotlar (famiyasi, ismi, otasining ismi, mutaxassisligi, ilmiy unvoni, ilmiy darajasi)ni ma'lum qilish, ish mavzusi mazmunini (nimaga bag'ishlangan, nima maqsadda yozilgan) ochib berish.

Birinchi manbada ko'rsatib o'tilgan asosiy masalalar va muammolar haqida to'xtaliladi. Referentning fikricha, boshlang'ich matnda ko'rsatib o'tilgan eng muhim masalalar tahlili. Bu tahlillarni keltirishda tanlangan masalalarning muhimligini asoslash, bu masalalar bo'yicha muallifning fikrini qisqcha keltirib o'tish, birinchi manba muallifi mulohazasi yuzasidan o'z fikrini bildirishi lozim.

Referat yozilayotgan matnning barcha mavzulari yoki muammolari ahamiyati haqida umumiy xulosalar.

Shunday qilib, referat quyidagi belgilarga ega:

- referatning mazmuni butunlay referat yozilayotgan manbaning mazmuniga bog'liq bo'ladi;
- asosiy axborotning aniq bayonini buzmasdan va subyektiv baholarsiz aks ettirish;
- qat'iy tuzilishiga ega bo'ladi: bibliografik tavsifni o'z ichiga olgan boshlang'ich qismi, mualliflar haqidagi ma'lumotlar umumlashirilgan bo'ladi, asosiy mavzu va

manbalarga tegishli problematikalar qayd etiladi, eng muhim masalalar to'liq yoki qisqa bayon etiladi, natijalar xulosa qilinadi.

Referatda nutq ilmiy uslubining mazkur janri uchun xarakterli bo'lgan nutqiy konstruksiyalardan foydalaniladi:

Muallif quyidagi masalalarga to'xtaladi ...

U ... larni tahlil etadi.

U baholab, shuni ko'rsadiki, ...

Ish davomida muallif quyidagilarni ko'rib chiqadi ...

Natijadan kelib chiqib, u quyidagilarni ta'kidlaydi ...

Buning eng jiddiy oqibati ... hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, muallif xulosala qiladiki, ...

Muallifning fikricha, vazifa shunda o'z ifodasini topadiki, ...

Muallif ko'rib chiqadiki, ... va b.

“Referat” mavzusi bo'yicha materiallarni tahlil qilishni yakunlashdan oldin referatning tuzilishi va uni yozishda qo'llanadigan nutqiy qoliplarni tahlil qilib chiqishni taklif qilamiz.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Quyidagi tavsiyalar asosida mustaqil ish yuzasidan referat yozing.

Muallif, mavzu, kirish ma'lumotlari (bibliografik tavsif).

Maqola, kitob mavzusi. Birinchi manba umumiy mavzusi ko'rsatiladi. Bunda quyidagi ifoda birliklaridan foydalanish mumkin: Maqola (kitob, monografiya ...) ... mavzu, masala, muammolarga bag'ishlangan.

Kompozitsiya (referatning tuzilishi). Manba (asosan kitob) qancha va qanday tuzilish qismlaridan tashkil topgan. Bunda quyidagi ifoda qoliplaridan foydalanish mumkin: Kitob (maqola) uch(to'rt...) bob, ettita bo'limni o'z ichiga oladi (...dan tashkil topgan, ... dan iborat va b.).

Asosiy mazmuni. Maqolaning tuzilishi bilan mos holda aniq bir natijalar va muallifning chiqargan xulosalari bayon etiladi. Unda quyidagi ifoda qoliplaridan foydalanish mumkin: Kirish qismida ko'rsatiladi (ta'kidlanadi)ki, ...; Birinchi

bobda ... lar yoritiladi; Muallif ta'kidlab o'tadi (ko'rsatadi, xulosa qiladi) ki, ...; Ikkinchi bob ... larga bag'ishlangan; Muallifning fikricha, ... ; Uchinchi bobda ... lar haqidagi fikrlar o'z ifodasini topgan; Xulosa qismida ko'rsatiladi (ta'kidlanadi, keltiriladi) ki ... va b.

Illustrativ materiallarning mavjudligi. Ishda illustratsiya, rasmlar, jadvallar va boshqa ko'rgazmali materiallarning mavjuqligi qayd etiladi. Bunda, misol uchun, quyidagi nutqiy ifodalar keltirilishi mumkin: Muallif o'z fikrlarini aniq faktlar va misollar asosida ko'rsatib bergan, ularni isboti uchun bir qancha rasmlar, fotosuratlar, jadvallar keltirgan.

Adresat (kim uchun mo'ljallangan). Matn kim uchun mo'ljallanganligi ko'rsatib o'tiladi. Bunda quyidagi ifodalardan poydalanish mumkin: Maqola ... sohadaki mutaxassislar uchun mo'ljallangan; Bakalavr yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari talabalari, ilmiy tadqiqot bilan shug'ullanuvchi soha mutaxassislari uchun mo'ljallangan, keng o'quvchilar ommasiga uchun qiziqish uyg'otadi va b.

2-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing va o'rganing.

MEHRJON SAYLI

Mehrjon - eng go'zal, eng tarovatli bayram sayllaridan hisoblanadi. Mehrjon hosil ko'tarib, qishga tayyorgarlik ko'rish bayrami. U to'kin-sochinlikka shukronalik, hayotga muhabbat ramzini belgilaydi.

Xalq kuzgi bayram saylining nomini «Mehrjon» deb bilib qo'ygan. Mehrjonning fasllar orasida alohida o'rni bor. U o'zining noz-ne'matga mo'l-ko'lligi paytida, pishiqchilik, ma'murchilik paytida bayram qilinadi. Dehqon yil bo'yi qilgan mehnatining lazzatini totib ko'rayotgan paytida 25-oktyabrdan 26-oktyabrga o'tar kechasi nishonlanadi.

Qadimda ota-bobolarimiz qancha hosil olganlaridan qat'i nazar yil bo'yi sidqidildan mehnat qilib, qancha bo'lsa – boriga baraka, deyishib, muayyan bir vaqtda (Mezon kirishida) bahorda Navro'zni qanchalik tantana bilan nishonlashsa,

Mehrjonni ham undan qolishmaydigan tarzda shod-xurramlik bilan bayram qilganlar.

3-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. Ixtisoslik sohasining ahamiyati to'g'risida ilmiy uslubdagi matn tayyorlang.
2. Fan rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlar haqida referat tayyorlang.

O'TTIZ BIRINCHI DARS

MAVZU: ILM SARI YO'L

Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matnni qisqartirib so'zlab berish. Ilmiy ishlarning fan va soha rivojiga qo'shadigan hissasi haqida gapirib berish.

Yozma nutq: "Soha rivojida fanning o'rni" mavzusida matn tuzish. Ilmiy ishlarning turlari haqida qisqacha tavsiflar yozish.

Grammatika: Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlarini o'rganish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarini o'rganing.

fan-texnika	hisoblash mashinalari
sifat o'zgarishlari	tub o'zgarish
elektron hisoblash mashinalari	asosiy sohalar
tub o'zgarishlar	zamonaviy fanlar
chorak asr	chuqur sifat o'zgarishlari
sifat o'zgarishlari	ishlab chiqarish kuchlari
kosmik fazo	malakali ishchilar

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Hozirgi vaqtda buyuk fan-texnika inqilobi ro'y bermoqda, bu inqilob taxminan chorak asr ilgari boshlandi. Fan-texnika inqilobi fan va texnikaning ko'plab sohalarida chuqur sifat o'zgarishlariga olib keldi. Eng qadimiy fanlardan biri astronomiya insonning kosmik fazoga chiqishi bilan bog'liq bo'lgan inqilobni boshidan kechirdi.

Kibernetika va elektron hisoblash mashinalarining paydo bo'lishi tufayli matematika fanida tub o'zgarishlar yasaldi, inson faoliyatida informatika deb atalgan yangi sohaga yo'l ochib berildi. Molekulyar biologiya vujudga keldi, kimyo fanidagi inqilob tufayli "katta kimyo" yaratildi. Geologiya, meteorologiya, okeanologiya va ko'plab boshqa hozirgi zamon fanlarida ham shunga o'xshash jarayonlar sodir bo'lmoqda.

Bugungi kunda texnikaning barcha asosiy sohalarida chuqur sifat o'zgarishlari yuz berayapti. Masalan, energetikadagi inqilob organik yoqilg'i bilan ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalaridan atom elektr stansiyalariga o'tish bilan bog'langan.

Bularning hammasini jamlab, FTI jamiyat ishlab chiqarish kuchlarida yanada malakali ishchilarni talab qiluvchi inqilobni tayyorlamoqda deb aytish mumkin.

FTI fanning jamiyat hayotidagi rolini tubdan o'zgartirib yubordi. Fan bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylandi. Endi va bundan keyin insonga zarur bo'lgan moddiy boyliklar ishlab chiqarish taqdiri fan sohasidagi yutuqlarga bevosita bog'liq bo'ladi.

3. Matn yuzasidan topshiriqlarni bajaring.

1. Gaplardagi ayrim so'zlar gapning ma'nosiga to'g'ri kelmaydi. Siz matndan kelib chiqqan holda bu so'zlarni mos keladigan so'zlar bilan almashtiring:

a) hozirgi vaqtda buyuk fan-texnika inqilobi amalga oshmayapti;

- b) molekulyar biologiya va genetikaning yuzaga kelishi biologiyada inqirozni vujudga keltirdi;
- d) ... biroq amaliyot uchun juda muhim xossalarga ega bo'lgan tabiiy materiallar sanoatini yo'q qildi;
- e) FTI fanning jamiyat hayotidagi rolini tubdan o'zgartirib yubormadi;
- f) madaniyat bevosita ishlab chiqaruvchi kuchga aylandi;
- g) endi insonga zarur bo'lgan moddiy boyliklar ishlab chiqarish taqdiri fan sohasidagi yutuqlarga mutlaqo bog'liq emas.

2. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

3. Tayanch so'z va so'z birkikmalaridan foydalanib matn mazmunini gapirib bering.

4. "Fan sirlari - cheksiz" mavzusida kichik bog'li matn tuzing.

4. "Talabalarning ilmiy-amaliy anjumani" mavzusida suhbatlashing.

Suhbat uchun savollar:

- 1. Institutingizda talabalarning ilmiy anjumanlari har yili o'tkaziladimi?
- 2. Siz o'qiyotgan fakultetda-chi?
- 3. Bu yil o'tkaziladigan anjumanda sizning guruhingizdan kimlar ma'ruza qilmoqchi?
- 4. Siz qanday mavzuda ma'ruza tayyorlayapsiz?
- 5. Ma'ruza yozishda siz qangay manbalardan foydalanasiz?

5. Quyidagi nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Taqriz (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiyommabop asar taxlili. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviybadiiy xususiyatlari, muallif ijotsida, adabiyotda tutgan o' rni xaqida ma'lumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi,

zarurini tanlab olishga ko'maklashadi. Ichki taqriz ham bo'ladi. Masalan, nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiy-ommabop asar ichki taqrizga beriladi, biroq, bu taqriz matbuotda e'lon qilinmaydi.

Rus tanqidchiligi tarixida taqrizning rivojida V.G. Belinskiyning roli katta. U taqrizni haqiqiy san'at darajasiga ko'tardi. Taqriz badiiy asar haqida shunchaki ma'lumot beruvchi janr darajasidan adabiy hayotning muhim masalalarini ko'taruvchi, kitobxonni hayot va adabiyot haqida o'ylashga o'rgatuvchi, uning estetik didini tarbiyalashga yordam beruvchi janrga aylanadi.

6. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Gaplarni o'qing, ulardagi qo'shma va juft so'zlarni toping va alohida-alohida ustunlarga ajratib, daftaringizga ko'chiring.

1. Farg'ona vodiysi osmono'par tog'lar bilan o'ralgan. 2. Quyosh tog'-toshlarni qizdirgan payt, ertapishar olmalar qip-qizil. 3. G'o'zapoyasi yig'ib olingan daladan yoz-u qish hosil olinadi. 4. Yosh-qari, erkak-ayol aralash-quralash bo'lib ko'cha boshida to'planishdi. 5. «Qo'shariq» jamoa xo'jaligida g'o'za obihayotga qondirilmoqda. 6. Ona-bola uy-joyini yig'ishtirib, sadarayhon atrofida dam olishdi. 7. Bu bodomqovoq qiz xushfe'l tabiati bilan katta-yu kichikning olqishiga sazovor bo'ldi.

2-topshiriq. Matn parchalarini o'qing, asosiy maznunni ifodalovchi gaplarni daftaringizning o'ng tomoniga, yordamchi, qo'shimcha mazmun bildiruvchi gaplarni chap tomoniga yozing va o'zaro qiyoslang.

I. G'azal nihoyat ta'sirli. Ayniqsa, uch-to'rt bolaning ovozi juda yoqimli, ohangdor. Hammamiz jim tinglaymiz. Men sel bo'lib, erib ketaman. Fuzuliyning she'rlarini sevaman. She'rlari nafis. O'zim gul va mahbub haqida go'zal she'rlarni bilaman. Opam o'rgatgan. (Oybek, «Bolalik»dan).

II. Beixtiyor o'zining ana shunday saodatli onlari, Humoyun tug'ilganda qalbini to'ldirgan iftixor tuyg'ulari yodiga tushdi. O'g'li Qobul arkida tavallud topgan edi. Viloyat yo'q, viloyat umidvorligi yo'q, navkar parokanda, sargardon sarg'ayib, Samarqand qamalida ochlikdan it etini, eshak etini yegan miskinlar bilan dahshatli

uqubatlar chekib, Toshkanda va Andijonda mislsiz mashaqqat va xorliklar tortib, nihoyat, Qobulda bir muddat qo‘nim va osoyish topgan kunlari edi, shikasta ko‘nglini quvonchga to‘ldirib, Humoyun dunyoga keldi.

(Xayriddin Sultonov, «Nuqta»dan).

2-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. “Soha rivojida fanning o‘rni” mavzusida matn tuzing.
2. Ilmiy ishlarning turlari haqida taqdimot tayyorlang.

O‘TTIZ IKKINCHI DARS

MAVZU: KASB ETIKASI

Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og‘zaki nutq: Soha xodimlarining odob-ahloq qoidalari bilan tanishish va ular haqida gapirib berish. Odob ahloq mavzusidagi hikmatlarni yod olish. Mavzu bo‘yicha bahs-munozarada ishtirok etish.

Yozma nutq: Odob-ahloq mavzusidagi kitobga annotatsiya yozish. “Mutaxassisning odobi va ahloqi” mavzusida dialog tuzish va uni insseniroyka qilish.

Grammatika: Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlarini o‘rganish.

1. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarini o‘rganing.

sevgan kasb	yoqmaydigan kasb
zavq	katta daromad
xursandchilik	zerikarli
shijoat	bekorchilik
rag‘bat	qiziqish va zavqlanish
ish maydonlari	mazmunli o‘tkazish

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Buyuk yozuvchilardan biri shunday degan edi: «Hayotda Siz uchun eng sevimli bo'lgan kasbni tanlab va Siz bir umr ishga bormaysiz». Agar kishi o'z sevgan kasbida ishlayotgan bo'lsa u hech qachon har ertalab o'zini ishga ketayapman, deb hisoblamaydi. O'z sevgan kasbi bilan shug'ullanish kishiga zavq, xursandchilik, shijoat, rag'bat hamda ma'naviy ozuqa beradi. O'zi yoqtirgan ishni qilayotgan kishi vaqt qanchalar tez o'tib ketganligini sezmay qoladi, u hech qachon bajarayotgan ishidan charchamaydi.

Bugun dunyo bo'ylab qanchadan-qancha kishi zavod-fabrikalarda, idoralarda, avtomobillarda, ish maydonlarida ish vaqtining tezroq tugashini intizorlik bilan kutib, tushlik vaqtining tezroq kelishi ilinjida soatga ma'yus termulib o'tirishadi. Bu toifadagi kishilar, o'z haddi-harakatlaridan ma'lumki, o'zlari yoqtirgan mashg'ulotni o'z kasblari sifatida tanlashmagan. Ya'ni, ular o'zlariga yoqmaydigan kasb bilan shug'ullanuvchi kishilardir.

Ba'zilar «Kishi bajarayotgan ishidan katta daromad olsa bo'ldi-da, kasb kishiga katta pul keltirsa bo'lgani, uning qilayotgan ishi o'ziga yoqishi ikkinchi darajali», deb hisoblashadi. Ammo hech bir kishi kasbidan zavqlana olmas ekan, o'z bajarayotgan faoliyati orqali katta daromadga erisha olmaydi. Balki biror kishi shug'ullanayotgan kasb katta foyda keltiradigan ishdir, balki kimlardir shu kasb ortidan katta daromadga erishayotgandir, ammo bu kasbning egasida o'z ishiga nisbatan qiziqish va zavqlanish bo'lmasa, u hech qachon o'z kasbidan barakat topa olmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda bugun haqiqiy hayotda kasbidan zavqlana olganlarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini, o'z kasbini yomon ko'rganlarning esa kunni zerikarli, bekorchilik bilan o'tkazishayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bunday sharoitda o'z kasbini sevgan, qilayotgan ishidan zavqlana olgan oddiy poyafzal ta'mirlovchisi bugungi kunda milliardlab foyda ko'rish mumkin bo'lgan ilg'or tashkilotda yetuk mutaxassis sifatida ishlovchi,

ammo o'z kasbini yomon ko'radigan, qilayotgan ishidan zavq topa olmaydigan kishidan ancha ko'proq foyda ko'rishi mumkin.

Ishoning, kasb – bu faqat pul topish usuli emas, balki hayotingizning katta qismini mazmunli o'tkazish vositasi sifatida ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Agar Siz hozirgi yoshingizda kelajakda shug'ullanishingiz uchun kasb tanlayotgan bo'lsangiz, faqatgina bu kasbdan Sizga keladigan moddiy daromadni emas, balki undan olishingiz kerak bo'lgan ma'naviy ozuqani ham hisobga oling. Bordi-yu Siz allaqachon biror kasbga ega bo'lsangiz, ammo bu kasb Sizning sevimli kasbingiz bo'lmasa, qilayotgan ishingizdan zavqlana olmasangiz, o'z bajarayotgan ishingizda xursandchilik, ma'no topishga intiling. Bajarayotgan ishingizdan zavqlanishni o'rganing. Agar buning iloji bo'lmasa, kasbingizni imkon qadar o'zingiz zavqlanib ishlaydigan faoliyat turiga o'zgartirishga harakat qiling.

Unutmang, Siz kasbingizda jon saqlashingiz emas, balki yashashingiz kerak. Shundagina qilayotgan ishingiz Sizning haqiqiy sevimli kasbingiz hisoblanadi!

3. Matn yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga munosib sarlavha tanlang.
2. Matndan foydalanib, uning mazmuniga oid so'zlarning ma'naviy guruhlarini tuzing.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu asosda savol-javob o'tkazing.
4. Matn mazmunini so'zlab bering.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari

Annotatsiya – kitob (maqola yoki to'plam)ning ixcham, qisqa tavsifi, uning mazmuni va qo'llanish sohasini ko'rsatuvchi ilmiy matn turi hisoblanadi. Annotatsiyada birlamchi matnda keltirilgan asosiy masalalar, muammolar sanab

o'tiladi, ba'zi hollarda uning tuzilishi, kompozitsiyasi tavsiflanadi. Qoidaga ko'ra, annotatsiy soda gaplardan tashkil topadi.

Annotatsiya ikkita majburiy qismlardan iborat bo'ladi:

1. Birlamchi manbaning mazmuniy tavsifi, muallifning maqsadi.
2. Annotatsiy berilayotgan matnning muallifi (adresat) haqida ma'lumot.

Yuqorida keltirilgan qismlardan tashqari qo'shimcha qismlar ham bo'lishi mumkin: 1) birlamchi matnning kompozitsiyasi, tuzilishi to'g'risida ma'lumot; 2) birlamchi manbaga keltirilgan illustratsiya materiallari.

Annotasiyaning mazmuniy qismlariga tegishli fikrlarni ifodalash uchun quyidagi nutqiy qoliplardan poydalanish mumkin: Matn mazmuning tavsifi: Kitob (maqola)da ... ko'rib chiqiladi; kitobda ... bayon etilgan (ko'rsatib berilgan); maqola ... tadqiqiga bag'ishlangan; Maqolada ... haqidagi tadqiqotlar o'z ifodasini topgan; Ishning asosiga ... maqsad qilib qo'yilgan; Muallif quyidagi masalalarga to'xtalib o'tgan (to'xtalishni maqsad qilib quygan) ... ; Muallif o'z ishida ... kabi muammolarga munosabatini bildirgan; Maqolaning maqsadi ... masalalarni ko'rsatib o'tishdan (tadqiq etishdan, tahlil etishdan) iborat; Muallifning maqsadi ... larni tushuntirib berishdan (ochib berishdan, ko'rsatib berishdan, asoslab berishdan) iborat; Maqolaning maqsadi ... kabilarni o'rganishdan iborat (o'rganish hisoblanadi). Muallif ... kabi masalalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ishning kompozitsiyasi haqidagi fikrlar quyidagi ifoda birliklari orqali berilishi mumkin:

Kitob ... bobdan (... bo'limdan, ... qismdan) iborat, taskil topgan. Maqola ... qismlarga bo'linadi. Kitobda ... boblar ajratilgan.

Matnlarning kim uchun mo'ljallanganligini ko'rsatish uchun quyidagi nutqiy ifodalardan foydalanish mumkin: Maqola ... uchun mo'ljallangan (... lar uchun tavsiya etiladi). Ushbu to'plam ... lar uchun foydalanishni nazarda tutadi. ... keng kitobxonlar (o'quvchilar) ommasiga mo'ljallangan. Talabalar, magistrantlar, mazkur soha bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, tadqiqotchilarga foydalanish uchun tavsiya etiladi. Kitob ... larni qiziqtiradi va b.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Namuna asosida biron bir kitob uchun annotatsiya yozing.

Соловьев В.С. Философия искусство и литературная критика. – М., 1991.

Vladimir Sereyevich Solovyov (1853-1900) – XIX asrning oxirgi uchinchi o'n yilligida Rossiyaning aqliy, jamoatchilik va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan siymolardan biri. Futafakir va shoir, u butun bir falsafiy izlanishlar olib borilgan butun bir davrning yakunlovchisi bo'lib maydonga chiqdi va XX asrning yangi g'oyaviy va badiiy oqimi, ayniqsa simvolizm oqimiga turtki berdi. V.S. Solovyovning asarlar to'plamida uning muhim estetik qarashlari mavzularga mos tarzda quyidagi bo'limlarga ajratilgan holda ko'rsatilgan: "Guzallik qiyofani o'zgartiradigan kuch sifatida", "Rassomning ma'naviy vazifasi", "Rus shoirlari haqida maqola", Ensiklopedik maqolalar. Taqrizlar. Qaydlar".

2-topshiriq. Quyidagi namuna asosida biron bir ilmiy maqola uchun annotatsiya yozing.

Lopatina E. V. Ingliz va rus tillarida zoonim komponentlardan tashkil topgan ilmiy-texnik terminlar kategoriyalari.

Maqola ilmiy-texnik xarakterdagi ma'lum bir miqdor leksik birliklar tarkibida ma'noni shakllanishida muhimkomponent hisoblangan "zoonim" termini tushunchasi ochib berilgan. Shuningdek, bunday zoonimik terminlar qo'llanishi mumkin bo'lgan ishlab chiqarish sohasi ko'rsatilgan. Mazkur ishda zoonimik ilmiy-texnik terminlar ma'lum bir kategoriyaga tegishliligi nuqtayi nazaridan tahlil etilgan, har bir kategoriyaga tegishli terminologik birliklarning miqdori belgilangan. Ilmiy adabiyotlarda mavjud, shuningdek maqola muallifiga tegishli kategoriyalar tasnifi keltirilgan. Tahlillar inglizcha va ruscha misollar bilan asoslab berilgan.

3-topshiriq. Quyidagi namuna asosida biron bir darslik yoki uslubiy ish uchun annotatsiya yozing.

Mualliflar: Mahmudovn., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. «Davlat tilida ish yuritish».

Ushbu darslik fanning namunaviy o'quv dasturi asosida yaratilgan. Unda yozma nutq savodxonligini oshirish, matn yaratish va uni ijodiy o'zgartira olish yo'llari,

o'zbek hujjatchiligi tarixi, hujjat turlarini tuzish, zaruriy qismlarni to'g'ri qo'yish, ish yuritish madaniyatiga oid nazariy ma'lumotlar, bu mavzularni mustahkamlashga oid mashq va topshiriqlar berilgan.

Darslikdan oliy o'quv yurtlari talabalari va o'qituvchilar, ish yuritish xodimlari foydalanishlari mumkin.

4-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. "Siz kasb etikasini qanday tushunasiz?" mavzusida matn tuzing.
2. Odob-ahloq mavzusidagi kitobga annotatsiya yozing.
3. "Mutaxassisning odobi va ahloqi" mavzusida dialog tuzing va uni inssenirovka qiling.

O'TTIZ UCHINCHI DARS

MAVZU: NUTQ ODOBI

Me'yor tushunchasi

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Mavzuga oid matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Matnga munosabat bildirib so'zlash. Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatinnng ahamiyati haqida gapirib berish.

Yozma nutq: "Mutaxassisning nutq madaniyati" mavzusida matn tuzish. Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida kasbiy o'yin senariysini tuzish va uni inssenirovka qilish.

Grammatika: Me'yor tushunchasi haqida bilimga ega bo'lish.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarni o'rganing.

inson qiyofasi	muomala vositasi
insonning jamiyatdagi o'rne	nutqiy faoliyat
his – tuyg'u	nutq madaniyati
tafakkur qilmoq	yozma shakl
mushohada etmoq	og'zaki shakl

2. Quyidagi matnni o'qing va o'rganing.

Nutq odobini saqlash nihoyatda og'ir va mas'uliyatli vazifa. Garchi uning umuminsoniy va milliy qoidalari mavjud bo'lsa ham, u har bir kishida ularning o'zligini ko'rsatuvchi alohida fazilat sifatida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bir vaziyatdagi muomala jarayoni ikkinchi holatda qaytarilmasligi mumkin. Har qalay, biz odobning umuminsoniy aqidalaridan xabardor bo'lishimiz zarur.

Muloqot jarayonida har ikki omil – til va tildan tashqaridagi omillar baravar ishtirok etganligi hamda birdek ahamiyatga ega bo'lganligi uchun bu o'rinda ularni ajratishga harakat qilmaymiz. Asosiy e'tiborni jarayonning o'ziga qaratamiz.

Nutq odobining zarur sharti yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqeidan qat'i nazar, suhbatdoshlar o'rtasidagi samimiy munosabat va hurmat-ehtirom bo'lib hisoblanadi. Mana shu omillar bo'lgan joyda so'zlovchining o'z shaxsini ustun qo'yishiga, suhbatdoshini mensimasligiga, fikrini ortiqcha ovoz va harakatlar bilan ifoda etishiga o'rin qolmaydi. Bunday paytlarda, odatda, suhbat ijobiy yakunlanadi.

Faqat shu narsani ta'kidlash mumkin bo'ladiki, suhbat jarayonida ohang juda katta vazifani bajaradi. Kayfiyat qanday bo'lishdan qat'i nazar bu jarayonda eng ma'qul ohangni tanlash so'zlovchini maqsadiga erishtiradi. So'zlarni aniq-ravshan talaffuz qilish, muloyim va mayin ovoz bilan hovliqmasdan gapirish tinglovchida hamisha so'zlovchini tushunishga harakat qilish istagini paydo qiladi. Birgina o'tiring so'zini turli ohangda talaffuz qilish bilan vaziyatga qarab iltimos, talab, maslahat, ogohlantirish, buyruq, jerkish kabi ma'nolarni ifoda etish mumkin. Shuning uchun ham gapirganda ohangga ehtiyot bo'lish lozim.

Qayerda nima haqda gaplashishni bilish ham nutq odobining eng zarur shartlaridan sanaladi. Masalan, to'yda o'limdan va azadan gapirish ma'qul bo'lmaganidek, azada ham to'yu tantanadan so'zlash yoki kulib o'tirish, bo'lar-bo'lmasga yonma-yon o'tirganlarni gapga tortish ma'qul ish emas. Atrofdagilarning kayfiyatini, mavqei va yoshini hisobga olmasdan turib hazil qilish yoki latifa aytish ham (arosatli kishining ishi emas. Maqtov va xushomad ham hammaga yoqadi, ammo u nosamimiy bo'lsa, hurmat sanalmaydi.

Suhbat jarayoni turli paytlarda, turli joylarda yuz berishi mumkin. Har bir vaziyat o'z odob qoidalariga ega. Ammo ularning barchasi uchun umumiy holat shuki, so'zlashdan ko'ra tinglashga ko'proq ahamiyat berish lozim bo'ladi. Yoshi kattalarning gapirishiga ko'proq imkoniyat berish lozim. Suhbatdoshning gapini mumkin qadar ma'qullab turish, agar bildirayotgan fikrlari ma'qul bo'lmasa, buni yotig'i bilan tushuntirish, hech imkoni bo'lmasa, suhbat mavzusini boshqa tomonga burish lozim topiladi.

Xullas, *nutq odobi muloqot jarayonida* nihoyatda zarur bo'lib, u insonda an'anaviy urf-odatlarini o'zlashtirish, ota-ona, ta'lim muassasalari, atrof-muhit, badiiy va ilmiy adabiyotlarni o'qish davomida o'zlashtirib boriladi.

3. Matn yuzasidan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga sarlavha tanlang.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing va savol-javob uyushtiring.
3. Matnning asosiy g'oyasini aytib bering.
4. Quyidagi so'zlarning izohini aytib bering: tafakkur, mushohida, hayotiylik, hohish-istak, nutqiy faoliyat, nutq madaniyati.

4. Quyidagi savollarga javob bering.

1. Til inson hayotida qanday o'rin tutadi?
2. Inson jamiyatda tilsiz ham yashay oladimi?
3. Til va nutqni qanday tushunasiz?
4. Davlat tilini o'rganish sizga nimani beradi?

5. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Me'yor tushunchasi

Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Me'yor - tilning yashash shaklidir. Til va nutq tizimida me'yor o'ziga xos o'rniga ega. Til material sifatida nutq jarayonida xizmat qila boshlagan lahzalardanoq uni me'yorlashtirish jamiyat ehtiyojiga aylangan va me'yoriy muammolar kun tartibiga qo'yilgan.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlarning o'rinli va o'rinsiz ishlatilishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'lchovga asoslanamiz. Mana shu o'lchov tilshunoslikda adabiy til me'yori deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yori. 3. Argolar, jargonlar me'yori. 4. Adabiy til me'yori⁵¹. Jamiyat taraqqiyoti bilan baravar holda til va nutqdagi me'yoriy holatlarni o'rganish, tahlil qilishga ham ehtiyoj kuchayib borgan va bu muammolarni hal qilishda xalqning maishiy, ma'naviy-ma'rifiy turmushi, ijtimoiy-falsafiy va estetik dunyoqarashi, urf-odatlarini singari qator omillar e'tiborga olingan. Til hodisalarini, uning me'yoriy jihatlarini tadqiq etishda yana tilning milliy xususiyatlarini hisobga olmaslik ham aslo mumkin bo'lmagan.

Demak, me'yor milliylik va tarixiylik mazmunini kasb etadi, necha yuz, ming yillar davomida shakllangan an'anaviylikka ega bo'ladi. Tildan foydalanishdagi an'anaviy me'yorlarning davrlar o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib turishi ham tarixiy jarayondir.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. "Mutaxassisning nutq madaniyati" mavzusida matn tuzing.

2-topshiriq. Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida kasbiy o'yin senariysini tuzing va uni insseniroyka qilish.

3-topshiriq. Berilgan gaplardagi mantiqqa zid qo'llangan so'zlar o'rniga mantiqan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Sattorov yolvorgan ohangda ko‘zlarimga umidvor qaradi. 2. Ikkalamiz ham tubsiz ko‘ngilsizlik oldidan picha tinchlanishimiz kerak edi. 3. Sattorov zarda bilan planshetni irg‘itib yubordi-da, mening so‘zlashim ga erk bermay, sakrab o‘rnidan turdi. 4. Men Ahmadni chaqirish oldidan stol ustiga uning Valitov bilan tushgan suratini ham, Zaremaning foto-suratlarini ham sohib qo‘ygan edim. 5. Mana, u oyoq uchida sekin yonimga yo‘rg‘alab keldi-da, meni odatdagiday so‘roqlarga ko‘mib yubordi. (M. Nasibullin) 6. U jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish uchun insonlarning ma‘naviyatini yuksaltiruvchi asarlar yaratdi. (A. Olimov)

O‘TTIZ TO‘RTINCHI DARS

MAVZU: SAN‘AT VA MA‘NAVIYAT

Umumxalq leksikasiga kirgan san‘atshunoslik leksikasi

Darsning maqsad va vazifalari:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma‘nosini izohlash. Matnni ijodiy so‘zlash.

Yozma nutq: “San‘at mening hayotimda” mavzusila esse yozish. San‘atkorlarni ta’riflab, reklama matnini tayyorlash. O‘zbek kinosinng mavzulari va muammolari haqida publitsistik maqola yozish. Madaniy hordiq odobi qoidalarini yozish.

Grammatika: Umumxalq leksikasiga kirgan san‘atshunoslik terminlarini o‘rganish.

1. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarni o‘rganing.

musiqasana'ti	tasviriysana't
cholg'u asboblari	amaliysana't
musiqanazariyasi	ganchkorlik
mahoratli sozanda	zargarlik
bastakor va hofiz	yog'och o'ymakorligi
milliy qo'shiqchilik	naqqoshlik
ravnaq topmoq	kulolchilik

2. Matnni o'qing va o'rganing.

O'zbekistonda san'atning deyarli barcha turlari mukammal rivojlangan. Musiqa san'atida qadimgi davrlardan to bugungi kunimizgacha bebaho kuy, qo'shiqlar, cholg'u asboblari va musiqa nazariyasiga oid asarlar yaratilgan. Juda ko'p mahoratli sozandalar, bastakorlar, hofizlar o'zbek san'ati dovrug'ini olamga taratishgan. Xususan, Tamaraxonim, Halima Nosirova, Ma'murjon Uzoqov, Komiljon Otaniyozov, Botir Zokirov, Farrux Zokirov, Yulduz Usmonova, G'ulomjon Yoqubov kabi o'zbek qoshiqchilarining nomi jahonga mashhurdir. O'zbek milliy qo'shiqchiligi va sozandachiligi kundan kunga rivojlanib, ravnaq topib bormoqda.

O'zbekiston tasviriy san'ati ham o'zining qadimiy ildizlariga ega. XXV-XXVI asrlarda Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali kabi buyuk rassomlar asos solgan an'analar hozirgacha davom etib kelmoqda. Respublika tasviriy va amaliy san'at bilim yurtida qadimiy hunarmandchilik turlarining san'at darajasiga ko'tarilgan ganchkorlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kulolchilik sirlari yosh avlodga o'rgatilayotgan bo'lsa, rassomchilik kollejida tasviriy san'atning rang-tasvir, portret, peyzaj, miniatura, naturmort kabi turlari o'qitilmoqda. O'zbek rassomlari Chingiz Ahmarov, Abdulhaq Abdullayev, Bahodir Jalolov, Ro'zi Choriyev, Muzaffar Abdullayev, Jamol Usmonovlarning asarlari dunyodagi ko'pgina nufuzli ko'rgazmalarda namoyish qilingan.

Kino san'ati ham O'zbekistonda juda yuqori darajada rivoj topgan. Kinoning barcha turlari – badiiy film, hujjatli film, teleseriallar, multiplikatsiya, ilmiy-ommabop filmlar sanoatining shuhrati MDH mamlakatlarida mashhur. Har yili “O'zbekfilm” kinostudiyasida tarixiy, sarguzasht, detektiv, sevgi va hayot hamda mehr-vafo haqidagi yuzlab filmlar suratga olinadi. “Mahallada duv-duv gap”, “O'tgan kunlar”, “Kelinlar qo'zg'aloni” kabi filmlarni o'zbekistonliklar juda sevib tomosha qilishadi.

O'zbek teatr san'ati ham o'z tarixiga, rivojlanish bosqichi ham o'ziga xos an'alariga ega. Teatr san'ati darg'alari Abror Hidoyatov, Sora Eshonto'rayeva,

Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, G'ani Ag'zamov, Soyib Xo'jayev kabilar o'zbek teatr san'atini yuqori pog'onaga ko'targanlar. Ular ishtirokidagi har bir spektakl tomoshabinlarga olam-olam ma'naviy ozuqa bergan.

O'zbekistonda, shuningdek opera, balet, estrada, me'morchilik kabi san'at turlari ham katta yutuqlarga ega bo'lgan holda rivojlanib bormoqda.

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga munosib sarlavha tanlang.
2. Matndan foydalanib, uning mazmuniga oid so'zlarning ma'naviy guruhlarini tuzing.
3. Quyidagi so'z va so'z birikmalarni izohlab bering: san'atning turlari, musiqa san'ati, kuy va qo'shiq, milliy qo'shiqchilik, milliy sozandachilik, ganchkorlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kulolchilik.
4. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu asosda savol-javob o'tkazing.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik leksikasi

San'atshunoslik (san'at tarixi) atamasi mazmun jihatidan ancha murakkab. U «san'atni o'rganadigan ijtimoiy fanlar majmui - umuman jamiyatning badiiy madaniyati, san'atning alohida turlari, ularning voqelikka bo'lgan munosabati, rivojlanish qonuniyatlari, ularning ijtimoiy hayot va turli madaniy hodisalar bilan aloqasi, san'at asarlarining shakli va mazmuniga oid savollar to'plami. San'at tarixi adabiy tanqidni (ko'pincha filologiya fanlari majmuasida ko'rib chiqiladi), musiqashunoslikni, teatrshunoslikni, kinoshunoslikni, shuningdek tor va eng keng tarqalgan ma'noda san'atshunoslikni - plastik san'at fanini o'z ichiga oladi. San'atshunoslik san'at nazariyasi, ularning tarixi va badiiy tanqididan iboratdir ». San'atshunoslik atamasi ko'pincha boshqa nominativ birliklar - san'at nazariyasi va san'at tarixi, san'atshunoslik bilan o'zaro bog'liqlik orqali aniqlanadi. Shunday qilib, san'at tarixi terminologiyasi ijodiy faoliyatni amalga oshirishning amaliy yo'nalishlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan nazariy soha atamalari tizimidir.

Ushbu ta'riflarning birinchisida ko'rib chiqilayotgan ijod sohasi va adabiy tanqid - filologiya fanlarining o'ziga xos xususiyati o'rtasida yaqin bog'liqlik

mavjud. Boshqa bir ilmiy sohaning butun to'plamini muddatli tizimga kiritish bu muddatli tizimlar uchun juda g'ayrioddiy. Barcha zamonaviy terminologik tizimlar zamonaviy fanlarning birlashishi va fanlararo aloqalarini amalga oshirish tufayli jalb qilingan atamalarni tez-tez ishlatadilar, ammo bunday atamalar, qoida tariqasida, boshqa donor terminologik tizimlarning boshqa birliklari bilan tizimli aloqalarini yo'qotadi yoki ikkinchi darajali terminologik tizimlarni yaratish uchun ularni alohida mikrofonlarga moslashtiradigan terminologik tizimlarni yo'qotadi. Bitta terminologik tizimning boshqasi bilan to'liq kiritilishi san'at tarixi terminologiyasining xususiyatidan va terminologik tizimlarni aralashtirishning o'ziga xos jarayonlaridan dalolat beradi.

San'atshunoslik atamasi tor va keng ma'noda qo'llaniladi. Terminni tor va keng ma'noda anglash imkoniyati uning ma'nosining noaniqligidan dalolat beradi, bu nafaqat atamalar tizimining buzilishini, balki fanning o'zini tashkil qilishda munozarali nazariy jihatlar mavjudligini ham ko'rsatadi. Ushbu atama tor ma'noda ishlatilganda, musiqashunoslik, teatrshunoslik va kinoshunoslik haqida hech narsa aytilmaydi. Solishtirish: "San'at ostida me'morchilik, haykaltaroshlik, rasm, dekorativ va amaliy san'atni o'rganadigan fanlarning umumiyliigi tushuniladi".

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Matnni o'qing, mazmunini so'zlab bering. Gaplarni qaysi nutq uslubiga mansubligini va o'ziga xos uslubiy vositalarini aniqlang.

Ultra tovushlar kashf etilgunga qadar har qanday tovushni qabul qilish vositasi insonning eshitish a'zosi bo'lgan quloq deb hisoblangan. Tovush to'lqinlarining vujudga kelishi va tarqalishi bilan bog'liq hodisalar akustik hodisalar deb yuritiladi. Hozirgi paytda tovushning havodagi tezligi normal sharoitda 33m/sekundga teng bo'lsa, suvdagi tezligi 1500 m/sekund, po'latda esa 6000 m/sekund ekanligi o'lchov asboblari yordamida aniqlangan.

2-topshiriq. Yozma nutqingizni o'stiring.

1. "San'at mening hayotimda" mavzusila esse yozing.

2. San'atkorlarni ta'riflab, reklama matnini tayyorlang.
3. O'zbek kinosining mavzulari va muammolari haqida publitsistik maqola yozing.
4. Madaniy hordiq odobi qoidalarini yozing.

O'TTIZ BESHINCHI DARS
MAVZU: "MEN SEVGAN ASAR"
Badiiy tasvir vositalari

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Sevimli asar haqida so'zlab berish. Zamonaviy o'zbek adabiyoti haqidagi ma'lumotlarni aytib berish. Mashhur o'zbek shoirlari ijodidan namunalar yod olish.

Yozma nutq: "Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta'siri" mavzusida esse yozish. Yangi kitoblar haqida polilog matnini tuzish va uni insseniroyka qilish.

Grammatika: Badiiy tasvir vositalari haqidagi bilimlarni egallash.

1. Quyidagi so'z va so'z birikmalarni o'rganing.

kitobxon	rahmatli bobojonim
asar olami	hayotdan olingan
sho'ng'imoq	bosh qahramon
asar qahramoni	haqiqiy ismlari
kitoblar sirasi	qiziqmoq
zerikmadim	

2. Matnni o'qing va o'rganing.

Aslida kitobning yomoni bo'lmaydi. Ammo shunday asarlar, shunday kitoblar bo'ladiki - uni o'qigan kitobxon kunlar, oylar hatto yillar davomida shu asar qahramonlari bilan yashaydi. Kitobxon bu asar olamiga shunday sho'ng'iydiki -

go'yo o'zi shu asar qahramoni bo'ladi, gohida asar qahramonlari bilan yig'laydi, gohida ular quvonchiga sherik bo'ladi.

Albatta, unaqa kitoblar ko'p, ayniqsa o'zbek adabiyotida. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarini ana shunday kitoblar sirasiga kiritishimiz mumkin. Masalan men bu kitobni birinchi marta o'qiganimda juda kichkina edim, taxminan 8-9 yoshlar, shundan keyin uni yana ko'p marta o'qidim, hecham zerikmadim shu kitobni o'qishdan... Hozir ham, albatta, hech ikkilanishsiz o'qiyotgan bo'lardim, afsuski, kimdir kitobimni oldi-yu qaytarib bermadi. Yangisini olsam bo'ladi-yu, lekin aynan o'sha, men birinchi marta o'qib ta'sirlangan kitobimning qadri boshqacha edi. U rahmatli bobojonimdan qolgandi...

Bu romandagi voqealar hayotdan olingan ekan. Romandagi qahramonlarning ko'pchiligi bilan o'zim gaplashganman deb yozadi Otkir Xoshimov. Agar bu rost bo'lsa ularning hayotdagi haqiqiy ismlari nima ekanligiga qiziqaman va bosh qahramon Muzaffar Shomurodov hozir hayot bo'lsalar ular bilan uchrashgim va suxbatlashgim keladi

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga munosib sarlavha tanlang.
2. Matndan foydalanib, uning mazmuniga oid so'zlarning ma'naviy guruhlarini tuzing.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu asosda savol-javob o'tkazing.
4. Matnni so'zlab bering.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Badiiy tasvir vositalari

Har bir ijodkor qalam tebratar ekan badiiy ifodani mazmunan quyuqlashtirish, uni his-hayajonlarga yo'g'irish uchun so'z salohiyatiga tayanadi. Har bir so'z shakl-shamoyili, rang-bo'yog'i, o'z salmog'i va ohangiga ega. Har bir ijodkor oddiy so'zlovchidan so'z sohibiga, undan esa so'z san'atkoriga ko'tarilishi uchun «so'z sezgisi», «so'z jozibasi», «so'z sehri » kabi bosqichlarni egallashi lozim. Shoir

qalam tebratar ekan uning ixtiyorida bir necha vositalar mavjud. Bu vositalarning eng muhimlari badiiy tasvir vositalari, she'riy san'atlardir.

She'riy san'atlar yillar mobaynida adabiyotshunosligimizda shakllanib, «ilmi bade'» nomini olgan badiiylik ilmining asoslaridir. Ular asar jozibasini ko'rsatish va shoir mahorat qirralarini ochishga xizmat qiladi. Yozuvchilar tasviriy vositalar yordamida o'zlari tasvirlayotgan narsa hodisalarning ba'zi bir tomonlarini, yoki belgisini aniq va qisqa xarakterlab berishga erishadilar. Yozuvchi har bir hodisani aks ettirganda, uning muayyan sharoitda muhim hisoblangan sifatini ajratib ko'rsatadi. Shuning uchun ularni o'quvchilarga o'rgatishda yangicha yondashuv, o'zgacha usul va shakllarga murojaat qilish kerak. She'riy san'atlar o'quvchilar o'zlashtirgan til birliklari, kundalik hayotda uchraydiga yaqin va tanish tushunchalar orqali singdirilsa, mashg'ulotlar jonli kechadi. Bolalar so'zning matnda bajaradigan estetik vazifasini his etadilar. Masalan, tazod san'ati tushuntirilganda rangli qog'ozlardan foydalanish mumkin. Oq rangli qog'oz yoniga sariq, moviy va qora rangli qog'ozlarni qo'yib, oq qaysi rangni oldida ko'proq ajralib turganligi so'raladi. O'quvchilar bu qora rang ekanligini bir qarashdayoq anglaydilar. Oq va qora ranglar yonma-yon turganda bir-birini yorqinroq ko'rinishi va ifodalanishiga xizmat qiladi. Bu xulosa aytilgach, o'quvchilardan hayotda shu ranglar kabi bir-birini bo'rttirishga xizmat qiladigan holat, tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar, masalan, *yaxshi-yomon*, *zulm-adolat*, *boy-kambag'al* kabi so'zlar keltiriladi. Bu so'zlar tilda antonim — zid ma'noli so'zlar deyilsa, adabiyotda *tazod* deb ifodalanishi aytiladi va ta'rifi misollar bilan yozdirib qo'yiladi.

Tazod arabcha so'z bo'lib, qarshilantirish usulining klassik adabiyotda qo'llangan bir ko'rinishi. Tazodda qarama-qarshi qo'yilgan ikki tomon ayni zamonda uzviy ravishda bir-biriga bog'lanib keladi. Qarshilantirilayotgan narsa, belgi-xususiyat va holatni yorqin va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi:

Sendek menga bir yori *jafokor* topilmas,

Mendek senga bir zori *vafodor* topilmas. (Bobur)

Soʻzlarni koʻchma maʼnoda qoʻllash ham nutq ifodaliligini taʼminlash uchun tuganmas manbadir. Nutqda deyarli barcha asosiy holatlarda koʻchma maʼno emotsional-ekspressiv boʻyoqdorlik kasb etadi.

Nutqda soʻzlarni koʻchma maʼnoda ishlatishning xilma-xil koʻrinishlari mavjud boʻlib, ular koʻchimlar nomi bilan umumlashtiriladi. Koʻchimlarning asosida ikki narsa yoki tushunchani qiyoslash yotadi, yaʼni ikki narsa yoki tushuncha oʻrtasidagi muayyan munosabat (oʻxshashlik, umumiylik, aloqadorlik kabi) asosida tasviriylilik, ifodalilik, aniqlikni kuchaytirish maqsadi bilan ulardan birining nomi ikkinchisiga koʻchiriladi.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Berilgan misralarda lochin soʻzining qanday maʼnoda qoʻllanganini tushuntiring, undagi koʻchma maʼno nima asosda yuzaga kelganini ayting.

Qutlugʻ joy koʻp erur ushbu dunyoda,

Yulduzni koʻzlagan lochin ham talay. (A. Oripov)

2-topshiriq. Berilgan parchadagi iboralarni toping. Ularning matn ifodalili gini taʼminlashdagi ishtirokini izohlang.

Uyat eng shafqatsiz qonundan ham kuchliroq, qudratliroqdir. Qonun faqat koʻzi tushganda, shubha paydo qilgandagina jinoyatchining qoʻlini ushlaydi, yoʻlini toʻsadi. Uyat esa hamisha odobsiz, axloqsiz jinoyatchining tepasida turib, nojoʻya ish qilish uchun qoʻl koʻtargani yoʻl qoʻymaydi.

Har qanday qonunga ham chap berish mumkin, lekin uyatga chap berib boʻlmaydi, chunki qonun odamdan tashqarida, uyat esa odamning koʻksida boʻladi. (Abdulla Qahhor)

3-topshiriq. Muhammad Yusuf qalamiga mansub sheʼriy parchalarni oʻqing. Ulardagi nutqiy ifodalilikni taʼminlayotgan leksik va fonetik vositalarni aniqlang.

Qadim yurtga qaytsin qadim navolarim,

Qumlar bosib qurimasin daryolarim.

Boʻlar elning bolalari bir-birin der,

Boʻlmas elning bolalari bir-birin yer.

Kapalakday kelib, qoshingga qo‘nib,
Ko‘zingga termulib umrim o‘tsaydi...

4-topshiriq. Yozma nutqingizni o‘stiring.

1. Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta'siri" mavzusida esse yozing.
2. Yangi kitoblar haqida polilog matnini tuzing va uni inssenirovka qiling.

O‘TTIZ OLTINCHI DARS

MAVZU: “IQTISOD VA HAYOT”

Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar

Darsning maqsad va vazifalari:

Og‘zaki nutq: Mavzuga oid matnni o‘qib tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash. Matndagi asosiy fikrni ajratib so‘zlab berish.

Yozma nutq: Mamlakat iqtisodiyotida yuz bergan yangiliklar haqida xabar tayyorlash. Iqtisodiy terminlar tarkibidagi qisqartma otlar lug‘atini tuzish. Iqtisodiyotga oid qiziqarli ma'lumotlarni topib yozish.

Grammatika: Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar haqida bilimlarni egallash.

1. Quyidagi so‘z va so‘z birikmalarni o‘rganing.

iqtisodiyot	munosabat
jamiyat	iqtisodiy hayot
rivojlanishi manbai	ijtimoiy hayot
moddiy ehtiyoj	madaniy hayot
ma'naviy ehtiyoj	siyosiy hayot
ehtiyojlarini qondirish	ma'muriy-buyruqbozlik

2. Matnni o‘qing va o‘rganing.

Iqtisodiyot jamiyat hayotining muhim sohalaridan biri bo'lib, inson rivojlanishi manbaini tashkil qiladi. Unda insonlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida turli ne'mat va vositalarni ishlab chiqaradilar va o'zaro iqtisodiy munosabatlarga kirishadilar.

Iqtisodiy hayot kishilarning ijtimoiy, madaniy, siyosiy hayot sohalarining moddiy asosini tashkil etadi va ularning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va davlat tizimi iqtisodiyotga jiddiy ta'sir etadi.

Sobiq totalitar, ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida siyosat iqtisodiyotdan ustun bo'lib, uning rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berardi. Bu tuzumning iqtisodiy negizini davlat va kolxoz-kooperativ mulkchilik shakllaridan iborat umumxalq mulki tashkil etardi. Davlat asosiy ishlab chiqarish fondlarining 90 foizdan ortig'iga ega bo'lib, iqtisodiyotda yakka hokimlikni o'rnatgan edi. Buning oqibatida davlat iqtisodiyotni, iqtisodiy hayotni bir markazdan ma'muriy-buyruqbozlik asosida boshqarib borar edi.

Jamiyat a'zolari ijtimoiy mulkka egalik qilish huquqidan mahrum edilar. Tadbirkorlik, biznes bilan shug'ullanish qonun bilan man etilgan edi. Bunday faoliyat bilan shug'ullanganlar chayqovchi, yot unsur sifatida jinoiy javobgarlikka tortilar edilar.

Kishilarning mulkdan, uning natijalarini tasarruf etishdan begonalashganligi tufayli, mehnat motivatsiyasi sust. Pirovard natijada sobiq ittifoq chuqur tanazzulga uchradi.

Ma'lumki, shaxsning mulkdor bo'lish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash, o'zi istagan iqtisodiy faoliyat turi bilan erkin shug'ullanish hamda shunga muvofiq cheklanmagan daromad olish va yaxshi yashash imkoniyatlariga ega bo'lish kabi huquqlarini amalga oshirishni faqat ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotigina ta'minlashga qodirdir.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadida tub islohotlarni amalga oshirmoqda.

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Matn bilan tanishib, unga munosib sarlavha tanlang.
2. Matndan foydalanib, uning mazmuniga oid so'zlarning ma'naviy guruhlarini tuzing.
3. Matn yuzasidan savollar tuzing va shu asosda savol-javob o'tkazing.
4. Matnni so'zlab bering.

4. Quyidagi nazariy ma'lumotni o'rganing.

Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar

Iqtisodiy terminologiya o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ba'zan terminlar ko'plab ma'nolarga ega bo'ladi. Iqtisodiy matnlarda maxsus leksika va terminlardan tashqari umum iste'moldagi leksika ham uchraydi. Lekin bunda quyidagini inobatga olish kerak. Umumiste'moldagi leksikaning bir qismi tarjima jarayonida qiyinchilik tug'dirmaydi.

Shuningdek iqtisodiy matnning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri unda qisqartma va abbreviaturalarning mavjudligidir. Ularning ko'pchiligi faqatgina iqtisodiy matn va hujjatlarda uchraydi. Masalan, O'zbek tilida: QQS – qo'shimcha qiymat solig'i; rus tilida: НДС - налог на добавленную стоимость; Ingliz tilida: VAT - value-added tax.

Iqtisodiy matnlar, asosan, kognitiv ma'lumot yetkazishga xizmat qiladi. Iqtisodiy matnlar tarjimasining maqsadi mamlakatlarning o'ziga xos realiyalarini yetarlicha tarjimada bayon etish, tarjima talabgoriga tushuntira olishdir. Bular faqatgina o'z ekvivalent terminlari orqali namoyon bo'la oladi. Iqtisodiy matnlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish orqali quyidagi xulasalarni chiqarish mumkin: Iqtisodiy matnlarni tarjima qilish jarayonida obyektivlik, mantiqiylik va aniqlik dominantdir. Bundan tashqari original matndagi so'zning tarjima tilida ekvivalenti bo'lmasa, yoki aynan kontekstdagi ma'noni to'liq anglata olmasa, tarjimon turli transformatsiyalardan foydalangan holda originaldagi birlikni adekvat tarzda tarjimada shunga mos birlik bilan namoyon etishi kerak. Tarjimada transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash, konkretizatsiya, generalizatsiya, modulyatsiya, orttirish, tushirib qoldirish, ajratish, gaplarni

birlashtirish, antonimik tarjima, kompensatsiya kabi transformatsiyalardan foydalaniladi.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1-topshiriq. Yozma nutqingizni rivojlantiring.

1. Mamlakat iqtisodiyotida yuz bergan yangiliklar haqida taqdimot tayyorlang.
2. Iqtisodiy terminlar tarkibidagi qisqartma otlar lug'atini tuzing.
3. Iqtisodiyotga oid qiziqarli ma'lumotlarni topib yozish.

2-topshiriq. Sh. Rahmatullayevning «O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati»dan olingan quyidagi iboralarning izohlarini esda tuting va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Og'zining tanobi qochmoq - Behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig'ishtirib ololmaslik. Ma'nodoshi: og'zi qulog'iga yetmoq; boshi ko'kka yetmoq; terisiga sig'may ketmoq; qo'yi mingga yetmoq.

Payiga tushmoq 1. Zimdan yurib butun xatti-harakatini ta'qib qilmoq. Ma'nodoshi: iziga tushmoq; ketiga tushmoq; orqasiga tushmoq. O'xshashi: payidan tushmoq. 2. Manfaatdor bo'lgani holda berilib harakat qilmoq. Ma'nodoshi: ketiga tushmoq.

3-topshiriq. «Otalar so'zi» kitobidan olingan maqolani o'qing. Undagi fikrning mantiqiy izchilligi va muntazam bayoni, bunda til vositalarining o'zaro munosabatidagi tugallikka e'tibor qiling. O'zingiz matn tuzganda, buni yodda tuting.

Ertagi borning ertasi bor

Xalqimiz shoir va donishdir, bebaho hikmatlar ijodkoridir. Ushbu durdona lar xazinasiga jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa bo'lib qo'shiladir.

Ha, o'zbek xalqi butun dunyo ma'naviyat xazinasiga qo'shgan hissasi bilan haqli ravishda faxrlanadi. Bizning ko'pgina ertak va afsonalarimiz yer yuzi ning talaygina mamlakatlariga yetib borib, ularning ijod xazinasini boyitgan. Bu inkor etib bo'lmaz haqiqatni jahon tadqiqotchi olimlari allaqachon tan olganlar.

Qadim zamonlarda uzun qish tunlari sandal – tancha tegrasida o‘tirib, bolalar ota-onalari, bobo va momolaridan ajoyib-u g‘aroyib ertaklar, afsona-yu rivo yat va naqlar tinglaganlar, hikmat durdonalarini dillariga jo qilib, keng tafakkurli donishlar bo‘lib yetishganlar.

O‘TTIZ YETTINCHI DARS

MAVZU: “ISH YURITISH TILI VA USLUBI”

Darsning maqsad va vazifalari:

Og‘zaki nutq: Hujjat - ish yuritishning asosi. Hujjatchilik tarixi. Normativ (me'yoriy) hujjat tushunchasi. Hujjat aylanishi. Elektron hujjatlar.

Yozma nutq: “Hujjatlar tarixi” mavzusida matn tuzish. Ish yuritish terminlarining lug‘atini tuzish.

1. Quyidaki so‘z va iboralarni o‘rganing.

tashkilot	munshoot
muassasa	munshiylik
ish yuritish	axborotni uzatish
hujjatchilik	hujjatlarning nomlanishi
hujjat tayyorlash	aniqlik, ixchamlik
rasmiylashtirish	lo‘ndalik

2. Quyidaki matnni o‘rganing va mazmunini so‘zlab bering.

Davlat, korxona, muassasa, tashkilot faoliyatini ish yuritish hujjatlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmuman, hajman va shaklan bir xil bo‘lgan hujjatlar kattayu kichik mehnat jamoalarining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi.

Hujjatlar ham uzoq tarixga ega. Miloddan avvalgi XVII asrdagi qonunlar majmuasi, sharqda eramizning X-XIX asrlarga oid yorliqlar, farmonlar, nomalar, bitimlar, arznomalar, qarznomalar, vasiqa, tilxat kabi hujjatlar mavjud bo‘lgan.

Sobiq sho`ro tuzumi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning barcha sohalarini o`z yo`rig`iga soldi. Butun mamlakatdagi hujjatchilik, idoraviy ish yuritish tamoyillari ham shunga moslashtirildi. Turkiston o`lkasining 1918-yildagi asosiy qonunida o`zbek va rus tillari davlat tili deb e`lon qilingan, amalda esa idoraviy ish yuritish rus tilida olib borilgan.

O`zbekiston jumhuriyati inqilobiy qo`mitasining 1924-yil 31-dekabrda 48-son qarori bilan sho`ro idoralarining ishlarini yerli xalqqa yaqinlashtirish maqsadida muayyan ishlar amalga oshirilgan, xususan maxsus ish qog`ozlari tayyorlangan. Bu hujjatlar ham ruscha qolip asosida paydo bo`lgan.

O`zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi bilan o`zbek tilida mukammal hujjatchilikning shakllanishi uchun imkoniyatlar ochildi.

Hujjatlar avvalo tuzilish o`rniga ko`ra 2 xil bo`ladi : ichki va tashqi hujjatlar. Tashkilotning o`zida foydalaniladigan hujjatlar ichki hujjatlar deyilsa, tashkilotlararo qo`llanuvchi hujjatlar tashqi hujjatlar sanaladi.

Mazmuniga ko`ra hujjatlar sodda va murakkab bo`lsa, mazmun bayonining shakli jihatdan xususiy, namunaviy va qoliqli hujjatlar farqlanadi.

Tegishlilik jihatiga ko`ra rasmiy va shaxsiy hujjatlar ajratiladi.

Tayyorlanish xususiyat va darajasiga ko`ra qoralama, asl nusxa, ikkinchi nusxa (dublikat), ko`chirma hujjatlar farqlanadi.

Ma'muriy-boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga ko`ra hujjatlar quyidagicha tasniflanadi : tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari, ma'lumot-axborot hujjatlari, xizmat yozishmalari.

Elektron hujjat. Elektron hujjat O`zbekiston Respublikasining “Elektron hujjat aylanishi to`g`risida”gi 2004-yil 29-apreldagi 611-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta`riflanadi.

Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish (tanib olish) imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga (ma'lumotlarga) ega bo`lgan axborot elektron hujjatdir. Elektron hujjat texnika vositalaridan va axborot tizimlari xizmatlaridan hamda axborot texnologiyalaridan foydalanilgan holda yaratiladi, ishlov beriladi va

saqlanadi.

Elektron hujjat elektron hujjat aylanishi ishtirokchilarining mazkur hujjatni idrok etish imkoniyatini inobatga olgan holda yaratilishi kerak.

An'anaviy va elektron hujjat almashish. Odatda hujjatlarni an'anaviy tarzda almashish jarayonida pochta xizmati muhim rol o'ynaydi. Chunki, pochta xizmatining asosiy vazifasi jo'natmalarni o'z manzillariga etkazib berishdan iboratdir. Ushbu holatda hujjatlar konvertga solinadi va aloqa bo'limiga topshiriladi. SHundan so'ng pochta xizmati xodimlari tomonidan hujjat kerakli manzilga jo'natiladi va yetkaziladi. Elektron hujjatlarni almashish tizimi esa an'anaviy hujjat almashish tizimidan biroz farq qilinadi. Bunda hujjat elektron ko'rinishda kompyuter, telekommunikatsiya va Internet tarmog'i orqali uzatiladi. Elektron hujjatlarni almashish jarayonida maxsus ixtisoslashtirilgan tizimlardan (E-hujjat) yoki elektron pochta xizmatidan foydalaniladi. Elektron hujjat almashish tizimlarida hujjatlarni uzatish juda tezkor amalga oshiradi.

Imzo va uning ahamiyati. Imzo – hujjatning haqiqiyligini va yuborgan jismoniy shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlaydigan insonning fiziologik xususiyati. Imzo orqali insonning shaxsi hamda u yozgan hujjatning haqiqiyligi aniqlanadi.

Muhr va uning ahamiyati. Muhr – hujjatning haqiqiyligini va biror bir yuridik shaxsga tegishli ekanligini tasdiqlovchi isbotdir. Muhrlar o'zining alohida shakliga ega bo'lib, asosan hujjatlarning va undagi imzolarning aslligini tasdiqlaydi.

Elektron raqamli imzo. Elektron raqamli imzo O'zbekiston Respublikasining "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi 2003 yil 11 dekabrda 562-II son Qaroriga binoan quyidagicha ta'riflanadi.

Elektron raqamli imzo - elektron hujjatdagi mazkur elektron hujjat axborotini elektron raqamli imzoning yopiq kalitidan foydalangan holda maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan hamda elektron raqamli imzoning ochiq kaliti yordamida elektron hujjatdagi axborotda xatolik yo'qligini aniqlash va elektron raqamli imzo

yopiq kalitining egasini identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan imzo; Elektron raqamli imzo - xabar yoki hujjat yaxlitligini va muallifining xaqiqiyligini tekshirishda qo'llaniladigan va shaxs imzosini to'laligicha o'rnini bosa oladigan hujjatga tegishli isbotdir. U axborot - kommunikatsiya tizimlari orqali uzatilayotgan hujjatlarni va axborotlarni haqiqiylikini tekshirishda qo'llaniladi.

Elektron raqamli imzodan muhr o'rnida foydalanish. Elektron raqamli imzodan muhr o'rnida ham foydalanish ham mumkin, bunda faqat va faqat hujjatga tegishli elektron raqamli imzo hujjatdagi barcha o'zgarishlarni yoki o'zgartirishlarni ko'rsatib beradi. Buning uchun elektron raqamli imzo yuridik shaxs nomiga, ya'ni kompaniya va tashkilotlar nomiga ruyxatdan o'tkaziladi.

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Hujjatlarning til xususiyatlari nimalarda ko'rinishini tushuntirib bering.
2. Nima uchun ish yuritish uslublariga rioya qilish lozimligini tushuntiring.
4. Hujjatlarni tayyorlashda ularga qo'yiladigan talablar haqida so'zlab bering.
5. Hujjatlar matnida qaysi so'z turkumiga oid so'zlar ko'p uchrashini misollar yordamida izohlang.

4. "Hujjatlar tarixi" mavzusida matn tuzing.

5. Ish yuritish terminlarining lug'atini tuzing.

O'TTIZ SAKKIZINCHI DARS

MAVZU: "HUJJAT TURLARI VA XUSUSIYATLARI"

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Hujjatlarning tasniflanishi. Hujjat rekvizitlari. Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalar.

Yozma nutq: Ish yuritish hujjatlariing ro'yxatini tuzish. Ularni klaster shaklida tasniflash.

1. Quyidaki so'z va iboralarni o'rganing.

hujjat	mazmuniga ko'ra
hujjatshunoslik	sodda hujjatlar
tasnif qilinmoq	murakkab hujjatlar
ish yuritish	bayonining shakli jihatidan
yaratilish o'rniga ko'ra	xususiy (individual) hujjatlar
ichki va tashqi hujjatlar	namunali va qolipli (trafaretli) hujjatlar

2. Quyidaki matnni o'rganing va mazmunini so'zlab bering.

HUJJATLARNING SHAKLIGA KO'RA TURLARI

Rasmiy hujjatlar ikki xil bo'ishi mumkin: ijodiy va qolipli.

Ijodiy hujjatlar, odatda, qog'ozda yoziladi. Bunga ariza, tarjimaiy hoi, tushuntirish xati, bayonnoma, vasiyatnoma, tavsiyanoma. tafsifnoma, qaror, tilxat, adres, telegramma, rasmiy tushuntirish xatlari kiradi. Bunday hujjatlami avval qolda yozib, so'ngra mashinkada ko'chirish mumkin.

Qolipli hujjatlar maxsus shakllardagi rasmiy varaqlar (blank, formalar)dan iborat bo'lib, zarur savollar unga kiritilgan bo'adi. Bunday hujjatlarga xizmat safari guvohnomasi, shaxsiy varaqalar, mehnat daftarchalari, statistika-moliya

hujjatlari, kasallik varaqasi, shartnoma, bitim, guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shtat jadvali kiradi.

Hujjatlarning shakliy tomoniga qat'iy rioya qilinadi: hujjat yuboriladigan tashkilot yoki shaxs (lavozimi bilan) qog'ozning okng burchagiga o'z munosabatini bildiradi („Roziman“, „Tekshirilsin“ kabi), hujjat nomi bosh harflar bilan alohida xat o'rtasiga yoziladi. Hujjat matnidan so'ng xat oxirida sana va hujjat egasining imzosi va ismi, otasining ismi, familiyasi beriladi.

Hujjatlarning aynan o'zi, ko'chirmasi yoki uning ayni kserokopiyasi bo'lishi mumkin. Odatda, hujjatning ayni (asl) nusxasi idoralarda qabul qilinadi. Kserokopiyasi esa hujjatning aynan asl nusxasi yo'qolmasligi uchun saqlanadi. Ba'zi idoralarda vaqtincha, asl nusxa berilgunga qadar qabul qilinishi mumkin.

Ayrim hujjatlar keng hajmda bo'lsa (masalan, buyruq, qaror, bayonnomalar), ma'lum shaxs o'ziga zarur qismini ko'chirma nusxa qilib olishi mumkin. Buyruqdan ko'chirma olishda biror shaxsga yoki idoraga oid qismi ko'chiriladi. Buyruqdan ko'chirmada „asliga to'g'ri“ deb kotib yozadi va imzosini qo'yadi, sanasini ko'rsatadi.

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Hujjatlar yaratilish o'rniga ko'ra qanday tasniflanishini tushuntirib bering.
2. Ichki hujjatlar deb qanday hujjatlarga aytilishini tushuntiring.
3. Tashqi hujjatlarga nimalar kirishini aniqlang.
4. Hujjatlar mazmuniga ko'ra neccha turga bo'linishini tushuntiring.
5. Mazmuniy bayonining shakli jihatidan hujjatlar turini aniqlang.
6. Xususiy (individual) hujjatlarni aniqlang va izohlang.

4. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Ish yuritish hujjatlari qo'llanish doirasi, maqsad va vazifalariga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi: 1. Tashkiliy hujjatlar (guvohnoma, yo'riqnoma, nizom, shartnoma va boshqalar). 2. Farmoyish hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish). 3. Ma'lumot-axborot hujjatlari (ariza, bayonnoma, dalolatnoma, ishonchnoma,

tavsifnoma, tarjimayi hol, tilxat, tushuntirish xati, e'lon va boshqalar). 4.Xizmat yozishmalari (taklifnoma, telegramma, xatlar).

Ish yuritish hujjatlarining har bir turi o'ziga xos nutqiy qoliplarga ega. Masalan, xizmat yozishmalarida quyidagi qoliplar ko'proq uchraydi:

- 1) «Sizga ...ni ma'lum qilaman(miz)// bildiraman(miz)//eslataman(miz)»;
- 2) «...ga rozilik bildiradi//kafolat beradi//qarshi emas» yoki farmoyish hujjatlarda gap kesimlari «tayinlansin», «topshirilsin» kabi majhul nisbat, III shaxs, buyruq maylidagi fe'llar orqali ifodalanadi.

SOHIBQIRON O'GITLARIDAN

Hokimlar, sipoh va raiyatdan qaysi birining xalqqa jabr-zulm yetkazganini eshitsam darhol adolat va insof yuzasidan chora ko'rdim.

* * *

Do'st-dushmandan kimki menga iltijo qilib kelgudek bo'lsa, do'stlarga shunday muomala qildimki, do'stligi yanada ortdi, dushmanga esa shunday munosabatda bo'ldimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi.

* * *

Barcha ishlarimning to'qqiz ulushini kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirdim.

* * *

Har bir o'lka va shahar aholisining ashrof ulug'lari va buzruklari bilan oshno tutindim. Ularning mijozlariga, tabiatiga to'g'ri kelgan, o'zlari tilagan odamlarni ularga hokim qilib tayinladim. (Gaz.)

4. Ish yuritish hujjatlarining turlari bo'yicha ro'yxatini tuzing.

5. Ish yuritish hujjatlarini klaster shaklida tasniflang.

O'TTIZ TO'QQIZINCHI DARS

MAVZU: "TASHKILIY HUJJATLAR VA ULARNING TURLARI"

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjatlarning turlari. Tashkiliy hujjatlarning leksik va stilistik xususiyatlari. Shartnoma. Mehnat shartnomasi. Nizom. Yo'riqnoma.

Yozma nutq: Mehnat shartnomasi matnini tuzish. Mehnat shartnomasidagi tayanch so'zlarni ajratib yozish. Oliy ta'lim muassasasi Nizomining tuzilishini yozish.

1. Quyidaki so'z va iboralarni o'rganing.

tashkiliy hujjatlar	tarmoq
tashkilot	xodim
korxona	boshqarish
huquqiy maqom	qayd qilish

2. Quyidaki matnni o'rganing va mazmunini so'zlab bering.

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalarni aks ettiradi.

Yo'riqnoma qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjatdir. Korxona, tashkilot, muassasaning tashkiliy, ilmiy-texnikaviy, moliyaviy va boshqa faoliyat tomonlari xususida tartib-qoida o'rnatish maqsadida davlat yoki jamoa boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi, ularning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

Nizom-ustav tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari, kichik yoki qo'shma

korxona va shu kabilar tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibini belgilaydigan huquqiy hujjatdir. Nizom turli tadbirlarga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Nizom muassasalar tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilotlar farmoyishi bilan (yoki tegishli hokimiyat tomonidan) tasdiqlanadi.

Muvaqqat komissiyalar, guruhlar va shu kabilarning huquqiy maqomlari ham nizom bilan belgilanadi.

Ustav muayyan munosabat doirasidagi faoliyat yoki biror davlat organi, tashkilot, muassasaning tuzilishi, vazifasini yo`naltirib turadigan asosiy nizom va qoidalar majmuidir. Ustav biror organ yoki muassasa vazifalari va huquqiy holatini tavsiflaydigan me'yoriy ahamiyatga ega. Binobarin, ustav nizomga nisbatan keng tushunchadir. U ko`proq ma'lum bir tarmoq, sohalar, yirik muassasalar bo`yicha tuziladi. Chunonchi, davlat nashriyotlari bo`yicha namunaviy ustav qabul qilingan, shu asosda har bir nashriyot o`z nizomini qabul qiladi. Ustavning zaruriy qismlari o`xshash bo`ladi. Lekin ustavning mazmun qismida moliyaviy va moddiy bazalari, hisobot berish, taftish organlari hisoboti va shu kabilar ko`rsatiladi. Tarmoq (soha)ning o`ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning ustavida qo`shimcha qismlar ham bo`lishi mumkin.

3. Hujjatlarning tili va uslubiga tegishli nazariy ma'lumotni o'rganing.

Hujjatlarda „... o'zbek adabiy tilining amaldagi qoidalari va me'yorlariga rioya qilinadi“. („Davlat tili haqida“ gi Qonun, 7- modda).

Hujjatlarning tili aniq, ixcham, lo`nda bo`lib, fikrni rasmiy, xolisona, to`liq ifoda etadi, shuning uchun ham ularni rasmiylashtirishda ma'lum chegara bo`lib, bir xil qolipdagi so`z va iboralar qo`llanadi. Har bir yangi fikr xatboshi (abzas)dan yoziladi.

Hujjatlarda leksik tomondan bir qolipdagi so`z va iboralar qollanadi. Masalan: buyuraman (buyruqda), qatnashdilar, so'zga chiqdilar (bayonnomalarda), tasdiqlayman, ma'qullayman (ariza, bildirish, qarorlarda).

Har bir hujjatning o'ziga xos so'z va iboralari bo'ladi. Hujjatlarda tantanavor, bachkana, dag'al va sheva so'zlar, erkalatish va kichraytirish qo'shimchalari, badiiy-tasviriy so'zlar (istiora, ko'chma ma'noli, majoziy ma'noli so'zlar, o'xshatish, kinoya) qo'llanmaydi, gap bo'laklarining g'ayriodatiy tartibi (inversiya)ga yo'l qo'yilmaydi.

Hujjatlarning sintaktik xususiyatlari shuki, so'roq va undov gaplar, odatda, qo'llanmaydi, asosan, ko'proq sodda gaplar, ozroq qo'shma gaplar, ularning ergash gap turi (qonun va farmoyishlarda) ishlatiladi.

Shartli qisqartmalar (km — „kilometr.“ va b., — „va boshqalar“. va h. — „va hokazo“, prof. — „professor“, dots. — „dotsent“) odatda, yozilmaydi (zarur o'rinda qisqartmalar to'liq beriladi).

Hujjat sarlavhalaridan so'ng tinish belgilari qo'yilmaydi.

Hujjatlarning morfologik xususiyati shuki, kichraytirish-erkalatish qo'shimchalari ishlatilmaydi. Harakat otlarining -ish qo'shimchali shakli ko'proq qo'lanadi.

Fe'lning aniqlik mayli kamroq, majhul shakli ko'proq ishlatiladi. Fe'lning 1 shaxs shakli kamroq (ariza va buyruqlarda), shaxsli shakli ko'proq qo'llanadi. Odatda, sonlar raqam bilan yoziladi, ammo ishonchnoma va tilxat kabi hujjatlarda raqam bilan uning yozma ifodasi ham ko'rsatiladi.

Umuman, hujjatlarning har bir turi o'ziga xos til xususiyatiga ega bo'ladi.

4. Shartnoma matni va uning tuzilishi xususiyatlarini o'rganing.

Ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish yo'lidagi kelishuv shartnoma hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, shartnoma tomonlarning biron bir munosabatlar o'rnatish haqidagi kelishuvini qayd etuvchi va bu munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir. Shartnoma fuqarolik huquqiy bitimlarning turlaridan biri hisoblanadi. Uning farq qiluvchi xususiyati shundaki, u ikki yoki ko'p tomonlama bitimdan iborat bo'ladi.

Shartnoma davlat, kooperativ va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek, fuqarolar o`rtasida tuzilishi mumkin. Shartnoma munosabatlari muassasa bilan ayrim shaxs yoki shaxslar o`rtasida o`rnatilayotgan bo`lsa, bunda tuzilajak hujjat mehnat bitimi deb ataladi.

Shartnomalar o`z mazmuniga ko`ra juda xilma xil ko`rinishga ega. Shartnomalar yozma, og`zaki ko`rinishda bo`lib, notarial idoralar tomonidan tasdiqlanishi lozim. Shartnomalar korxonalarga tegishli bo`lganida tomonlar imzolagunga qadar korxona hisobchisi yoki adliya maslahatchilarining rozilik belgisi bo`lishi lozim. Shundan so`ng tomonlar shartnomaga imzo qo`yadi. Shartnomalar 2 nusxadan kam tuzilmasligi lozim.

Oddiy xo`jalik shartnomalarining zaruriy qismlari quyidagilar:

1. Shartnoma nomi.
2. Shartnoma tuzilgan sana.
3. Shartnomaning tuzilgan joyi.
4. Shartnoma tuzayotgan tomonlarning aniq va to`liq nomi.
5. Shartnomaning matni.
6. Tomonlarning huquqiy adreslari.
7. Tomonlarning imzo va muhrlari.

Shartnomalar ularni tuzishga vakil qilingan shaxslar tomonidan imzolanadi: bunda “imzo” degan zaruriy qismda imzo qo`yuvchilarning lavozimlari emas, balki shartnomaviy munosabatlar o`rnatayotgan huquqiy shaxslarning nomi ko`rsatiladi.

Shartnomalar ikki nusxadan kam tuzilmasligi lozim, chunki har bir huquqiy shaxs hujjatlar yig`majildida kamida bir nusxasi bo`lishi lozim. Shartnomaning barcha turlari bir xil huquqiy kuchga ega bo`ladi.

Shartnoma matni varakning xar ikkala tomoniga kompyuterda bir oraliq bilan yoziladi, boblarning bandlari esa o`zaro bir yarim oraliq bilan yoziladi.

“Shartnoma” so`zini katta harflar bilan orasini ochiq qilib yozish tavsiya etiladi.

5. Nizom matni va uning tuzilishi xususiyatlarini o`rganing.

6. Yo'riqnoma matni va uning tuzilishi xususiyatlarini o'rganing.

7. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Mehnat shartnomasi matnini tuzing.
2. Mehnat shartnomasidagi tayanch so'zlarni ajratib yozing.
3. Oliy ta'lim muassasasi Nizomining tuzilishi va mazmuni haqida qisqacha matn yozing.

QIRQINCHI DARS

MAVZU: "FARMOYISH HUJJATLARI VA ULARNIIG TURLARI"

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Farmoyish hujjatlarining vazifasi. Farmoyish hujjatlarining turlari. Buyruq. Farmoyish. Ko'rsatma. Farmoyish hujjatlarning leksikasi va stilistik xususiyatlari.

Yozma nutq: Oliy ta'lim muassasasi buyruqining matnini tayyorlash. Farmoyish hujjatlarida qo'llanadigan tayanch so'zlarni yozish.

1. Quyidaki so'z va iboralarni o'rganing.

farmoyish	tashkiliy-farmoyish
buyruq	anglatmoq
ko'rsatma	farmon qilmoq
boshqaruv organi	ijro etuvchi

2. Quyidaki matnni o'rganing va so'zlab bering.

Farmoyish hujjatlar - davlat boshqaruv organi rahbarlarining yakka hokimligiga asoslangan huquqiy hujjat bo'lib, muayyan muassasa oldida turgan asosiy va kundalik vazifalarni hal qilish maqsadida qo'llaniladi.

Iqtisodiyotni boshqarishda tashkiliy-farmoyish hujjatlarining ahamiyati kattadir. Har qanday tashkilot yoki korxonani boshqarishda tashkiliy farmoyish hujjatlaridan to'liq foydalanadi.

Farmoyish hujjatlari guruhiga buyruq, ko'rsatma, farmoyish kabilar kiradi.

Buyruq - rahbarning biror ishni bajarish haqidagi farmoyishi. Mening betoblikdan keyin ishga qaytganim buyruq bilan rasmiylashtirildi. Bu ot "farmon qil" ma'nosini anglatuvchi *buyur* fe'lidan o'zbek tilida -(u)q qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ikkinchi bo'g'indagi tor unli talaffuz qilinmay qo'yilgan: buyur + uq = buyuruq > buyruq.

Farmoyish — boshqaruvga doir huquqiy hujjat; konstitutsiyaviy huquqda davlat boshlig'i va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan vakolatlari doirasida chiqariladi. Ijro etuvchi hokimiyat organining tez hal qilinishi kerak bo'lgan va boshqa joriy masalalarga oid qarori Farmoyish shaklida chiqariladi. Shuningdek, Bu hujjat korxona va tashkilotlar doirasida ham yuritiladi.

3. Buyruq matni va uning tuzilishiga xos xususiyatlarni o'rganing.

Buyruqlar vazirlar tomonidan yoki idora nomidan qarorlar qabul qilish yakka tartibda amalga oshiriladigan idoralar rahbarlari tomonidan qabul qilinadi.

Buyruq doimiy ravishda shaxsan rahbar tomonidan tayyorlanadi, ko'rsatma va farmoyishlar rahbar muovinlari tomonidan beriladi.

Buyruqlarning bir qator turlari mavjud bo'lib ularga:

- a) umumiy masalalar bo'yicha
- b) shaxsiy tarkib bo'yicha
- v) asosiy faoliyat bo'yicha buyruqlar kiradi.

Buyruqning asosiy qismlari quyidagilardan iborat: Vazirlik, korxona yoki muassasa nomi, buyruqning nomi, sanasi, raqami, buyruq chikkan joyning nomi, sarlavxasi, buyruq matni, rahbar yoki o'rinbosar imzosi va hokazo. Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan, bosh harflar bilan yoziladigan "BUYURAMAN" so'zi bilan boshlanadi. Buyruqda ishning bajarilish muddati mazmunidan kelib

chiqib umumiy tarzda yoki xar bir farmoyishda aniq ko`rsatish mumkin.

Buyruqda adliya maslahatchisi imzosi ham bo`lishi kerak. Adliya maslahatchisi buyruqni ko`rishda quyidagilarga e'tibor beradi: masalan, buyruq bilan rasmiylashtirish maqsadi qanchalik to`g`ri kelishi; buyruq loyihasining amaldagi qonunlarga, hukumat qarorlariga qanchalik muvofiq kelishi; mazkur idoraning ilgari berilgan buyruqlari bilan ziddiyat yo`qmi yoki ularning qisman takrorlanishi va boshqalar.

Buyruqning asosiy matni asoslovchi va farmoyish qismlaridan tarkib topadi.

Asoslovchi qismda buyruqdan maqsad, shart-sharoitlar, sabablar ko`rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruqqa havola qilinadi. Ayrim hollarda buyruqqa asos bo`lgan hujjat uning farmoyish qismi tegishli bandida ham ko`rsatiladi.

5. Farmoyish matni va uning tuzilishiga xos xususiyatlarni o`rganing.

Farmoyish korxona ma'muriyati hamda bo`limlar rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjatdir. Odatda farmoyishlarda harakat muddati cheklangan bo`lib uning kuchi bo`limlarning tor doirasiga ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo`ladi. Farmoyishning matni xuddi buyruqniki singari zaruriy qismlardan tashkil topadi. Faqat uning kirish qismida "Buyuraman" so`zi o`rniga "Tavsiya qilaman", "Ruxsat beraman" kabi so`zlar ishlatiladi.

6. Ko`rsatma matni va uning tuzilishiga xos xususiyatlarni o`rganing.

Ko`rsatma korxonalarda axborot metodik tushdagi masalalar, shuningdek buyruqlar, yo`riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog`liq bo`lgan tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjatdir. Ko`rsatmaga birinchi bo`lib rahbar bosh muhandis ularning o`rinbosarlari imzo chekish huquqiga ega. Ko`rsatma korxonaning xos ish qog`oziga bosiladi. U ham buyruq kabi, odatda, sarlavha bilan yoziladi, asos va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asos qismida, falon "maqsadda", falon "buyruqni bajarish uchun" kabi taomilga

kirgan iboralar qo'llanadi va "Yuklayman", "Tavsiya etaman" so'zlari bilan farmoyish qismi boshlanadi. Muayyan xodimga uning xizmat lavozimi vazifalariga kirmaydigan ishlar yuklatilsa "Tavsiya etaman" so'zi qo'llanadi. Ko'rsatmaning farmoyish qismi buyruqning farmoyish qismiga o'xshash bo'ladi.

7. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Oliy ta'lim muassasasi rektori buyrug'i matnini tayyorlang.
2. Fakultet dekani farmoyishi matnini tayyorlang.
3. Farmoyish hujjatlarida qo'llanadigan tayanch so'zlarni yozing.
4. «Ish yuritish» kitobidan buyruq, buyruqdan ko'chirma, farmoiy va ko'rsatma namunalari bilan tanishing. O'zingiz ishga qabul qilish haqidagi buyruq, farmoiy va ko'rsatma loyihasini tayyorlang.

QIRQ BIRINCHI DARS

MAVZU: "MA'LUMOT-AXBOROT HUJJATLARI"

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Ma'lumot-axborot hujjatlarining vazifasi. Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari. Tarjimai hol. Bildirgi. Tavsifnoma.

Yozma nutq: Tarjimai hol yozish. Tavsifnoma yozish ko'nikmalarini egallash.

1. Quyidagi so'z va iboralarni o'rganing.

Tarjimai hol	hujjatning nomi
shaxsiy hayot	ijtimoiy kelib chiqishi
bir xil andoza	muassasa
mufassal	mansabdor shaxs
muxtasar	Tavsifnoma
mustaqil tuziladigan	xislat va fazilatlar

2. Tarjimai hol matni va uning tuzilishiga xos xususiyatlarni o'rganing.

Tarjimai hol ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuvdir. Tarjimai hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi u erkin (ixtiyoriy) tuzilsa-da, biroq tarjimai holda ayrim qismlarning bo'lishi shart.

Tarjimai holning asosiy zaruriy qismlari :

1. Hujjatning nomi (Tarjimai hol).
2. Matn: a) muallif familiyasi, ismi va otasining ismi; b) tug'ilgan yil, kun, oy va tug'ilgan joyi; v) millati, ijtimoiy kelib chiqishi; g) ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi); d) ma'lumoti (qaerda, qanday o'quv yurtini tugatganligi va ma'lumotiga ko'ra mutaxassisligi); e) ish faoliyatining turlari; yo) oxirgi ish joyi va lavozimi; j) mukofot va rag'batlantirishlar; z) jamoat ishlarida ishtiroki; i) oilaviy ahvoli va oila a'zolari; y) pasport ma'lumotlari; k) turar joyi (uy adresi), telefoni.
3. Sana.
4. Imzo.

Tarjimai hol oddiy qog'ozga, ayrim hollarda, ya'ni ishga, o'qishga kirishda maxsus bosma ish qog'ozlariga qo'lda yoziladi. Matnni bayon qilish shakli hikoya uslubida bo'lib, birinchi shaxs tilidan yoziladi.

Barcha ma'lumotlar davriylik (xronologiya) asosida, aniq sanalar bilan (iloji boricha yili, oyi, kuni ko'rsatilgan holda) beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi. Tarjimai hol shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo'li, faoliyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lsin.

3. Bildirgi matni va uning tuzilishiga xos xususiyatlarni o'rganing.

Muayyan muassasa (tarkibiy qism) rahbariga xizmat faoliyati bilan aloqador muhim masalalar yuzasidan yoki yo'qori idora, mansabdor shaxsiga biron-bir voqea va hodisa haqida xabardor qilish zarurati tug'ilganda taqdim etiladigan

mufasssal yozma axborot. Unda, odatda, bayon qilinayotgan masalalar bo'yicha tuzuvchi (yozuvchi)ning takliflari aks etadi.

Kimga yo'nalganiga qarab bildirishnoma ichki v tashqi turlarga ajraladi. Ichki bildirishnoma o'z muassasasi rahbariga yoki bo'lim boshlig'iga yoziladi. U toza qog'oz varag'iga qo'lda yoki mashinkada yozilishi mumkin. Bunda bildirishnomalar muallif tomonidan imzolanadi. Tashqi bildirishnoma, ya'ni muassasa rahbary tomonidan yuqori idoraga yoki mansabdor shaxsga yoziladigan bildirishnoma, odatda, xos ish qog'oziga ikk nusxada yoziladi. Hujjatning ikkinchi nusxasi muassasaning o'zida qoldiriladi. Bunday bildirishnomalar muassasa rahbari tomonidan imzolanadi.

Bildirishnoma tashabbus, axborot va hisobot xususiyatiga ega. Bu xususiyatlar hujjat matni sarlavhasida o'z aksini topadi. Tashabbus bildirishnomasi matnida tegishli masala yuzasidan umumiy yoki aniq takliflar ilgari surilib, rahbarni ularni hal qilishga undaydi (masalan, Navoiy nomidagi maktabda mukofotlash nizomining buzilganligi haqida).

Axborot bildirishnomasi, odatda, umumiy holati rahbarga ma'lum muayyan jarayon to'g'risida xabar beradi. Masalan, Koson tumanidagi Navro'z nomli fermer xo'jaligida chigit ekishning borishi (2016-yil 10apreldagi holati) haqida.

Hisobot bildirishnomasi ma'lum bir ishning tugallanishi haqida yoki biron-bir ko'rsatma, tavsiya, rejaning ijrosi to'g'risida rahbarni xabardor qilishi kerak (masalan, O'ZR Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida «Navoiy» qomusi nashri tayyorgarligining boriish haqida). Muayyan vazifa yoki majburiyatlarni bajarilishi haqidagi hisobot bildirishnomasi amaliyotda raport ham deyiladi. Asli fransuzcha bo'lib, rus tili orqali o'zbek tiliga kirgan bu so'zning muqobili sifatida «**Bildirgi**» atamasini qo'llashni tavsiyaqilamiz.

Bildirishnomaning zaruriy qismlari:

1. Bildirishnoma yo'llangan rahbarning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda junalish kelishigidagi familiyasi.
2. Bildirishnoma tayyorlagan shaxsning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari hamda junalish kelishigidagi familiyasi.

3. Hujjat turining nomi (Bildirishnoma).
4. Matn sarlavhasi.
5. Bildirishnoma matni (mazmuni).
6. Qancha varaqligi ko'rsatilgan ilovalar ro'yxati (agar ilova bor bo'lsa).
7. Bildirishnoma tayyorlovchi xodim yoki rahbarning imzosi (agar bir necha shaxs tomonidan tayyorlangan bo'lsa, u barcha mualliflar tomonidan imzolanadi).

4. Tavsifnoma matni va uning tuzilishiga xos xususiyatlarni o'rganing.

Tavsifnoma ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjatdir. Tavsifnoma muassasa ma'muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo'lsa) tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar uchun (o'quv yurtiga kirishda, xorijiy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda yoki shahodatlantirish va boshqa hollarda) beriladi.

Tavsifnomada xodimning jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va axloqiy sifatleri ham ko'rsatib o'tiladi.

Tavsifnomaning asosiy zaruriy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tavsiflanayotgan shaxs haqida asosiy ma'lumotlar:
 - a) ismi, otasining ismi va familiyasi ; b) tug'ilgan yili ; v) millati ; g) partiyaviyligi;
 - d) ma'lumoti; e) lavozimi; yo) ilmiy darajasi va unvoni.
2. Hujjat nomi (Tavsifnoma). 3. Matn. 4. Imzolar. 5. Sana. 6. Muhr.

Tavsifnoma matnini o'zaro mantiqan bog'langan uch tarkibiy qismga ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi qismda shaxsning mehnat faoliyati, ya'ni mutaxassisligi, aynan shu korxona, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, xizmat vazifasidagi o'zgarishlar va boshqalar haqida ma'lumot beriladi.

Ikkinchi qismda xodimning shaxsiy tavsifi, ya'ni ishga munosabati, mutaxassislik bo'yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiroki, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, hatto ba'zida siyrati, jamoa a'zolariga

munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo`lganligi va boshqa asosiy rag`batlantirishlari qayd etiladi. Xolis bo`lish uchun kamchiligi ham ko`rsatilib, istak bildiriladi.

Uchinchi qismda esa yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnoma qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko`rsatiladi. Tavsifnoma matni uchinchi shaxs tilidan bayon qilinadi. Xodimni tavsiflashda «halol», «topshiriqlarni vaqtida bajaradigan», «mehnatsevar», «talabchan», «tashabbuskor», «tezkor», «printsipial», «intizomli» kabi sifatlardan foydalaniladi. Agar tavsifnoma jamoat tashkilotlari yig`ilishida tasdiqlangan bo`lsa shu yig`ilish bayonnomasi raqami va sanasi havola bo`ladi. Qoidaga ko`ra tavsifnomaga ikki shaxs : muassasa (yoki bo`linma) boshlig`i va kasaba uyushmasi tashkilotining raisi imzo chekadi va ular imzosi yumaloq muhr bilan tasdiqlanadi.

Tavsifnoma xodimning qo`liga topshiriladi yoki uni shaxsan xabardor qilgan holda, tavsifnomani talab qilgan muassasaga jo`natiladi.

Tavsifnomalarning «ishlab chiqarish tavsifnomasi», «tavsifiy tavsiyanoma», «xizmat tavsifnomasi» kabi turlari mavjud bo`lib, ular ayrim xususiyatlari jihatidan o`zaro farqlanadi.

5. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Tavsifnoma va tavsiyanoma matnini tayyorlang.
2. O`z tarjimai holingizni yozing.
3. Guruhingizda o`tkazilgan tadbir haqida fakultet dekaniga bildirishnoma yozing.

QIRQ IKKINCHI DARS

MAVZU: “ISHONCHNOMA. TILXAT. TUSHUNTIRISH XATI”

Darsning maqsad va vazifalari:

Og’zaki nutq: Rasmiy va shaxsiy ishonchnomalar. Tilxatning zaruriy qismlari va uni tutuvchi shaxslar. Tushuntirish xatining turlari.

Yozma nutq: Tilxat matnini tuzish. Tushuntirish xati yozish ko’nikmalarini egallash.

1. Quyidaki so’z va iboralarni o’rganing.

inson faoliyati	davlat va nodavlat tashkilotlar
ish ko‘rish huquqi	
ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar	
ishonchnoma	
xizmat doirasidagi ishonchnomalar	
shaxsiy ishonchnomalar	

2. Quyidaki matnni o’rgaqning va mazmunini so’zlab bering.

Inson faoliyati jarayonida shunday paytlar bo‘ladiki, alohida bir kishi, tashkilot yoki muassasa boshqa bir shaxs, tashkilot yoki muassasa bilan bo‘ladigan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarini amalga oshirishda, oldi-berdi qilishda vositachilik qiladigan boshqa shaxslarning ko‘magiga muhtoj bo‘ladi. Ana shu vositachilikni qonun-qoidalar yordamida amalga oshirish maqsadida ularning qo‘liga ishonch qog‘ozi — ishonchnoma beriladi. Ishonchnomani olgan kishi boshqa bir shaxs, tashkilot yoki muassasa oldida uni berganlar nomidan ish ko‘rish huquqiga ega bo‘ladi.

Faoliyat qamrovidan kelib chiqib, ishonchnomalar ikki xil bo‘ladi: xizmat doirasidagi ishonchnomalar va shaxsiy ishonchnomalar. Davlat va nodavlat tashkilotlari o‘rtasida ish yuritishda foydalaniladigan ishonchnomalar xizmat doirasidagi, bir shaxsning ikkinchi bir shaxsga biron bir vazifani bajarishga o‘z

nomidan vakil etib tayinlanganini tasdiqlovchi hujjat esa shaxsiy ishonchnoma ma'nosida qo'llanadi.

Xizmat doirasidagi ishonchnomaning faoliyat doirasi keng bo'lib, ular asosan boshqa joydan pul yoki moddiy buyumlar olib kelish maqsadida beriladi. Ular odatda maxsus blankalar - namunaviy shakllar bosilgan ish qog'ozida rasmiylashtiriladi. Ishonchnoma moliyaviy hujjat sanalgani tufayli uning namunadagi barcha o'rinlari aniq va savodli to'ldirilishi, tuzatishlar kiritilmagan bo'lishi lozim.

Shaxsiy ishonchnomalar asosan xodimning o'zi borib olishi imkoni bo'lmagan paytlarda boshqa bir kishiga maoshi yoki nafaqasini olish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar o'ziga tegishli bo'lgan hujjatlarni olib kelish uchun berilishi ham mumkin.

Quyidagi ishonchnoma turlari bilan tarnishing va ular asosida ishonchnoma matnini tayyorlang.

ISHONCHNOMA

Korxona adliya maslahatchisi (yuriskonsult) Anvar Sattorovich Qodirovni barcha sud (hakamlik) idoralaridagi kombinat ishlarini da'vogar, javobgar yoki uchinnchi shaxs uchun qonunga muvofiq belgilangan jami huquqlar bilan (jumladan ishni tinchlik bilan to'xtatish, da'vo talabini tan olish, uni to'la yoki qisman rad etish, sud qarorlari yuzasidan shikoyat qilish kabi) olib borishga vakil qiladi.

Iшонchnoma shaxsan A. S. Qodirovga berildi va 2018-yilning 31-dekabrigacha amal qiladi.

Korxona direktori
(muxr)

(imzo)

A. B. Sobirov

Oddiy shaxsiy ishonchnomalaridan namunalar

ISHONCHNOMA

Men, Ismoil Dehqonovich Ne'matov, kasallngim tufayli o'z ukam, Ibrohim Dehqonovich Ne'matovga (V XX-TM seriyadagi 414610 raqamli pasportga ega) Toshkent badiiy buyumlar fabrikasidan 1989-yil sentabr oyi uchun yozilgan maoshimni olishga ishonch bildiraman.

1989 yil 7 sentyabr - (imzo) I. D. Ne'matov

I. D. Ne'matovning imzosinn tasdiqlayman.

Trshkent shahar 1-kasalxonaning bosh vrachi (imzo) R. S.Sodiqov
(muxr)

1918-yil 7- sentabr

4. Tilxat matni va uning tuzilish xususiyatlarini o'rganing.

Tilxat pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjatdir. Tilxat bir nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari :

1. Hujjatning nomi (Tilxat).

2. Matn :

a) tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi;

b) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi (zaruriyat bo'lganda muassasa nomi);

v) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo'lganda bahosi);

g) olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va sh.k. bo'lsa).

3. Tilxat berilgan sana.

4. Tilxat muallifining imzosi.

Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi shart. Matn va imzo oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi. Tilxatdagi youvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda, bunday hujjatning haqiqiyliги shubha ostiga olinishi mumkin.

5. Tushuntirish xati matni va uning tuzilish xususiyatlarini o'rganing.

Tushuntirish xati xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'llanuvchi hujjatdir.

Yuqoridagi ta'rifdan ko'rinadiki, tushuntirish xati xuddi ma'lumotnoma va bildirishnoma singari ichki va tashqi xususiyatga ega. Keyingi holatda, ya'ni tushuntirish xati yuqori tashkilotga yuborilayotganda, u ko'pincha biror asosiy hujjat (rejalар, hisobotlar, loyihalar)ga ilova tarzida bo'lib, mazkur hujjatni umuman yoki uning ba'zi o'rinlarini qisman izohlab, tushuntirib beradi. Bu xildagi tushuntirish xati, shuningdek, muassasada bo'lib o'tgan voqea-hodisaga, rahbarning ba'zi xatti-harakatiga, rejalashtirilgan ishlarning bajarilmay qolishiga ham izoh beradi yoki dalillaydi. U muassasa xos ish qog'ozida rasmiylashtiriladi va rahbar tomonidan imzolanadi.

Ichki, boshqacha aytganda, shaxsiy tushuntirish xatlari asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo'jaligi a'zosi, talaba) tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (o'qish) jarayonida xodim (talaba) tomonidan sodir etilgan ba'zi xatti-harakatlar (masalan, ish yoki o'qishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki

ayrim topshiriqni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalariga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi. Bevosita xodim (muallif) tomonidan imzolanadigan bunday tushuntirish xati oddiy qog'ozga yoziladi. Shaxsiy tushuntirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llash yoki dalillar asosli (uzrli) bo'lsa, qo'llamaslik uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

Tushuntirish xati quyidagi zaruriy qismlardan iborat bo'ladi:

1. Hujjat yo'llanayotgan tashkilot yoki mansabdor shaxsning to'liq nomi.
2. Hujjatni tayyorlagan (yozgan) muassasa yoki shaxsning to'liq nomi.
3. Hujjat turining nomi (Tushuntirish xati).
4. Hujjat matni (mazmuni).
5. Imzo.
6. Sana (hujjat yozilgan vaqt).

Tashqi, xizmat yuzasidan korxona, muassasa va hokazolar nomidan yoziladigan tushuntirish xatlari xos ish qog'ozida rasmiylashtiriladi va ularning to'liq nomi ushbu ish qog'ozida aks etadi. Ichki tushuntirish xatlarida esa rahbar yoki xodimning to'liq nomi deyilganda, u ishlaydigan (o'qiydigan) bo'linmaning nomi, shaxs lavozimi, ismi, ota ismining bosh harflari va familiyasi nazarda tutiladi.

6. Quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. O'zingizga tegishli moddiy boylikni olish uchun do'stingizga Ishonchnoma matnini tuzing.
2. O'rtog'ingizdan pul olganingiz haqida tilxat yozing.
3. Darsga kech qolganingiz haqida tushuntirish xati yozing.

QIRQ UCHINCHI DARS

MAVZU: “DALOLATNOMA. MA'LUMOTNOMA”

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Dalolatnomaning zaruriy qismlari va uni tuzuvchi shaxslar. Ma'lumotnoma turlari. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.

Yozma nutq: Talabalar guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari haqida ma'lumotnoma tuzish.

1. Quyidaki so'z va iboralarni o'rganing.

ayrim shaxslar faoliyati	huquqiy normalar
voqea-hodisa	pul mablag'lari
ish-harakat	moddiy boyliklar
Dalolatnoma	moliya-ho'jalik faoliyati
qonuniy-huquqiy	haqqoniy aks ettirish

2. Quyidaki nazariy ma'lumot bilan tanishing.

DALOLATNOMA

Muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'li biron-bir bo'lgan voqea, hodisa, ish-harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjat. Dalolatnoma tuzish xilma-xil maqsadlarni ko'zlaydi, lekin uning asosiy maqsadi sodir bo'lgan voqea-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Bir qancha hollarda dalolatnoma tuzish maxsus huquqiy normalar bilan qat'iy belgilangan. Masalan, korxonalarning hisob-kitob bo'limlari faoliyatida dalolatnomalar avvaldan belgilangan mazmun va davriylikka asosan tuziladi va ular huquqiy jihatdan muhim o'rin tutadilar.

Dalolatnoma deyarli barcha hollarda pul mablag'lari va moddiy boyliklarga bog'liq holda tuziladi (hatto baxtsiz hodisa yoki tabiiy ofat haqidagi dalolatnoma

asosida ham moddiy masala bor), binobarin, u ko'proq moliya-ho'jalik faoliyatida, hisob-kitob, oldi-sotdi va savdo sohalarida keng qo'llanadi.

Dalolatnomalar tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlik almashinayotganda, moddiy boyliklarni bir shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, qurib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin, mashina va uskunalarning yangi nusxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatbaho buyumlarni hisobdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olish yoki ularning idishini qayta tortib ko'rishda (savdo muassasalarida), baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatlarini tekshirishda, sud-tergov ishlari va tibbiyot sohasida, xodimlarning moddiy, yashash sharoitlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi.

Dalolatnomalar voqea-hodisalarni haqqoniy aks ettirish maqsadida bir necha shaxslar (muassasa rahbarining buyrug'i bilan komissiyalar, doimiy komissiyalar) yoki maxsus vakolatli yakka shaxs (taftishchi, nazoratchi) tomonidan tuziladi. Keyingi holatda va umuman dalolatnoma yakka shaxs tomonidan tuzilganda, guvohlarning ishtirok etishi va imzosi bo'lmog'i shart. Ayrim hollarda dalolatnomalar voqea-hodisaning qatnashchilari yoki unga guvoh bo'lgan kishilarning tashabbusi bilan ham tuziladi.

Vazirlik, yukori idora, muassasa nomi DALOLATNOMA sana tuzilgan joyi Matn sarlavhasi («....haqida»)	TASDIQLAYMAN (TASDIQLANGAN) (Imzo) Familiya sana
Asos: (muassasa rahbarining (sanadagi) — raqamli buyrug'i yoki yuqori idoraning — raqamli qarori) Raisi (shaxs lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)	

A'zolari: 1. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)
2. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi)
3. (lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi) dan iborat komissiya tomonidan (shaxs yoki shaxslar) lavozimi, initsiallari, familiyasi) ishtirokida tuzildi.

MATN

Ilovalar

Komissiya raisi (imzo) Ismi va; ota ismining bosh harflari, familiya
Komissiya a'zolari (imzolar) Ismi va ota ismlarining bosh harflari, familiyalar
Ishtirok etganlar (imzolar) Ismi va ota ismlarining bosh harflari, familiyalar.

MA'LUMOTNOMA

Ma'lumotnoma bo'lib o'tgan voqea-hodisa yoki hozirda mavjud holat to'g'risida axborot beruvchi yoki uni tasdiqlovchi hujjat hisoblanib, rasmiy-huquqiy kuchga ega bo'ladi hamda so'ralgan taqdirdagina tashkilot yoki muassasa yoki uning bo'limlari rahbarlari imzosi bilan beriladi. So'rovlar yuqori va teng mavqedagi tashkilotlar, ma'muriy organlar va shu ma'lumotnoma tegishli bo'lgan kishilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Ma'lumotnoma ikki xil bo'ladi: xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnoma. Xizmat ma'lumotnomasida tashkilot va uning bo'linmalarida biron bir vazifaning bajarilishi haqidagi axborot aks etgan bo'ladi. Ular turli xil jadvallar bilan to'ldirilishi mumkin. Bu kabi ma'lumotnomalar yuqori tashkilotlarning quyi tashkilotlar faoliyatidan to'liq xabardor bo'lib turishiga ko'maklashadi. Masalan:

**QarMII o‘zbek va rus tillari kafedrasining 2012-2015 yillardagi faoliyatini
kompleks tekshirish natijalari haqida**

M A ' L U M O T

1. 2012-yildan buyon kafedra yig‘ilishlari bayonnomalari komputerga yozilgan, ammo ularning hammasi ham pechatlangan holda saqlanmagan. Ilmiy ishlar rejalari muhokama qilingan umumiy mavzu “Mustaqillik davri o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi semantik-uslubiy siljishlar” deb nomlanadi va kafedrada ilmiy tadqiqotlar ana shu mavzu rejasi asosida olib borilmoqda.
2. Kafedradagi seminar ilmiy-metodik seminar, deb nomlanadi. Kafedra hayotiga va o‘zbek va rus tilshunosligi hamda uni o‘qitish metodikasiga bag‘ishlangan masalalar ana shu seminarda muhokama qilib borilmoqda.
3. O‘zR Prezidentining Oliy Majlis sessiyalarida qilgan ma'ruzalari muhokama etilib borilayotgani to‘g‘risidagi bayonnomalar, garchi to‘liq bo‘lmasa ham mavjud. Prezident va hukumat qarorlari vazirlik, rektorat va dekanat topshiriqlari tarzida kafedra a'zolari tomonidan hayotga tatbiq etilmoqda.
4. Milliy dastur ikkinchi bosqichining amalga oshirilishi bo‘yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Kafedra faqatgina bakalavrlar emas, balki magistrlar, doktorantlarga ham dars mashg‘ulotlarini olib boradi.

Komissiya raisi: _____

Rasmiy ma'lumotnomalar yuqori tashkilotlar rahbarlari, tekshirish ishlari olib borayotgan komissiyalar nomiga yozilishi ham mumkin. Unda ma'lumotnomaning nima haqda yozilayotgani, ma'lumotnoma mazmuni aks etgan bo‘ladi va rahbarning imzosi chekilib, sana qo‘yiladi.

Shaxsiy ma'lumotnomalar ham rasmiy hujjat sanaladi. Ammo u bir shaxs yoki xodimning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotnigina qamrab oladi. Bunday

ma'lumotnomalar uning qachon va qayerda tug'ilgani, qayerda yashashi va kim bo'lib ishlashi, sog'ligi va sudlangan-sudlanmaganligi kabi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ular blankalarda — maxsus qog'ozlarda yozilib, tashkilot devonxonasida qayd etilib boriladi. Masalan:

MA'LUMOTNOMA		
Berildi	ushbu	ma'lumotnoma
shu	haqdakim,	haqiqatdan
ham	_____	Qarshi
_____	muhandislik-iqtisodiyot	
instituti Texnologiya fakultetining 3-kursida o'qiydi.		
Ma'lumotnoma so'ralgan joyga taqdim etish uchun berildi		
M.O'. Fakultet dekani	_____	_____
	Imzo	F.I.Sh.

3. Matn yuzasidan berilgan quyidagi savollarga javob bering.

- 1) Dalolatnomaning zaruriy qismlari va uning tuzulish xususiyatlarini o'rganing.
- 2) Ma'lumotnoma turlarini tuzilish va yozilish xususiyatlarini o'rganing.
- 3) Ma'lumotnomani rasmiylashtirish

4. Mavzi yuzasidan berilgan topshiriqlarni bajaring.

- 1) Dalolatnoma matnini yozishni o'rganing.

“Tasdiqlayman”
Samarqand oziq-ovqat kolleji
direktori_____Sh. S. G'iyosov
2015-yil 15-yanvar

Samarqand oziq-ovqat kollejidagi sport jihozlarini taftish qilish haqida
D A L O L A T N O M A

2015-yil 13-yanvar

Qarshi shahri

Men, Qashqadaryo viloyati oʻrta maxsus va kasb-hunar ta'limi boshqarmasining hisobchi-taftishchisi R.R. Masharipov, boshqarmaning 2014-yil 29-dekabrda 214-buyrugʻiga asosan

kollejning hisobchisi Ulash Pirimqulov va moddiy javobgar — sport yoʻriqchisi A.Akopyan ishtirokida mazkur oʻquv yurtiga tegishli sport jihozlarini taftish qildim.

Tekshirish jarayonida quyidagilar aniqlandi:

1. 2015-yil 19-yanvardagi tekshiruv natijalari dalolatnomasi va inventarlarni roʻyxatga olish kitobiga asosan kollejda quyidagilar mavjud boʻlgan:

1. Shaxmat — 4 ta
2. Shashka — 6 ta
3. Bilyard — 2 ta
4. Voleybol toʻpi — 4 ta
5. Voleybol toʻri — 1 ta
6. Futbol toʻpi — 3 ta
7. Futbol toʻri — 2 ta
8. Oennis stoli — 2 ta

Quyidagilar taklif etiladi: Mavjud 2 ta shashka, 1 ta voleybol toʻpi, 11 ta tennis sharchasi, 2 ta futbol toʻpi yaroqsiz holga kelganligi uchun ularni hisobdan chiqarish maqsadga muvofiq.

Boshqarma hisobchi-taftishchisi	(Imzo)	R. MASHARIPOV
Kollej hisobchisi	(Imzo)	U. PIRIMQULOV
Moddiy javobgar	(Imzo)	A. AKOPYAN

2) Ma'lumotnoma matnini yozishni o'rganing.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti	
MA'LUMOTNOMA	
Berildi	ushbu ma'lumotnoma shu haqda kim, haqiqatdan ham
_____ Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti texnologiya fakultetining 3-kursida o'qiydi.	
Ma'lumotnoma so'ralgan joyga taqdim etish uchun berildi	
M.O'. Fakultet dekani	_____
	Imzo
	F.I.Sh.

QIRQ TO'RTINCHI DARS

MAVZU: "MAJLIS BAYONI. HISOBOT"

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Bayonnomalarniig turlari Majlis bayoni. Majlis bayonidai ko'chirma. hisobot turlari. Davriy hisobotlar. O'quv amaliyoti hisoboti.

Yozma nutq: Majlis bayonini tuzish. O'tkazilgan tadbir to'g'risida hisobot yozish.

1. Quyidaki so'z va iboralarni o'rganing.

yig'ilish	majlis kotibi
anjuman	fikr va mulohazalar
majlis	kun tartibi
voqelik	tasdiqlash ustxati
majlis bayoni	ma'muriy idoralar
majlis raisi	eshitildi

2. Quyidaki nazariy ma'lumot bilan tanishing.

YIG'ILISH BAYONNOMALARI VA ULARNING TUZILISH XUSUSIYATLARI

Turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini, majlis qatnashchilarining chiqishlarini va ular qabul qilgan qarorlarni aniq, ixcham holda qayd qiluvchi rasmiy hujjat. U voqelikning o'rne, vaqti va holati haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to'g'ri qabul qilinganligini tekshirish va uning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi. Doimiy ish kuruvchi organlar (ilmiy kengash, hay'at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar (konferensiyalar, yig'ilishlar, slyotlar, komissiyalar) faoliyatlarida, albatta, majlis bayoni yozilishi kerak. Majlis bayonini yozishni tashkil qilish kotibning asosiy vazifalaridan biridir. Majlis bayonlari turli organlarning doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar majlislarida esa yig'ilish jarayonida saylangan kotib aynan shu ishni bajaradi.

Majlis bayonida o'z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas'uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

Majlis bayoni yozib olinishiga ko'ra, qisqa, to'liq stenografik, fonografik, konspektiv shakllarda bo'lishi mumkin. Qisqa majlis bayonida faqatgina kun tartibi, ma'ruzachi va muzokarada qatnashuvchilar familiyasi va qabul qilingan qaror ko'rsatiladi. Ularda ma'ruzalar mazmuni batafsil bayon qilinmaydi. Bunday majlis bayonlari masalani muhokama qilinishi haqida to'liq tasavvur bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan yig'ilishda so'zga chiqqan barcha qatnashchilarning bayon qilgan fikr va mulohazalarini qamrab olgan to'liq majlis bayoni afzaldir. Majlis bayonining to'liq shakli faqat yig'ilish xususida emas, balki o'sha tashkilot yoki organning faoliyati to'g'risida ham fikr yuritishga imkoniyat beradi.

Yig'ilish stenografiyalashtirilayotgan (stenografik) yoki magnitofon yordamida yozib olinayotgan (fonografik) bo'lsa, qisqa majlis bayoni tuzilib, stenogramma raisi va kotib tomonidan imzolanadi va asosiy majlis bayoniga ilova qilinadi.

Majlis bayonining asosiy zaruriy qismlari:

1. Muassasa nomi.
2. Sarlavha (bamaslahyat ish ko'ruvchi organ yoki yig'ilishining nomi).
3. Hujjatning nomi (Majlis bayoni).
4. Yig'ilish sanasi.
5. Shartli raqami.
6. Yig'ilish joyi.
7. Tasdiqlash ustxati (agar majlis bayoni tasdiklanishi zarur bo'lsa).
8. Yig'ilish raisi va kotibining familiyasi. a) qatnashuvchilar ro'yxati yoki soni; b) kun tartibi; v) eshitildi; g) so'zga chiqdilar; d) qaror qilindi.
9. Ilovalar (agar ular mavjud bo'lsa).
10. Imzolar.

Majlis bayonini tuzishda ularning huquqiy jihatdan to'laqlonligini ta'minlash kerak. Buning uchun majlis bayonida barcha asosiy zaruriy qismlar mavjud bo'lishi, ular to'g'ri rasmiylashtirilishi lozim.

Doimiy maslahat organi yig'ilishining majlis bayonida yig'ilishda ishtirok etuvchilar soni ko'rsatilishi juda muhimdir, chunki bu siyosiy va huquqiy ahamiyatga ega. Majlis qarorlarini qabul qilish va uning qonuniy bo'lishi uchun ishtirokchilarning nizom bo'yicha yetarli ekanligi (kvorum) asosiy hisoblanadi.

Ma'muriy idoralarda majlis bayoni umumiy yoki maxsus bosma ish qog'ozlarida rasmiylashtiriladi; majlis bayoni bir necha sahifadan iborat bo'lsa, faqat birinchi sahifa bosma ish qog'ozida, qolgan betlari esa oddiy qog'ozda yoziladi.

3. Quyidaki nazariy ma'lumot bilan tanishing.

Hisobot muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlarning bajarilishi, amaliy dolzarb ishlar, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat. Hisobotda keltirilgan ma'lumotlar aniq, ishonarli bo'lishi kerak.

Hisobotda quyidagilarga e'tibor beriladi : nima mo'ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e'tibor berildi, qanday etishmovchiliklar bo'ldi, ularni bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak. Hisobot oxirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo'lsa, uning sababi ko'rsatiladi, bu borada takliflar qayd etiladi. Rejalashtirilgan ish haqidagi hisobotlar amalda keng qo'llanadi. Hisobot shakl jihatdan ham, mazmun jihatdan ham bildirishnoma hujjatiga o'xshaydi.

Uning zaruriy qismlari :

1. Sarlavhasi : hisobot qaysi davr uchun, qanday bo'lim yoki shaxs tomonidan berilyapti.
2. Hujjatning nomi (Hisobot).
3. Hisobot matni.
4. Lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.
5. Sana.
6. Hisobotni tasdiqlovchi rahbar imzosi.

Xizmat safari va rahbarning muayyan topshirig'ini bajarish bo'yicha hisobotlar ma'lum davr ishlari bo'yicha hisobotdan qisman farq qiladi. Zaruriy qismlari :

1. Sarlavhasi : idora rahbarining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, kim tomonidan qanday topshiriq uchun hisobot berilyapti.
2. Hujjatning nomi (Hisobot).
3. Hisobot matni («Sizning topshirig'ingizga binoan» kabi iboralar bilan boshlanadi, topshiriq qanday bajarilganligi aniq ma'lumotlar bilan bayon qilinadi ; xulosa yasaladi).
4. Ilovalar ko'rsatiladi (ko'p hollarda).
5. Hisobot beruvchining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.
6. Sana.

4. Yig'ilish bayonnomasi matnini o'rganing.

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Texnologiya fakulteti 3-kurs talabalari
yig'ilshining 3-sonli

MAJLIS BAYONI

15. 02. 2016-y.

Qarshi shaxri

Rais — M. S. Raximov

Kotib — S. P. Maxmudova

Qatnashdilar: 25 kishi (ro'yxat ilova qilindi)

KUN TARTIBI:

1. Guruh talabalarining fanlardan o'zlashtirishi va davomati haqida (Guruh rahbari O. R. Soliyeva axboroti).
2. Navruz bayramiga bagishlangan tadbirlarni tashkil etishning borishi haqida (Guruh sardori S. Sharipov axboroti).

ESHITILDI:

1. Guruh rahbari O. R. Soliyeva — (Ma'ruzasining qisqacha yoki to'liq bayoni yoziladi).

SO'ZGA CHIQDILAR:

376-guruh talabasi A. Mirakbarova — (Nutqining qisqa mazmuni yoki savoli bayon qilinadi).

376-guruh talabasi P. S. Choriyev — (Nutqining qisqa mazmuni yoki savoli bayon qilinadi).

QAROR QILINDI:

(Qabul qilingan qarorlar bayoni yoziladi).

QAROR QILINDI:

(Qabul qilingan qarorlar bayoni yoziladi).

Rais

(imzo)

O. R. Soliyeva

Kotib

(imzo)

S. P. Maxmudova

5. Yozma nutqni rivojlantirish yuzasidan topshiriqlar.

1-topshiriq. Yig'ilish bayonnomasi matnini tuzing.

2-topshiriq. O'tkazilgan tadbir to'g'risida hisobot yozing.

QIRQ BESHINCHI DARS

MAVZU: "XIZMAT YOZISHMALARI. XATLAR"

Darsning maqsad va vazifalari:

Og'zaki nutq: Xizmat yozishmalarining vazifasi. Xizmat xatlarining turlari. So'rov xati. Iltimos xati. Javob xati. Ilova xat. Tasdiq xati. Eslatma xat. Da'vo xati. Talab xati. Axborot xati Kafolat xati

Yozma nutq: Xizmat xatlarining matnlarini tuzish.

1. Quyidaki so'z va iboralarni o'rganing.

muassasa	xizmat xatlari
ko'rsatma	maxsus bosma ish qog'ozlari
surovlar	zaruriy qismlar
javoblar	muassasaning ramzi
tushuntirishlar	munosabat belgisi
xabarlar	hujjat junatiladigan manzil
takliflar	nazorat haqida belgi
iltimoslar	kelishuv haqida belgi
kafolatlar	

2. Quyidaki nazariy ma'lumot bilan tanishing.

RASMIY XAT TURLARI VA ULARNING TUZULISH XUSUSIYATLARI

Xatlar muassasalar orasida xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjatdir. Xat orqali bajariladigan masalalar ko'lamida juda keng bo'lib, bunday yozishmalar vositasida turli ko'rsatmalar, surovlar, javoblar, tushuntirishlar, xabarlar, takliflar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi. Mazmun jihatdan turlicha bo'lgan bunday hujjatlar umumlashtirilgan holda xizmat xatlari deb yuritiladi. Xizmat xatlari tashkilotda ish yuritish jarayonida qo'llanuvchi hujjatlarning umumiy miqdoriga nisbatan 80 foizni tashkil etadi.

O'zaro yozishma uchun sabab bo'luvchi masalalar va holatlar qancha ko'p bo'lsa, xizmat xatlariga bo'lgan ehtiyoj va ularning turlari ham shunchalik ko'p bo'ladi. Xizmat xatlari xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Xatlarni bajaradigan vazifasiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- 1) javob xatni talab qiluvchi xatlar (da'vo xatlar, surov xatlar, iltimos xatlar);
- 2) javob xatni talab qilmaydigan xatlar (ilova xat, tasdiq xat, eslatma xat, axborot xat, kafolat xat va boshqalar).

Ushbu xatlar ma'lum bir maqsadda yoziladi, masalan kafolat xatlarda — kafolat berish ifodalansa, ilova xatlarda — xatga ilova qilinayotgan hujjatlar haqida axborot beriladi. Biroq shunday xatlar ham uchraydiki, aynan bir xat mazmunida ham kafolat berish, ham iltimos, ham eslatish ma'nolari ifodalaniladi.

Xizmat xatlari odatda xatlar uchun tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladi. Maxsus bosma ish qog'ozlari bo'lmagan hollarda xizmat xatlari muassasaning xos ish qog'oziga yoki oddiy qog'ozga yoziladi. Xat oddiy qog'oz varaqqa yozilsa, uning chap tomonidagi yo'qori burchagiga xat junatayotgan muassasa nomi ko'rsatilgan turtburchak muxr qo'yiladi.

Zaruriy qismlari burchakda joylashgan bosma yoki xos ish qog'ozlarida avval o'zbek tilida, quyida esa rus yoki boshqa tilda beriladi. Zaruriy qism uzunasiga (bo'yiga) joylashgan bosma ish qog'ozlarida chap tomonda o'zbek tilida, o'ng tomonida rus yoki ingliz tilida beriladi.

Xizmat xatlari quyidagi zaruriy qismlarni o'z ichiga oladi: O'zR Davlat gerbi; muassasaning ramziy belgi (emblema)si; aksi ifodalangan mukofotlar; vazirlik,

boshqarma nomi; tashkilot nomi; bo'linma nomi; davlat tasniflagichi bo'yicha hujjatning xos raqami; muassasaning xos raqami; pochta, telegraf adresi, bankdagi hisob-kitob raqami; sana; shartli raqam (indeks); kelgan hujjat shartli raqami; hujjatning kelish sanasi; hujjat junatiladigan manzil (xatni oluvchi muassasaning nomi); munosabat belgisi (rezolyutsiya); nazorat haqida belgi; matn sarlavhasi (xatning qisqacha mazmuni); matn; ilovalar haqida belgi; imzo; rozilik belgisi (viza); kelishuv haqida belgi; bajaruvchi haqida belgi va uning telefon raqami; bajarilganlik haqida belgi.

Da'vo xat. Ma'lum bir muassasaning boshqa bir idora yoki transport tashkilotlariga nisbatan talab va e'tirozlari bayon qilingan xatlar — da'vo xatlar yoki da'vonomalar deb yuritiladi.

Da'vo xatlar ijara pudrati, qurilish ishlari, ijara, yuk tashish va shu kabi bir qancha ishlar bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilmay qolganda o'z qonuniy huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi.

Ilova xat. Xatni qabul qilib oluvchilarni jo'natiladigan hujjatlar haqida yozma xabardor qilish uchun qo'llanuvchi qisqacha xabar qog'ozidir. Ilova xat ish yuritishda keng tarqalgan. Muassasalarda bunday xatlar shartnoma loyihalarini, ziddiyatli majlis bayonlarini, da'vo materiallarini jo'natishda qo'llanadi.

Ilova xatlarda shartnomalar, da'vo materiallarining jo'natilish vaqti va turli hujjatlar loyihasini ko'rib chiqish muddatlari ham qayd qilinadi, shu sababli da'vo-shikoyat ishlarida u yozma dalil sifatida qo'llanishi mumkin.

Ilova xatning asosiy zaruriy qismlari:

1. Xatni oluvchi muassasa va mansabdor shaxsning nomi. 2. Matn (kirish va xulosa bilan). 3. Ilova (jo'natilayotgan hujjatlarni sanash). 4. Rahbarning imzosi. 5. Ilova xatlar boshqa hujjat materiallari bilan birga qo'shib jo'natiladi.

Ilova xatlarning matnida, odatda, xulosa qismi asosiy o'rinni tashkil etadi. Unda ilova qilinayotgan hujjatlar va ularni jo'natishdan ko'zlangan maqsad ham ko'rsatiladi. Hujjatlarni jo'natishda har doim ham ilova xat tuzilishi shart emas. Birgina xujjatni (ma'lumotnoma, buyurtmanoma va boshqalar) jo'natishda ilova xatlar tuzilmaydi.

Kafolat xati. Muayyan bir shart yoki va'dani tasdiqlash maqsadida tuziladi. Xatlarning bir turi qoidaga ko'ra bajarilgan ish uchun haq to'lashda, ishning bajarilish muddati haqida, turar joy bilan ta'minlashda, ishga qabul qilishda, bajariladigan ishning sifati haqida kafolat berish uchun tayyorlanadi va tashkilot yoki alohida shaxslarga jo'natiladi.

Kafolat xatlari ham boshqa xat turlaridek, odatda, idoraning xos ish qog'oziga yoziladi.

So'rov xat. Javob talab qiladigan xizmat xat hisoblanib, bunday yozishmalarda ma'lumotlar, hujjatlar yoki boshqa zarur narsalar so'raladi.

Birgina xatda turli masalalarga doir bir necha so'rovlar aks etmasligi kerak. Bayon qilinayotgan masalalar aniq va ravshan bo'lishi lozim. Faqat shu holdagina yo'llangan so'rovga tez va mukammal javob olish mumkin.

So'rov xati odatda, ikki asosiy qismdan - kirish va xulosadan iborat bo'ladi. Kirishda so'rovni yuborilish sababi ko'rsatiladi, xulosa qismida esa xat yo'llangan tashkilotdan javob talab qilinayotgan masalalar kiritiladi.

Farmoyish xat. Bir tarmoqqa tegishli quyi muassasalarning barchasiga yo'llangan rasmiy hujjatdir. Farmoyish xatlar xizmat aloqalarining ko'pgina sohalarida qo'llaniladi. Ularning asosiy vazifasi aynan bir xil mazmundagi xabarni bir necha manzilga yetkazishdir.

Tasdiq xat. Ma'lum bir muassasa tomonidan yuborilgan iltimos va so'rovlarga javob tarzida yoziladigan xatlarning bir turi. Tasdiq xatning qaysi xatga javoban bitilganligi iloji boricha aniq ko'rsatilishi kerak. Bunday xat matnida qo'llanuvchi asosiy so'zlardan biri "tasdiqlamoq" fe'lidir.

Tasdiq xatlar o'z vaqtida jo'natilsa, eslatma xatlar uchun hech qanday ehtiyoj sezilmaydi. Natijada xizmat yozishmalarning hajmi qisqaradi.

Matn yuzasidan berilgan quyidagi topshiriqlarni bajaring.

1. Rasmiy xatlar qanday maqsadlarda yuritilishini tushuntiring.
2. Da'vo xatlarining shakl va mazmuniga xos xususiyatlarni izohlang.
3. So'rov xatlarining shakl va mazmuniga xos xususiyatlarni izohlang.
4. Iltimos xatlarining shakl va mazmuniga xos xususiyatlarni izohlang.

5. Javob xatlarining shakl va mazmuniga xos xususiyatlarni izohlang.
6. Tasdiq xatlarining shakl va mazmuniga xos xususiyatlarni izohlang.

4. Xizmat xatlar matnlaridan namunalar yozing.

O'zR Qashqadaryo viloyat matlubot jamiyati boshqaruvi
Qarshi shahar ulgurji savdo bazasi

704170, Qarshi shahri "O'zbekiston" ko'chasi, 4.

Tel.: 8-14-76, hisob-kitob raqami 0007210

2016. 26. 02. № 24 07—46

Toshkent «Malika» trikotaj ishlab chiqarish birlashmasi

700612, Toshkent sh. Usta shirin kuchasi, 21.

315 ming so'mlik kamomad tovarlar bahosini undirish haqida

2016-yil 5-yanvarda Siz tomondan 10428 raqamli hisob (schyot) orqali yuborilgan trikotaj buyumlarni oldik. Yuk O'zbekiston temir yo'lining Qarshi bekatiga 2016.10.01da 462481 raqamli temir yo'l yukxati bo'yicha 6004821 raqamli temir yo'l konteynerida, yuk jo'natuvchi («Malika» birlashmasi) ning tamg'asi (plombasi) buzilmagan holda yetib keldi.

2016. 10, 01. da trikotaj buyumlarni qabul qilib olish jarayonida har birining bahosi 70 ming so'm bo'lgan sport kostyumidan (artikili 4621) besh dona yetishmasligi aniqlandi. Kamomad jami— 350 ming so'm bo'lib, savdo isqoti (skidkasi) ni (10%) hisobga olmaganda 315 ming so'mni tashkil etadi.

Kamomad jamoat tashkilotining vakili T. Raximov ishtirokida amaldagi 197-raqamli guvohnomaga asosanib, 2016-yil 10-yanvarda tuzilgan dalolatnomada qayd etildi.

Joriy yilning 10-yanvarida birlashma adresiga ushbu kamomad haqida sizni xabardor qilish maqsadida, shuningdek, trikotaj buyumlarni qabul qilishda ishtirok etish uchun o'z vakillaringizni yuborishni so'rab sizga junatilgan telegrammamiz javobsiz qoldi.

Ko'rsatilgan tovar uchun Sizning hisobingnz (schyotingiz) da qayd etilgan so'mma to'liq to'langanligi munosabati bilan Sizdan 10 kun muddat ichida bizning hisob-kitob raqamimizga 315 ming so'm pul o'tkazishingizni so'raymiz.

Ilova: 1. Kamomad haqidagi dalolatnoma (2 bet, 1 nusxa).

2. Jamoat tashkiloti vakili guvohnomasining nusxasi (1 bet, 1 nusxa).

Baza direktori

(imzo)

R. I. Salimov

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asosiy adabiyotlar:

1. Muhiddinova X. Salisheva Z. Po'latova. O'zbek tili (oliy ta'lim muassasalari rus guruhleri uchun darslik) –Toshkent O'qituvchi, 2012 -282 b.
2. Normatova Sh. Abdurahmonova M, O'zbek tili (darslik) –Toshkent: JIDU, 2014-192b.
3. Fayzullayeva Sh., Azimova H., Usmonova G., O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma) –Toshkent: Iqtisodiyot, 2012 -108 b.
4. Yuldasheva Sh. , Kabulova D., O'zbek tili (o'quv qo'llanma) –Nukus: Bilim, 2013 -156 b.
5. Husanova N., Xo'jaqulov R., Dilmurodov N., O'zbek tili (o'quv qo'llanma). –Toshkent: TMI, 2017 -336 b.
6. Lafasov U. O'zbek tili (o'quv qo'llanma) –Toshkent:ToshDSHI, 2016 -532 b.

2. Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Asilova G. Bojxona tizimida me'yoriy hujjatlarni yuritish (rus guruhleri uchun o'quv qo'llanma) –Toshkent 2016-176 b.
8. Iskandarova G., Gulibonu Keybatuli. O'zbek tili darsligi (Xitoyliklar uchun) –Pekin, 2016. 348b.
9. Alo Raun, Basic course in uzbek . Published by Indiana University , 1996.
10. Turdiyeva K, Ahmedova D. O'zbek tili (tibbiyot institutlarining rus guruhleri talabalari uchun darslik) Toshkent: Musiqa ,2007 -206 b.
11. Qahhorova H., Muhammedova S. O'zbek tili – Toshken Universitet, 2004, -192b.
12. Рафиев А. ва б. Чет элликлар учун ўзбек тили. II қисм (СИ дискда). Тошкент: Ўзбекистон. 2001.
13. Rafiyev A, Mahmudov N., Tuldashv I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish –Toshkent, 2013-143 b.
14. Русча-ўзбекча луғат (2 жилдли). - Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2013.
15. Usmonova Sh. O'zbek tili darsligi (koreyslar uchun) –Pusan, 2005.- 182 b.
16. Ўзбек тилининг изоҳли луғати (5 жилдли). Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 2005- 2008.

Internet saytlari:

1. <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> - Самоучитель узбекского языка.
2. <http://solver.uz/translate.php> - Русско-узбекский переводчик.
3. http://sahifa.tj/uzbekskij_razgavornik.aspx - Русско-узбекский разговорник.
4. http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx- Узбекско-русский переводчик.
5. <http://library.ziynet.uz/>- таълим портали

MUNDARIJA

So'zboshi	3
1-dars. O'zbekiston - yagona vatan.	5
2-dars. O'zbek tili – davlat tili.....	9
3-dars. Milliy qadriyatlar – millat iftixori	15
4-dars. Tarix va zamonamiz.....	19
5-dars. Ulug' ajdodlarimiz.	25
6-dars. Vatan va vatanfarvarlik.....	29
7-dars. Muzeylar – o'tmish va kelajak orasidagi ko'prik.	33
8-dars. Kelajak bilimli yoshlar qo'lida.	38
9-dars. Zamonaviy dunyoda ta'lim.	41
10-dars. Kitob mutolaasi.	45
11-dars. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.	49
12-dars. Adabiyot - ma'naviyatni yuksaltiruvchi manba.	54
13-dars. Ommaviy axborot vositalari.	58
14-dars. Internet hayotimizda.	62
15-dars. O'zbekiston va jahon.	65
16-dars. XXI asrda innovatsiyalar.	69
17-dars. Davrimizning global muammolari.....	73
18-dars. Tabiat va inson.	78
19-dars. Inson va salomatlik.	82
20-dars. Huquqiy madaniyat.	87
21-dars. O'zbekistonda oliy ta'lim.	91
22-dars. Ilim maskanimiz hayotidan.	96
23-dars. Bo'lajak kasbim.	101
24-dars. Hayot mening tasavvurimda.....	106
25-dars. Ustoz maktabi.	111
26-dars. Kasbim tarixi.	116
27-dars. Iqtidor va mehnat.	120
28-dars. Yetuk mutaxassis.	126

29-dars. Kasb bayrami.	131
30-dars. Sharq akademiyalari.	136
31-dars. Ilm sari yo'l.	143
32-dars. Kasb etikasi.	147
33-dars. Nutq odobi.	152
34-dars. San'at va ma'naviyat.	156
35-dars. Men sevgan asar.	160
36-dars. Iqtisod va hayot.	164
37-dars. Ish yuritish tili va uslubi.	168
38-dars. Hujjat turlari va xususiyatlari.	172
39-dars. Tashkiliy hujjatlar va ularning turlari..	175
40-dars. Farmoyish hujjatlari va ularning turlari.	179
41-dars. Ma'lumot-axborot hujjatlari. Tarjimayi hol, Tavsifnoma.	182
42-dars. Ishonchnoma. Tilxat. Tushuntirish xati.	187
43-dars. Dalolatnoma. Ma'lumotnoma.	192
44-dars. Majlis bayoni. Hisobot.	198
45-dars. Xizmat yozishmalari. Xatlar.	203